

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2022 Vol. 1(5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir: Saodat Muhamedova
Bosh muharrir o'rinbosari: Botir Elov
Mas'ul kotib: Xurshida Kadirova

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Muyassar Saparniyazova, Manzura Abjalova, Nargiza Musulmonova, Yekaterina Shirinova, Shoira Isayeva, Oqila Turaqulova, Ikrom Islomov, Munira Shodmonova

Jurnal haqida ma'lumot

“O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o‘zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o‘qitish, noshirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O‘zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari” seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz
Website: www.aphil.tsuull.uz

MUNDARIJA

Amaliy filologiya

Muyassar Saparniyazova

Fononeymlar: tilda nom yaratishning fonetik xususiyatlari.....4

Nargiza Musulmanova

Talaba-yoshlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish
ko'nikmasini shakllantirish.....15

Jumanazar O'rozo

Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili.....32

Qiyosiy tilshunoslikning amaliy masalalari

Ханкиши Мамедов

Формулы азербайджанских и узбекских пословиц и притч
в форме «перекрёстной рифмы» или «гошайарпаг»
/«чарпазгафийе».....44

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish

Xurshida Kadirova

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda pedagogikaning
muhim jihatlari.....54

Dilafruz Xidoyatova

O'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitishda interfaol
metodlardan foydalanishning didaktik jihatlari.....69

Lingvokulturologiya

Ilhom Xudoynazarov

Til – xalq ruhiyati va madaniyatini ifoda etuvchi yetakchi omil.....78

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)

Botir Elov, Shahlo Hamroyeva, Dilrabo Elova

Morfologik analizatorni yaratish usullari.....88

Botir Elov, Xolisxon Axmedova

O'zbek tilidagi polifunksional so'zlarni semantik
farqlovchibiznes-jarayonlarni modelashtirish.....109

Korpus lingvistikasi

Manzura Abjalova

Uznet lingvistik ontologiyasini yaratishni loyihalash konsepsiyasi.....123

O'zbek va rus tillariga tarjima masalalari

Azoda Beysenova, Xurshida Kadirova

“Zamonamiz qahramoni” asarida qo'llangan frazeologizmlarning
badiiy tarjimada aks etishi (o'zbek va rus tillari misolida).....140

AMALIY FILOLOGIYA

Fononeymlar: tilda nom yaratishning fonetik xususiyatlari

Muyassar Saparniyazova¹

Abstrakt

Har bir tilda nom yaratishning shu tilga xos lingvistik qonuniyatlari mavjud. Unlilar yoki undoshlar simmetriyasi, ya'ni takrori asosida hosil bo'lgan nomlar fononeymlar deb ataladi.

Tovushning o'zi va, ayniqsa, tovushlar birikmasi ko'pincha so'zning leksik ma'nosidan qat'i nazar, nihoyatda kuchli ifodaga ega. Xorijiy davlatlarda zamonaviy neymerlar buni yaxshi tushunishgan va nom yaratish amaliyotida bunga nihoyatda katta e'tibor bilan yondashishgan.

Muvaffaqiyatli nom yaratishda fonetikaning o'rni qanday? U bizga qanday ifoda imkoniyatlarini taqdim qiladi? Eng avvalo bu – ma'lum bir tilga xos bo'lgan, alohida olingan tovush yoki tovushlar birikmasining o'ziga xosligidir. Ushbu maqolada tilda fononeymlar, nom yaratishning fonetik asoslari, nomlarni hosil qilish usullari, o'zbek tilida nom yaratishning asosiy tendensiyalari hamda qanday qilib nomni jarangdor qilish haqida ma'lumot berildi. Shu bilan birga, nom yaratishning texnologik mexanizmlari bo'yicha tavsiyalar berildi. O'zbek tili misolida milliy tillarga xos nom yaratish modellari ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: *neyming, nym, nomlar, neyming texnologiyasi, nom yaratishning lingvistik asoslari, fononeym, brend nomlari, mahsulot nomi, nom yaratish.*

Kirish

Yangi asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham, til ta'limining ham zimmasiga yangidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Davr tildan amaliy foydalanish samaradorligini fanning

¹Muyassar Saparniyazova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Amaliy filologiya kafedrasida dotsenti.

E-mail: saparniyazovamuyassar@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-8612-0289

Iqtibos uchun: Saparniyazova, M. 2022. "Fononeymlar: tilda nom yaratishning fonetik xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 4-14.

ham, ta'limning ham asosiy vazifasiga aylantirib qo'ydi. Natijada dunyo fanida tilning ichki qurilishini tavsiflaydigan nazariy lingvistikadan til va shaxs mushtarakligi masalasiga asoslangan amaliy yo'nalishlarga o'tish to'lqini kuchaymoqda. Shu jarayonda amaliy tilshunoslik sohalaridan biri bo'lgan nomlash (neyming)ning til me'yorlariga mos qonuniyatlarini ishlab chiqish, milliy nomlar zaxirasini yaratish bugunning kechiktirib bo'lmas vazifalaridan biridir. Nomning boshqa tilda berilishi, bir tomondan, milliy tilimizga soya solish, uning qo'llanish doirasini cheklash, sofligiga putur yetkazishga olib kelsa, boshqa tomondan, kishilarda milliy tilga bepisandlik kayfiyatini hosil qiladi.

O'zbek tilshunosligida neyming, nom(neym) yaratish va tasnifi haqida tadqiqotlar yetarli yemas. D.Lutfullayevaning "O'zbek tilida nom yaratish texnologiyasi" monografiyasi, D.Xudoyberganovanning "Tashkilot, korxonalar va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati", M.Saparniyazova, J.O'rozovlarning "O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari" monografiyasi bu sohada dastlabki ishlardan sanaladi [Saparniyazova, O'rozov 2021; Lutfullayeva 2021; Xudoyberganova 2021].

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'zbek tilida neyming: me'yoriy-huquqiy asoslarini yaratish" mavzusidagi ilmiy loyiha (loyiha rahbari – f.f.n., dos. M.Saparniyazova) bajarilmoqda. Loyihaning asosiy maqsadi ishlab chiqarish, savdo obektlari, mahsulotlar, uning brendiga nom qo'yish jarayonini yengillashtirish, xalqimizning milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan to'qima nomlarning oldini olish, yangi nomlarning o'zbek adabiy tili me'yorlariga mos bo'lishini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik subekti bilan shug'ullanuvchi ommani neyming texnologiyasi asoslaridan xabardor qilish, ularga uslubiy ko'rsatmalar berish, savdo brendlari nomlarining zaxirasini yaratish, o'zbek xalqining milliy-madaniy qarashlari, mentaliteti hamda o'zbek adabiy tili me'yorlariga asoslangan nom yaratishning elektron dasturiy ta'minotini yaratish hamda internet tarmog'ida neyming xizmatini tashkil qilish, umuman, o'zbek tilida neyming (nomlash)ning amaliy va huquqiy mexanizmini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur loyihani bajarishning ikkinchi yilida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli farmoniga muvofiq neyming xizmatini tashkil qilish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va u asosida Milliy nomlash Markazini tashkil qilish, dav-

lat tili talablari asosida nomlash tizimini yaratish, bu xususda Vazirlar Mahkamasi qarori loyahasini tayyorlash bo'yicha ham keng qamrovli tashkiliy ishlar olib borildi. Loyiha g'oyalari asosida 2021-yil 16-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 144-sonli "Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obektlariga nom berishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi qoshida Nomlash xizmati tashkil qilindi. Yo'lga qo'yilgan mazkur xizmat turi orqali nom yaratish jarayonida o'zbek tili me'yorlarining buzilishi bilan bog'liq holatlarga chek qo'yiladi.

Asosiy qism

Har qanday ishlab chiqarish, savdo obyekti yoki mahsulot, avvalo, muvaffaqiyatli tanlangan nomi orqali mashhurlik pillapoyasiga qadam qo'yadi. Ishlab chiqarish, savdo, firma, mahsulotga qo'yilgan nom uning yuzi hisoblanadi. Nom muvaffaqiyat qozonishi uchun bir qator talablarga javob berishi kerak.

Har bir tilda nom yaratishning shu tilga xos lingvistik qonuniyatlari mavjud. Biz quyida nom yaratishning fonetik jihatlari, qanday qilib nomni jarangdor qilish xususida so'z yuritamiz.

Tovushning o'zi va, ayniqsa, tovushlar birikmasi ko'pincha so'zning leksik ma'nosidan qat'i nazar, nihoyatda kuchli ifodaga ega. Xorijiy davlatlarda zamonaviy neymerlar buni yaxshi tushunishgan va nom yaratish amaliyotida bunga nihoyatda katta e'tibor bilan yondashishgan.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, shoirlar eng yaxshi neymerlar sanaladi. XX asrning 20-yillarida rus, shuningdek, sobiq Ittifoq adabiyotida eng yaxshi neymerlardan biri V.V.Mayakovskiy bo'lgan. Uning matnlari tahlili ularning iste'molchilarga ta'siri nihoyatda kuchli bo'lganini ko'rsatadi. Albatta, V.V.Mayakovskiy tijorat neymeri emas, balki g'oya neymeri sifatida faoliyat ko'rsatgan. Yorqin qofiya va metaforalardan tashqari uning ROSTA bo'g'inlarida sof fonetik jihat ham muhim rol o'ynagan. Neymer – istasa ham, istamasa ham, adabiyotshunosdir. Ko'plab zamonaviy g'arb professional neymerlari avval yozuvchi va shoir bo'lganliklari bejizga emas. Bu holatni o'zbek tilidagi she'riy matnlar tahlilida ham kuzatish mumkin. Masalan, XX asrning yorqin ijodkorlaridan biri G'afur G'ulomning quyidagi she'riga diqqatni qaratsak:

Ko'm-ko'k,

*Ko'm-ko'k,
Ko'm-ko'k
Ko'klam quyoshidan ko'kargan qirlar,
Po'lat yag'rinlarni ko'targan yerlar
Ko'm-ko'k.*

Mazkur misralarda yorqin qofiya va metaforalardan tashqari uning bo'g'inlarida sof fonetik jihat – tovushlar takrori muhim rol o'ynagan. Professional neymerlar adabiyotning mana shu qoidalari-ni yaxshi bilishlari lozim.

“Zamonaviy neymerlar, kopirayterlar va brending bo'yicha mutaxassislar mafkuradan qochishni yaxshi ko'radilar. Biznes qilish – boshqa narsa, mafkura esa – mutlaqo boshqa narsa, ularni solishtirish noo'rin. Bunday asosiy argument shunday: mafkura ommaga murojaat qiladi, biznes esa alohida iste'molchiga, shaxsga murojaat qiladi. Mafkuraviy tashviqot umum jamoaga qaratiladi, biznes-reklama esa oxir-oqibat manzillidir: ular iste'molchi diqqatini jalb etishga yo'naltiriladi. Har qanday holatda ham, siyosiy, mafkuraviy targ'ibot-tashviqot va biznes-reklama tipologik jihatdan bir xil usullarni ishlatishni nazarda tutadi. Ularning farqi shundaki, ular ongning turli nuqtalariga, turli arxetiplarga, “ong osti burchaklari”-ga murojaat qiladi. Ular turlicha tarmoqlangan, ammo bir xil usullarga ega. Demak, zamonaviy neymerlar XX asr ideologlari-siyosat-chi texnologlaridan nimanidir o'rganishlari mumkin” [Елистратов, Пименов 2014, 64].


Muvaffaqiyatli nom yaratishda fonetikaning o'rni qanday? U bizga qanday ifoda imkoniyatlarini taqdim qiladi? Eng avvalo bu – ma'lum bir tilga xos bo'lgan, alohida olingan tovush yoki tovushlar birikmasining o'ziga xosligidir.

Ma'lumki, tovushlar unli va undoshlarga ajraladi. Unlilar ovozdan, undoshlar esa ovoz va shovqindan yoki faqat shovqindan hosil bo'ladi. Unlilar tizimi **vokalizm** (lot. vocalus — unli tovush), undoshlar tizimi esa konsonantizm (lot. consonantis — undosh tovush) deb ataladi.

Ovoz nima? Ovoz tovush paychalarining titrashidan kelib chiqadi, ya'ni aytish mumkinki, bu qandaydir ohangdorlik-musiqiylikdir. Unlila garmoniyasi so'zda nafosatli, nozik, silliq, oquvchan musiqiy ohangni hosil qiladi va nomning jarangdor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shovqin esa undosh tovush asosini tashkil etadi. Shovqin hosil bo'lishi uchun havo oqimi qandaydir to'siqqa uchrashi kerak. Undosh bu – kuch, qattqlik, mustahkamlikdir, nom tarkibida undoshlar garmoniyasi ham ahamiyatlidir.

O'zbek tili vokalizmi konsonantizmga nisbatan juda kam, ayniqsa unilari nisbatan ko'proq bo'lgan turk tili, fransuz tili bilan solishtirilganida bu yaqqol seziladi. Shu nuqtai nazardan unilari ko'p bo'lgan tillar, jumladan, fransuz tili nafis til sifatida talqin qilinadi.

O'zbek vokalizmida oltita unli mavjud. Quyida o'zbek tilidagi unilar tasnifi keltiriladi.



Unlilar qatori bu – talaffuz vaqtida tilning oldinga yoki orqaga, ya'ni gorizontaal harakatidir. Ko'tarilish – tilning tepaga va pastga, ya'ni vertikal harakatidir. A-O, E-O', I-U unlilarini juft-juft talaffuz qilib ko'rsangiz, tilning oldinga va orqaga siljishini yaqqol sezasiz. Endi I-E-A; U-O'-O unlilarini talaffuz qilib, tilning tepadan pastga tomon tushib, og'iz kengayishini kuzatishingiz mumkin. Qayd qilish joizki, orqa qator unlilari ayni vaqtda lablangan unilar hisoblanadi, chunki ularni talaffuz qilganda lablar ishtirok etadi.

Dastlab tovushlarning nom yaratish jarayoniga ta'siri qay darajada ekanligini ko'rib chiqamiz. Nom yaratish amaliyotiga nazar solsak, uning tarkibida unilar alohida ahamiyatga ega, ya'ni unilar nomning jarangdor va jozibali bo'lishini ta'minlaydi.

Unlilar yoki undoshlar simmetriyasi, ya'ni takrori asosida hosil bo'lgan nomlar fononeymlar deb ataladi. Ma'lumki, ishlab chiqarish, savdo-sotiq obyektlari, korxonalar, firma, mahsulotga qo'yiladigan har qanday nom nominativ vazifa bajaradi, shu bilan birga nomlanayotgan obyekt yoki mahsulot haqida dastlabki axborotni berishi lozim. Fononeymlarda, aksariyat hollarda, informativlik asosiy ma-

qsad sanalmaydi, balki nomning jarangdorligi, musiqiyliigi, tovushlar uyg'unligi, talaffuzidagi jozibadorlik asosiy maqsad sanaladi. Masalan, *KARS-KURS* (makkajo'xori qalamchalari, mahsulot nomi), *TATA* (mehmonxona nomi), *SIM-SIM*, *KISH-MISH* (restoran nomlari), *JIZ-BIZ* (kafe nomi), *Zam-Zam* (ma'danli suv nomi) va hk.

Ko'p hollarda fononeymlarda ushbu usul bilan bir qatorda, neymerlar ekzotizmlarga murojaat qiladilar. Ko'pincha kam qo'llanadigan, tarkibida unli tovushlari undoshlaridan kam bo'lmagan yoki hatto ko'proq bo'lgan, imkon qadar undoshlari hamda tarkibida ovoz ustunlik qiluvchi sonorlardan iborat bo'lgan ismlarga murojaat qiladilar. Masalan: *Paulina*, *Albina*, *Elana*, *Lana*, *Eleonora*, *Lenora*, *Marianna* kabi. Ushbu fonetik usul yordamida neymerlar latofat, go'zallik, nafislik, purviqorlik, hashamat, eng muhimi, mahalliy bo'lmagan, ekzotik-maftunkorlik g'oyasini bermoqchi bo'ladilar. "Shunisi ravshanki, vokallik orqali ekzotiklashtirish (va, aksincha) –neymingning kechagi kunidir. XIX asrlardayoq bu kabi tijorat poetikasini galanteriyalilik (ortiqcha jimjimadorlik) deb atashgan. Galanteriyali (ortiqcha jimjimadorlik) – bu "gallant" va "galanteriya" so'zlari kontomenatsiyasidir. Yozuvchilar o'z matnlarida galanteriyali xushmuomalalik (ortiqcha mulozamat)ni tilga olganlar. V. Dal "galanteriyali xushmuomalalilik" birikmasini qo'llagan. A.P. Chexov esa xaridorga galanteriyali munosabatda bo'lgan "savdo xodimlari"ni masxara qilgan" [Елистратов, Пименов 2014, 76].

O'zbek tilida bu kabi ekzotik fononeymlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan: *FLORENSIYA*, *PILIGRIM*, *CAFFFELITO COFFE* (restoran nomlari, Toshkent), *ROMBO* (MCHJ, Shayxontohur), *BELISSIMO*, *TET – A TETE*, *GUCHCHI*, *NEFIRTITI* (go'zallik salonlari nomlari, Toshkent).

Psixolingvistlar va neyrolingvistlar unli tovushlar, ularning birikmasi, so'zlardagi faolligi so'zni qabul qilish va eslab qolishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaganlar. Nom yaratishda ham ushbu qoidaga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. O'zbek neyming-vokalizmida qanday tendensiyalar mavjud va qanday tavsiyalar bo'lishi mumkin? Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tilda so'zlar tarkibida unlilarning qo'llanish xususiyatiga tayangan holda, nom yaratishda ham ikkita strategiyani ajratib ko'rsatish mumkin. So'z har xil unlilarni ta'kidlab ajratish yoki bir xil unlilarning uyg'unligi, o'xshash talaffuz qilinishi asosida quriladi. Tilshunoslikda birinchi usul *dissonans*, ikkinchisi esa *assonans* deb nomlanadi. *Dissonans* so'zi (lot. *dissono* — beqaror jaranglayman) poetikada noaniq qofiyani ifodalash uchun ishlatilgan. *Assonans* (frans. *assonance* — ohangdosh-

lik) “dissonans” soʻzi kabi poetik termin sifatida qoʻllangan. Baʼzan tilshunoslar assonans soʻzining maʼnodoshi sifatida singlarmonizm, yaʼni unlilar uygʻunligi terminidan foydalanadilar.

Yuqorida taʼkidlanganidek, tildagi mazkur qoidalarga amal qilgan holda, nom yaratishda ham ikkita usulni ajratib koʻrsatish mumkin:

a) har xil unlilarning nom (neym)lar tarkibida qoʻllanishi: *KOʻHINUR, SULOLA* (restoran nomlari, Toshkent);

b) bir xil unlilarning nom (neym)lar tarkibida qoʻllanishi: *AK-BAR, SAYRAM, BARAKA* (firma nomlari).

Turlicha deganda tilning gorizontal yoki vertikal holatiga koʻra farqli harakati orqali hosil boʻlgan unlilar tushuniladi. Bunda old qator unli orqa qator unli bilan, yuqori tor unli oʻrta keng yoki quyi keng unli bilan birga qoʻllanadi. Bu kontrast ranglarning birlashishi kabi holatdir, masalan, *Bilayn, Simurgʻ* kabi.

Asosan, quyidagi birikuvlar ifodalidir:

$a - i - a,$

$i - u - i,$

$i - o - i,$

$i - a - u,$

$u - a - i$ va hokazo.

Qayd etilgan uygʻunlikdagi unlilar qoʻllangan neymmlar fonetik jihatdan samaradordir. Shu bois bu kabi nomlar keng tarqalgan boʻladi. Leksik jihatdan ular juda koʻp qoʻllangan boʻlsa ham, bunday nomlar uzoq vaqt faol boʻladi, jozibadorligini yoʻqotmaydi.

Metodlar tahlili

Aksariyat tadbirkorlar nomni, masalan, oʻzlarining kompaniyalari nomlarini ishlab chiqish zaruriyatiga duch kelmoqdalar. Agar kompaniya chakana mijozlar uchun tovarlar yoki xizmatlar yaratadigan boʻlsa, unda nomlarni mustaqil ravishda yoki brend mutaxassislari yordamida ishlab chiqish bir necha marta bajarilishi kerak. Bir qarashda, ismlarni ixtiro qilish maxsus mahorat talab etmaydigan va tilni yaxshi biladigan har bir kishi uchun ochiq boʻlib tuyuladi. Shu bilan birga, minglab misollardan maʼlumki, biznes egalari va kompaniya xodimlari koʻp vaqt va kuch sarflab, munosib nom topolmadilar.

Yuqori texnika va texnologiyalarning rivojlanishi zamonaviy biznes olamini raqobatbardosh brendlarga aylantirib yubordi va bu bilan bozorni egallashda afzalliklar yaratdi. Zamonaviy neyminglar kompaniya faoliyatida muhim komponentga

aylantirdi. Kompaniyaning brend belgilari ishonch, mustahkamlik, iste'molchilarda ma'lum bir darajada ularga nisbatan umidvorlik yaratildi. Neyminglar iste'molchilarning ongini zabt etish strategiyalarini kuchaytirdilar. Brendlar mahsulotga o'xshab ishlab chiqarilmaydi, ular iste'molchilar tafakkurida shakllanadi, shu bilan birga mahsulotga nisbatan emotsional bog'liqlik yaratadi.

“Anglashiladiki, nom (neym)lar mohiyatan boshqa nomlardan tubdan farqlanadi. Bunday nomlarni yaratish alohida faoliyatni, ijodiy jarayonni taqozo etadi. Ular atov birliklari hisoblansa-da, fonetik, orfoepik, grammatik jihatdan ham muayyan mezonlarga bo'ysunadi. Ushbu nomlarning talaffuzda oson bo'lishi ularning qat'iy tarzda fonetik-orfoepik me'yorlarga mos bo'lishini ko'rsatadi. Talaffuzi qiyin bo'lgan nomlar iste'molchini chalg'itadi, uning xotirasidan tez chiqib ketadi. Nomlar haddan tashqari uzun bo'lgan holatlarda ham til egasi uchun qiyinchilik tug'diradi, uzun jummalardan iborat nomlar tez yoddan chiqadi. Nomlarning qisqa, tishunarli, kishilar yodida tez saqlanib qolishi uning muvaffaqiyatli tanlanganini ko'rsatadi.” [Lutfullayeva, Saparniyazova 2019]

Siz ishlab chiqarayotgan mahsulot turiga kompaniya nomini moslash ham yaramaydi. Chunki vaqt o'tib, boshqa turdagi tovarlarni ham sotish bilan shug'ullanishni istab qolishingiz mumkin. Faoliyat nomga mos bo'lishi uchun esa keyin kompaniya nomini o'zgartirish uchun uni qayta ro'yxatdan o'tkazishingizga to'g'ri kelishi mumkin. O'zgalardan ajralib turmoqchi bo'lgan ba'zi tadbirkorlar qosh qo'yaman deb ko'z chiqarishadi: murakkab so'zlar va tushunarsiz jummalardan foydalanishadi. To'g'ri, siz tanlagan nom o'zgacharoq jaranglasa va yozilsa, u noyoblik kasb etadi. Ammo bu iste'molchilaringiz yoki mijozlaringizning jig'iga tegmasmikini? Shunchaki chiroyli bo'lgan so'zni topish yetarli emas. Nom faoliyat turiga ishora qilishi joiz. Yaxshi nom – eshitganingdayoq kompaniya qanday sohada faoliyat yuritishi va qanday xizmatlarni taqdim etishi to'g'risida tasavvur hosil qiladiganidir.

Nom lingvistik jihatdan mukammal bo'lishi bilan birga inson ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, aksincha, til egalarining milliy-madaniy qarashlari, milliy odob-axloq me'yorlariga mos bo'lishi lozim. Tovar belgisini ishlab chiqish jarayoni nom sifatida nomlanadi. “Tovarlarning nomlari mavjud yoki figurali so'zlarni ishlatish natijasida paydo bo'lishi mumkin. Masalan: Apple, Volkswagen, Black Berry markalari. Odatda, reklama paytida nom va logotip ma'lum bir hikoya, afsona, haqiqiy yoki xayoliy fakt bilan bog'liq boladi. Market-ingda bu tovar mifologiyasi deyiladi”

Bugungi kunda aksariyat tadbirkorlar professional darajadagi “neyming” xizmati – savdo markasi uchun kommersiya jihatidan samarali bo‘lgan nomni ishlab chiqish xizmati uchun yaxshi haq to‘lashga tayyor. Lekin “neyming” bo‘yicha mutaxassis xizmati uchun katta mablag‘ni sarflashdan oldin har jihatdan qulay bo‘lgan nomni mustaqil ravishda topishga urunib ko‘rish ham zarar qilmaydi. Ko‘pincha esa shunday tarzda tavakkal yondashuv natijasi “branding” bo‘yicha nufuzli mutaxassislar tomonidan ekspertiza qilinganda anchayin muvaffaqiyatli deb topiladi.

Dunyo bozorida ishlab chiqarish obyekti yoki mahsulotning raqobatdoshligi, keng tarqalishi muayyan darajada muvaffaqiyatli tanlangan nomga ham bog‘liqligi sir emas. Kishilar qadim zamonlardan beri nom yaratishda turli usullardan foydalanib kelishgan: ishlab chiqarish, savdo obyekti yoki mahsulotga asosiy hollarda uning xususiyatidan kelib chiqib nom berishgan, ularga bevosita ishlab chiqarish, savdo obyekti joylashgan shahar, qishloq, ko‘cha nomlarini qo‘yishgan yoki korxonani uning ta‘sischisi, mahsulot egasi nomi bilan atashgan.

Neyming tarixida ishlab chiqarish, savdo obyekti yoki mahsulotga kishilarning nomlarini qo‘yish hollari ko‘p kuzatiladi. Nazarimizda, bu kabi vaziyatlarda mahsulotning dunyo brendi darajasiga ko‘tarilishida nomning o‘zi yetarli emas. Nom mahsulotga tavsif berishi, uni namoyish qilishi, mahsulot va iste‘molchi o‘rtasida aloqa vositasi rolini bajarishi maqsadga muvofiq. Muvaffaqiyatli tanlangan har qanday nom iste‘molchining diqqatini mahsulotga jalb eta oladi. [Kapnova 2014]

Xulosa

Ko‘rinadiki, bir xil yoki har xil unlilar garmoniyasiga asoslangan nomlar nihoyatda jozibador bo‘ladi va nomning muvaffaqiyat qozonishiga olib keladi. O‘zbek tilida shunday neymlar mavjudki, ular ham semantikasi, ham vokalizmi hisobiga chiroyli jaranglaydi va nom sifatida uzoq yillar xizmat qila oladi.

Nom yaratish amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan nomlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fononeymlarda har doim ham o‘zbek tilining me‘yorlariga rioya qilingan deb bo‘lmaydi. Tilning fonetik qonuniyatlari asosida nom yaratishda tilning belgilangan me‘yorlariga amal qilmaslik nomlarning muvaffaqiyatsiz va samarasizligiga olib kelganligi holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Xullas, yangi nom yaratishda tilning fonetik imkoniyatlaridan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish nomning muvaffaqiyatlilikini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Saparniyazova, M., O'rozov J. 2021. *O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari*. T: Ishonchli hamkor.
- Lutfullayeva, D. 2021. *O'zbek tilida nom yaratish texnologiyasi*. Toshkent.
- Xudoyberganova, D. 2021. *Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati*. Toshkent: Ishonchli hamkor.
- Елистратов, В.С., Пименов П.А. 2014. *Нейминг: искусство называть*. Москва, стр.64.
- Елистратов, В.С., Пименов П.А. 2014. *Нейминг: искусство называть*. Москва, стр.76.
- Lutfullayeva, D., Saparniyazova, M. 2019. *Naming: The Technology of Creating a Name in the Language. Test Engineering and Management*. November-December United States: Mattingley Publishing Co., Inc. – P. 4184.
- Карпова, С. В. 2014. *Брендинг: учебник и практикум для прикладного бакалавриата*. С. В. Карпова, И. К. Захаренко; под общ. ред. С. В. Карповой, 439 с.

Phononyms: phonetic features creating names in a language

Muyassar Saparniyazova¹

Abstract

Each language has its own linguistic laws of name formation. Phononyms are names formed by the repetition of symmetrical vowels or consonants. The sound itself, and especially the combination of sounds, often has a very strong expression, regardless of the lexical meaning of the word. In foreign countries, modern namers are well aware of this and take the practice of creating names very seriously.

What is the role of phonetics in creating a successful name? What opportunities for self-expression does it offer us? First of all, it is the specificity of a particular sound or combination of sounds characteristic of a particular language.

This article provides information about phononyms, the phonetic foundations of creating names, the main trends and methods for creating names, and how to make a name sound. Along with this, recommendations

¹*Muyassar Saparniyazova* - Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Associate Professor of Applied Philology.

E-mail: saparniyazovamuyassar@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-8612-0289

For references: Saparniyazova, M. 2022. "Phononyms: phonetic features of name formation in language". *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1 (5): 4-14.

on technological mechanisms are given. The specifics of the model for creating names in the Uzbek language are developed.

Key words: *naming, naming, name, name creation, naming technology, phonetic foundations of name creation, phonym, brand names, product name.*

References

- Saparniyazova, M., O'rozov J. 2021. *O'zbek tilida nom yaratishning milliy-madaniy xususiyatlari*. T.: Ishonchli hamkor.
- Lutfullayeva, D. 2021. *O'zbek tilida nom yaratish texnologiyasi*. Toshkent.
- Xudoyberganova, D. 2021. *Tashkilot, korxon va muassasa nomlarining izohli-tavsiyaviy lug'ati*. Toshkent: Ishonchli hamkor.
- Yelistratov, V.S., Pimenov P.A. 2014. *Neyming: iskusstvo nazivat*. Moskva, str. 64.
- Yelistratov, V.S., Pimenov P.A. 2014. *Neyming: iskusstvo nazыvatъ*. Moskva, str. 76.
- Lutfullayeva, D., Saparniyazova, M. 2019. *Naming: The Technology of Creating a Name in the Language*. Test Engineering and Management. November-December United States: Mattingley Publishing Co., Inc. – P. 4184.
- Karpova, S. V. 2014. *Brending: uchebnik i praktikum dlya prikladnogo bakalavriata*. S. V. Karpova, I. K. Zaxarenko; pod obщ. red. S. V. Karpovoy, 439 c.

Talaba-yoshlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ko'nikmasini shakllantirish

Nargiza Musulmanova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada talaba-yoshlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va ilmiy-ijodkorlik ko'nikmasini shakllantirish, Oliy ta'limda talabalarni ilmiy matn turlari bilan tanishtirish va ularni yaratish tamoyillari, og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, badiiy va ilmiy adabiyotlarni mulohaza qilish, konspekt va boshqa ilmiy matnlar ustida ishlash, ma'ruzalar, ularning turlari, ularga tayyorlanish jarayoni, ilmiy bilish, metodologiyalar haqida gap boradi. Turli ilmiy matnlar uchun reja tuzish, konspekt, referat, maqola, tezis, taqriz, Abstrakt kabilarni yozish va tartiblash asosli misol va metodlar asosida bayon etilgan. Talabalarga ilmiy matnlar yaratishni o'rgatish bilan birga, tayyor ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish, ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalarni o'qib o'rganish va tahlil qilish, adabiyotlarni tartiblash, elektron saytlardan mavzu uchun zarur bo'ladigan materiallarni izlab topish hamda ish jarayonida foydalanish, adabiyotlar ro'yxati va havolalar (snoska)ni shakllantirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishni ham ushbu maqolamizning bir vazifasi sifatida e'tirof etish mumkin. Turli xil ma'ruzalarni tayyorlash, ularni turli usullarda taqdim qilish, kompyuterda taqdimotlar tayyorlash va namoyish etish, tayyor ishlarni himoya qilish kabilarni o'rgatish ham ham ushbu maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *ilmiy va ijodiy ish yozish, tadqiqot, ilmiy mavzu, ilmiy matn, ijodiy matn, metodologiya, evristika, maqsad, vazifa, potensial, ilmiy salohiyat, og'zaki axborot, yozma axborot, ilmiy-uslubiy manbalar, dissertatsiya, kurs ishi, Abstrakt, rezyume.*

Kirish

Inson o'z atrofidagi olamni o'rganar ekan, o'rganayotgan ma'lumotlari bilan birgalikda o'zi ham yangiliklar yaratish qobiliyatiga egadir. Chunki kashfiyotlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va hayotga kirib kelmaydi. Dunyoni anglash – uni o'rganish demak. Shunday

¹Musulmanova Nargiza Raxmatillaevna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU.

E-pochta: musulmonova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-0001-1725

Iqtibos uchun: Musulmanova, N.R. 2022. "Talaba-yoshlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish ko'nikmasini shakllantirish". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 15-31.

ekan, amalga oshirilgan har qanday tadqiqot ishi – dunyoni anglashga va uning taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishga bir qadam hisoblanadi.

Ilmiy va ijodiy ish olib borish jarayoni o‘ziga xos metodologik xarakterga ega bo‘lib, bunda subyekt va obyekt o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik muhim rol o‘ynaydi. Zero, bunday integratsiya ilmiy tadqiqot olib boruvchi subyektning o‘z obyekti (tadqiq mavzusi)ga izchil ta‘sir ko‘rsatadi. Shu orqali inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish yo‘lida fandagi barcha yangiliklarni va fanning tarixini o‘rganishga, o‘sha muhitga kirib olishga, uning qaysidir jihatlarini o‘zgartirishga, asosli yangilik yaratishga harakat qiladi.

Ilm-fan taraqqiy etar ekan, unga bo‘lgan ehtiyoj va zaruriyat ham ortib boradi. Ijod qilish, ilm bilan shug‘ullanish, yangiliklarni kashf qilish, ilmiy muammolar va ularning yechimlarini topish, tafakkurni o‘stirish, yoshlarni ilm bilan shug‘ullanishga da‘vat etish – bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida tahsil oladigan talabalarning barchasi o‘z yo‘nalishi va mutaxassisligidan kelib chiqib, o‘qitiladigan barcha fanlardan topshiriqlar, xususan, referat, kurs ishi, tezis, kichik ilmiy va metodik maqolalar kabi ilmiy matnlar bilan ishlashga majbur bo‘ladilar. Ularda bu ko‘nikmalarni shakllantirish esa oliy o‘quv yurtining professor-o‘qituvchilari zimmasiga tushadi. Referat yoki kurs ishi haqida tushunchaga ega bo‘lmagan talaba uni mukammal bajara olmaydi. Natijada, ko‘r-ko‘rona ko‘chirib tayyorlangan ish talabani baholashda qiyinchiliklarga olib keladi. Tajribamiz shuni ko‘rsatadi-ki, yillar davomida shakllanadigan ilmiy ijodkorlikni biz talabalardan zudlik bilan rivojlanishini talab qilamiz. Chunki, 1-kursdan boshlab ulardan referatlar, taqdimotlar, esse, Abstrakt, konspekt va shunga o‘xshash matnlarni yaratishni, yangi zamonaviy usullarda ularni taqdim etishni talab qila boshlaymiz. Tabiiyki, 1-kurs talabasi bunga hali tayyor bo‘lmaydi.

Talabalarda ilmiy-ijodiy ish yozish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ilmiy tadqiqot metodologiyasi evristik xarakterga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ilmiy ijod bir mavzu asosida ilmiy tadqiqot olib borish demakdir. Har qanday ilmiy tadqiqot esa, o‘z navbatida empirik va nazariy qarashlarni, shu bilan birga, asoslarni ham talab qiladi. Biz ilmiy matn turlarining bir qanchasi bilan yaqindan tanishish bilan birga, ularni shakllantirish, ularga oid manbalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, tanqidiy fikrlar bildirish, analiz va sintez qilish, o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishish yo‘lida ulardan to‘g‘ri foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish imkoni-

yatiga ega bo'lamiz.

Asosiy qism

Ma'lumki, fan doimiy o'zgaradigan, yangilanib boradigan hayotimizning bir bo'lagi hisoblanadi. Shunday ekan, fanda bo'ladigan hech bir yangilik yoki o'zgarish insoniyatni befarq qoldirmaydi. Ijod qilish qobiliyatiga ega bo'lgan har qanday shaxs esa, unga o'z hissasi-ni qo'shishga harakat qiladi. Masalan, biror bir o'qitilayotgan fandan referat tayyorlashda ham talaba ma'lum bir mavzuni o'rganib chiqishga majbur bo'ladi. O'sha "o'rganish" esa, talabaning mavzuga va fanga nisbatan o'z fikrini bildirish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Har qanday mavzu nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilishni talab etadi. Shuning uchun nazariy o'rganilgan mavzu amalda ishlab chiqilishi, o'rganilishi va hayotga (ilmga) tadbiiq etilishi lozim.

Bakalavr va magistratura ta'limida talaba hamda magistrantlar amalga oshiradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lami nihoyatda keng bo'lib, ularni tadqiq etishda ancha mehnat va malaka talab etiladi. Sabr-toqat va qunt bilan amalga oshirilgan ish esa, albatta, o'z natijasiga ega bo'ladi. Masalan, talaba biror mavzuda maqola yozmoqchi bo'lsa, o'sha mavzu yuzasidan materiallarni o'rganib chiqishi, ularni tahlil qilishi lozim bo'ladi. Bunda u mazkur o'rganilayotgan mavzu bo'yicha nimalar yozishi mumkinligini, qanday yangi ma'lumotlar kirita olishi yoki, hattoki, yangilik yaratishi mumkinligini oldindan prognoz qila oladigan darajada bo'lishi kerak. Chunki har qanday tadqiq etilayotgan ishning natijasini tadqiqotchi oldindan ko'ra bilishi lozim.

Kichik tadqiqotlar – katta tadqiqotlar uchun zamin bo'la oladi. Masalan, yillar davomida yozib borilgan maqola va tezislar kelajakda amalga oshiriladigan ilmiy ishning asosi bo'lishi mumkin. Yoki referat va kurs ishlari bitiruv malakaviy ishini yozishda tayyor material vazifalarini o'tashi ham mumkin. Maqolalar, ilmiy ishlar, tezis, dissertatsiyalarga yoziladigan Abstraktlar materiallarni ixcham holda ta'riflashga, o'z munosabatini bildirishga o'rgatishi mumkin.

Biz, ya'ni oliy ta'lim professor-o'qituvchilari talaba-yoshlarga ilmiy ishlarni to'g'ri yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam berishimiz lozim. Buning uchun nimalarga ahamiyat berish kerak? Eng avvalo, talabalarning ilmiy va ijodiy potensialini oshirishga, mustaqil holda ilmiy asarlarni o'qib, o'rganib, ularni tahlil qilishga, talabalarni ilmiy tadqiqotlar strukturasi va asosiy usullari haqidagi bilimlarni egallashlariga ko'maklashishga, konspekt, referat, esse, ma'ruza matnlari, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlar-

ni yozishda malaka hosil qilishda sistemali ilmiy-amaliy ma'lumot berishga, eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish, olib borish va tahlil qilishga, ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirishga asosiy e'tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu maqsadlarga erishish uchun esa talabalarni nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish, ilmiy va ijodiy ish olib borish uchun adabiyotlar, turli ilmiy-uslubiy manbalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, ilmiy matn turlari bilan tanishtirish va ularning o'zaro farqli xususiyatlarini e'tirof etish, axborotlarni og'zaki va yozma shaklda yetkazish ko'nikmalarini shakllantirish, tadqiqot uchun mavzu tanlash, ilmiy termin va atamalarning mazmuni hamda mohiyatini o'rgatish, ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan tanishtirish kabi bir qator vazifalarini bajarish zarur.

Talabalar o'qitiladigan fanlar bo'yicha mavzularni yaxshi o'zlashtirishlari uchun mustaqil ishlarni mavzularga mos ravishda bajarishlari foydadan holi bo'lmaydi. Bundan tashqari, slayd-taqdimotlar tayyorlash, kompyuterda matnlarni to'g'ri terish va tahrir qilish, test tuzish, maqolalar, ilmiy ishlarni tahlil qilish va munosabat bildirish, Abstrakt yoki rezyumelar yozish kabi mashqlar ham talabalarining kelajakda ilmiy-ijodiy ish bilan shug'ullanishlarida katta yordam beradi.

Talabalarga ilmiy matnlar yaratishni o'rgatish bilan birga, tayyor ilmiy va badiiy adabiyotlardan foydalanish, ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalarni o'qib o'rganish va tahlil qilish, adabiyotlarni tartiblash, elektron saytlardan mavzu uchun zarur bo'ladigan materiallarni izlab topish hamda ish jarayonida foydalanish, adabiyotlar ro'yxati va havolalar (snoska)ni shakllantirish kabi ko'nikmalarni hosil qilish ham professor-o'qituvilarning bir vazifasi sifatida e'tirof etish lozim.

Turli xil ma'ruzalarni tayyorlash, ularni turli usullarda taqdim qilish, kompyuterda taqdimotlar tayyorlash va namoyish etish, tayyor ishlarni himoya qilish kabilarni o'rgatishni ham o'z zimmamizga olishimiz darkor.

Oliy ta'limdan keyingi ilmiy jarayonlar haqida talabalarida tasavvur o'yg'otish, dissertatsiyalarning nima ekanligi, qanday tayyorlanishi, himoya qilinishi va ularning ilm-fan uchun ahamiyati haqidagi fikrlarimizni maxsus fanlar orqali berib borishimiz mumkin bo'ladi.

Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya fakulteti, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili va Noshirlik ishi ta'lim yo'nalishlari talabalari

uchun maxsus "Ilmiy va ijodiy ish yozish soslari" fani o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, yuqorida keltirilgan barcha fikrlar va ularning yechimlarini o'z ichiga olgan.

Har qanday soxada olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishi bir qancha ilmiy (ba'zan badiiy) adabiyotlarni mutolaa qilishdan boshlanadi. Mutolaa qilish, bu nafaqat kitobni o'qib chiqish, balki uni tahlil qilish, zarur joylarini boshqa manbalar bilan taqqoslash, ba'zi o'rinlarda o'zining e'tirozlarini ham namoyon eta olish demakdir. "**Mutolaa** – bu nutqiy faoliyatning murakkab turi bo'lib, sof texnik jihati – mutolaa qilish va tez o'qish malakalarini orttirish va ijodiy jihati – matndan zarur axborotlarni olishdan iborat" [Xodiev, Golish 2010, 97]. Demak, mutolaaning sof texnik va ijodiy jihati mavjud bo'lib, ikkisinining ham vazifasi kitobni o'qish jarayonida undan to'g'ri foydalana olish malakasiga ega bo'lishdir.

Kitob va ilmiy-uslubiy matnlar bilan ishlash jarayonida B.Yu.Xodiyev va L.V.Golish o'zlarining mazkur asarlarida e'tirof etganlaridek, uning zarur joylarini markirovkalash yosh tadqiqotchi uchun nihoyatda katta yordam berishi mumkin [Xodiyev, Golish 2010, 97]. Chunki, azal-azaldan insonlar kitob o'qiganida unga qandaydir ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan belgilarni qo'yib ketishi odat tusiga kirgan. Odatda, kitob o'qilayotgan vaqtda unutilib qoldirmaslik, kerakli joyni konspekt qilib olish, savolga javob berish, mulohazatalab fikr, tushunarsiz jumla, aniqlik kiritilishi lozim bo'lgan jumla, izlanayotgan fikrga javob, o'z fikriga zid bo'lgan fikr, xato fikr, noto'g'ri javob, noto'g'ri tarjima, tadqiqot olib borilayotgan ish uchun zarur bo'lgan jumlar maxsus belgilar, ya'ni markirovkalar bilan belgilab ketiladi. Kitob mutolaasi vaqtda har doim ham darhol yozib olish imkoniyati bo'lmaydi. Shunday paytlarda zarur jummalarni turli xil belgilar bilan belgilab ketish yoki markerda, qalam, flomaster, ruchkada ustidan yoki ostiga chizib ketish mumkin. Biz darslarimizda bu mavzuni o'zlashtirish jarayonida talabalarning ham aynan qandaydir belgilar orqali kitoblarda markirovkalar qilishlari ayon bo'ldi. Bu ularga mavzuni yaxshi o'zlashtirib olish va tahlil qilishlarida katta yordam berishini ta'kidlab o'tishdi hamda o'zlari ishlatadigan turli xil markirovka belgilarini ham tavsiya qilishdi. Albatta, kitob va jurnallarda qo'yiladigan turli belgilarni ham ishlatishning ma'naviy va estetik tomoni, ya'ni, markirovka qo'yilayotgan kitob faqat o'zining shaxsiy kitobi bo'lishi, undan so'ng foydalanadigan o'quvchi uchun noqulaylik tug'dirmasligi, aks holda kitobxon va kitob o'qish etikasiga rioya etilmaganligi ularga uqtirib o'tiladi.

Bundan tashqari, ko'pincha kitobni o'qiyotganda deyarli

ahamiyat berilmaydigan, ammo o'quvchi diqqat markazidan qochmasligi zarur bo'lgan ayrim jihatlar haqida ham talabalarga doim to'liq ma'lumot berish zarur. Bu kitobning tarkibiy tuzilishi bo'lib, kitobning muallifi va nomidan tortib, to mundarijasi va nashr rekvizitlarigacha ham o'quvchiga mazkur kitob haqida uni o'qimasidan turib to'liq ma'lumot bera olishi mumkin.

Demak, kitob mutolaasi, u xoh ilmiy, xoh badiiy bo'lsin, o'quvchiga ham estetik zavq, ham keng dunyoqarash, ham ilm qilish yo'lidagi asosiy vositalardan biri bo'lishi zarur.

Oliy ta'lim muassasalarining talabalari ilmiy matnlarni tuzishda nimalarga ahamiyat berishi zarur? Umuman, ilmiy matn turlariga nimalar kiradi? Biz bu haqda ancha asosli, ilmiy dalillarni, ta'riflarni keltirishimiz mumkin. Ilmiy matn turlariga biz ilmiy ijodda foydalaniladigan barcha usul va uslublarni kirita olamiz. Xususan, reja, tezis, konspekt, referat, Abstrakt, taqriz, maqola, kurs ishi, o'quv loyihasi va u haqidagi hisobot, esse, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy tadqiqot ishlari (dissertatsiya) va hokazo. Bularning barchasi o'z mazmuni, shakli va hajmi bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Ularning farq qilishi esa, vazifalarini ham tashkil qiladi. Masalana, Abstrakt – biror bir ilmiy (badiiy) asarga, maqola, tezis va h.k.larga berilgan qisqacha ta'rif bo'lsa, taqriz unga nisbatan yaqinroq bo'lib, ma'lum bir ilmiy ish uchun beriladigan xulosa hisoblanadi. Taqrizda ishdagi kamchilik va xatolar, fikr-mulohazalar ham ko'rsatiladi. Demak, hajmi jihatidan taqriz Abstraktdan ko'ra kengroq bo'ladi.

Talabalarining ilmiy ijodkorligini shakllantirishda ilmiy matnlar va ularning bir-biridan farqini mukammal tushuntirib bermish zarur. Chunki, talabalar dars jarayonida yoki darsdan tashqari vaqtda mustaqil ta'lim olish jarayonida matnlarni shakllantirishi, ularning tuzilishi va ahamiyatini, matnlarning bir-biridan farqli jihatlari bilan birga qachon va qayerda, qanday ishlatilishi, ularning zarurati haqida ham tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Ilmiy matnlar bir-biridan farq qiladi. Bu – fakt. Lekin, 1-kurs talabasi dastlab matnlarni farqlamaydi va hamma tayyorlagan matni uning uchun "konspekt" hisoblanadi.

Ma'ruza vaqtida yozib olinadigan konspektlarning ham o'ziga yarasha qoidalari mavjud. O'qituvchi o'z ma'ruzasi mavzusini reja bilan birga e'lon qiladi. Rejaning ahamiyati qay darajada? Reja – bu eng qisqa yozuv bo'lib,

- fikr bayonining izchilligini aks ettiradi va umumlashtiradi;
- matnning mazmunini ochib beradi;

- manbaning mazmunini xotirada qayta tiklaydi;
- konspekt va tezislar o'rnini bosadi;
- har xil yozuvlarni (ma'ruza, axborot, hisobot) tuzishga yordam beradi;
- bajarilgan yozuvni yaxshilaydi;
- o'zini o'zi nazorat qilishni tezlashtiradi;
- e'tiborni jamlaydi;
- yaxshi tanish bo'lgan matnni xotirada jonlantirish uchun ishlatiladi.

Reja - faktik mazmuni bermaydi, balki faqat uni va mazmuni berish sxemasini ko'rsatadi. Reja tuzishning ham o'ziga xos tamoyillari mavjud:

1. **Tayyor ilmiy matnning rejasi uchun:**

- a) matnning mazmuniy bo'laklarga bo'linishini belgilash;
- b) bo'lingan har bir mazmuniy bo'lakning asosiy fikrini belgilash;
- s) rejaning bandini matnning boshqa qismlari bilan mantiqiy yaxlit qilib bog'laydigan muhim jihatini farqlaydigan bandini ifodalash.

2. **Yaratilayotgan ilmiy matnning rejasi uchun:**

- a) yaratilayotgan matnning tuzilmasini uning uchta qismi (kirish, asosiy qism, xulosa) orqali bashorat qilish;
- b) har bir qismning asosiy fikrini belgilash;
- s) rejaning umuman mantiqiy birlikni tashkil etadigan muhim masalalari doirasini belgilash.

Rejalar tuzilishiga ko'ra **oddiy (sodda)** va **murakkab reja** turlariga farqlanadi. Oddiy reja asosiy bandlardan tashkil topadi:

1.
2.
3.

va boshqalar.

Murakkab reja esa asosiy bandlardan tashqari, mazmuni aniqlashtiradigan va detallashtiradigan kichik bandlarni ham o'z ichiga oladi.

Kirish

Asosiy qism

I. ...

1.1. ...

1.2. ...

II. ...

2.1....

Xulosa

va boshqalar [Xodiev, Golish 2010, 97].

Ma'lumki, ilmiy tadqiqot mavzusi tanlanganidan keyin ilmiy ishning xomaki rejasi tuziladi. Mavzuning ilmiy-metodik adabiyoti sinchiklab o'rganilganidan keyin bu xomaki rejaga turli-tuman o'zgarishlar kiritiladi. Mavzu bo'yicha to'plangan faktik materialning dastlabki tasnifi ham ish rejasiga o'zgartirish kiritish lozimligini ko'rsatishi mumkin. Ana shunday o'zgarishlardan keyin bajariladigan ilmiy ishning mazmun-mundarijasi ancha oydinlashadi.

Odatda, konspekt, referat, kurs ishi, loyiha ishi, bitiruv malakaviy ishi, magistrlik va doktorlik disertatsiyalari uchun reja tuzilishi shart. Esse, maqola, tezis, taqriz, Abstrakt kabi matnlar uchun reja tuzilmaydi va ushbu matnlarni yozayotgan shaxs ayrimlari uchun o'ziga reja tuzib oladi, ammo nashr qilinadigan matnda u ko'rsatilmaydi.

Metodlar tahlili

Ishni yozish jarayonida rejada bir necha bor o'zgarishlar bo'lishi tabiiy hol hisoblanadi. Chunki ijod jarayonida yangi-yangi fikrlar, g'oyalar kela boshlaydi, yangi o'zlashtirilayotgan ma'lumotlar ham ba'zan bunga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun, har qanday ilmiy matn tayyorlashda avvaldan tuzilgan rejaga tayanib qolish kerak emas.

Demak, har ishni, ya'ni yoziladigan matnni reja tuzishdan boshlash muhimligini talabalarga uqtirib borish, ularning keyinchalik mastaqil ishlari va ilmiy ijodlari uchun buning qanchalik ahamiyatli ekanligini tushantirib, o'rgatib borish har bir professor-o'qituvchining vazifasiga aylanishi lozim.

Konspekt deganda reja, ko'chirmalar va tezislarning birlashtirilishini nazarda tutadigan, bayonning ichki mantiqiga quriladigan, asosiy xulosalar va qoidalar, faktlar, dalillar, usullarni o'z ichiga oladigan, tuzuvchining materialga nisbatan munosabatini aks ettiradigan, nafaqat tuzuvchi, shu bilan birga uning boshqa o'quvchisi tomonidan ham ishlatilishi mumkin bo'lgan matn tushuniladi. Talabalar konspekt deganda, odatda, ma'ruza vaqtida o'qituvchi tomonidan yozdirilgan yoki mastaqil holda mavzu yuzasidan yozilgan matnni tushunishadi. Bu ham bir hisobda to'g'ri. Lekin, har doim ham konspekt yozishda qoidalarga amal qilamizmi? Konspekt qanday yoziladi? Konspekt qachon va nimaga yoziladi? Shunga o'xshash bir talay savollar bilan murojaat qilishimiz mumkin.

Konspektda quyidagilarni aks ettirish kerak:

- Gap nima haqida;
- Nima ta'kidlanayapti;
- Qanday dalillanayapti.

Dars, ya'ni ma'ruza vaqtida, o'qituvchining birinchi so'zlaridanoq qo'lga ruchkani olib birdan yozib ketish yaramaydi. Aytilayotgan gaplarni avtomatik tarzda emas, balki ma'lumotni filtrlab, zarur joylarini yozib olish lozim. Eng ma'quli, oldin ma'ruzachini yaxshilab tinglab, keyin asosiy fikrlarni yozib qo'yishdir. Ma'ruzachining ba'zi fikrlariga munosabat bildirib ketish ham mumkin. Masalan, qavs ichida yoki satr yonida turli belgilarni (markirovkalarni) qo'yib ketish, dars oxirida esa ma'ruzachidan ularni so'rab olish yoki mustaqil holda ularga javobni izlab topish mumkin. Mavzu, sarlavha va shunga o'xshash ma'ruza qismlarini, albatta, ajratib (boshqa rangli ruchkada, ostiga chizib, marker bilan belgilab, qandaydir belgilarni qo'yib) ketish maqsadga muvofiq. Shunda zarur holatlarda ularni izlab topish ancha oson bo'ladi. Qoidalar, formulalar, sitata va atamalarni ramkaga olib ketish ham mumkin. Yaxshiroq eslab qolish uchun ma'lumotlarni nafaqat yozib olish, balki chizib qo'yish ham mumkin. Chunki rasmlar va suratlar so'z va gaplardan ko'ra xotirada yaxshiroq o'rnashib qoladi hamda zarur ma'lumotlarni eslash, foydalanish yoki tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratib beradi.

Konspekt uchun zarur qisqartmalarni ham o'ylab topish va o'zi uchun ishlatish mumkin. Bu yozish jarayonini ancha qisqartiradi va tinglovchi ma'ruzachining nutqidan ortda qolib ketmasligiga yaxshi imkoniyat yaratib beradi. Bunda matematik va boshqa belgilar (simvollar) ancha yordam beradi.

Eng asosiysi, yozuv qurollarining to'g'ri tanlanishidir. Konspekt yozish uchun qulay bo'lgan varaqlardan iborat, yaxshi tikilgan daftar, bloknotlardan foydalanish lozim. Yaxshi yelimlanmagan yoki tikilmagan daftar varaqlari tez orada ajralib ketishi va noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Daftar tanlayotganda varaqlarning chetida hoshiyasi bori tanlansa, u yerga mavzu yuzasidan zarur belgilarni, yangi yoki izoh talab qiladigan atamalarni yozib qo'yish mumkin. Shu bilan birgalikda, yozuv moslamasi, ya'ni turli rangdagi ruchkalar, qora qalam, marker va shu kabilarni ham har kim o'ziga mosini tanlab olishi, doim yonida olib yurishi, har doim ulardan foydalanishi lozim. Konspektlarni markirovkalash ham xuddi adabiyotlarni markirovkalash kabi amalga oshirilishi mumkin.

Konspekt turlari:

Rejali – oldindan tayyorlangan reja yordamida tuziladi: uning har bir bandiga konspektning tegishli qismi mos keladi;

Matnga doir – ko‘pincha mantiqiy o‘tishlar bilan bog‘langan ko‘chirmalardan tashkil topadi;

Erkin – ko‘chirmalar, ba‘zan tezislar aralashmasidan iborat bo‘ladi;

Tematik – matnning butun mazmunini aks ettirmaydi, faqat muayyan, aniq mavzuni ishlaydi, qo‘yilgan savolga javob beradi;

Xronologik – hodisalarning o‘zini ko‘rsatish asosida ularning xronologik izchilligini aks ettiradi;

Tahliliy – ko‘pincha bir necha manbadan foydalanib aniq mavzuni ochib beradi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda Oliy o‘quv yurtlarida talaba mustaqil ishlari, ko‘pincha, referat holida qabul qilinadi. Referat o‘zi nima, uni yozishning tartibi qanday, unda nimalar aks etishi lozim, uning talaba bilimi uchun qanchalik amaliy ahamiyati mavjud? Shu va shunga o‘xshash ko‘plab savollar talabalarga bu topshiriqni berayotgan o‘qituvchining oldida ham kun tartibida turishi kerak. Biror mavzuni ko‘r-ko‘rona ko‘chirib kelib, uni topshirib qutilib ketgan bilan talabaning bilimiga bilim qo‘shilib qolmaydi, faqat kafedrada “makalatura” yig‘iladi, xolos.

Referat (lot. refero – axborot beryapman) – biror ilmiy asar, maqola, o‘qilgan kitob va sh.k. mazmunining qisqacha yozma va og‘zaki bayoni; o‘rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqida axborot, tegishli adabiyot va boshqa manbalarning qisqartirilgan shahrli tahlilini o‘z ichiga olgan ma‘lum mavzudagi ma‘ruza. Referat, odatda, ilmiy axborot vazifasini o‘taydi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilmiy nazariyalar, ilmiy xulosalar tahlil etilishi va tanqid qilinishi mumkin. O‘zbekistonda referat ilmiy tadqiqot muassasalarida, oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumiy ta‘lim maktablarida ko‘p qo‘llanadigan didaktik vositadir. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o‘quvchilari hamda oliy o‘quv yurtlari talabalarining fakultativ mashg‘ulotlardagi maxsus axborotlari ham referat deyiladi. Dissertatsiya yuzasidan tayyorlanadigan referat (avtoreferat)da dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari ifodalanadi [O‘zME 2000].

Referatning o‘ziga xosligi:

- keng miqyosli dalillar, qiyoslashlar, mushohadalar, baholar-ga ega bo‘lmaydi;

- matnda qanday yangi, muhim jihat bor, degan savolga javob beradi.

Referat diqqat-e‘tiborni yangi ma‘lumotlarga qaratadi va

boshlang'ich matnga murojaat etishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi.

Referat materialning shunchaki bir oddiy takrorlanishi, bir yoki bir necha manbalardagi materialni o'zlashtirib olishdan iborat bo'lib qolmasligi, ya'ni ko'chirmachilik va kompilyatsiya mahsuli bo'lmasligi kerak. Unda referent tanlagan mavzuga oid va ishlab chiqilgan adabiyotlarda mavjud bo'lgan jamiki material tahlil qilib chiqilishi lozim [Xodiev, Golish 2010, 97].

Ko'plab talaba-yoshlar oliygohlarda ta'lim olish bilan birga o'zini ilmiy izlanishlari bilan ham nazarga tushishni xohlashadi, albatta. Bu borada ular maqola va tezislarni yozish hamda ularni nashr ettirish uchun bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Avvalo, maqolaning nima ekanligini, ilmiy maqola va tezisning bir-biridan farqini, ularni yozish uchun birinchi navbatda ahamiyat beriladigan jihatlar haqida ularga batafsil ma'lumotlar kerak bo'ladi. Biz o'z amaliyotimiz va mehnat faoliyatimiz davomida talabalarning maqolalarini to'plam yoki jurnallarda nashr ettirishlaridan oldin o'qib ko'rganmiz. Ammo, ko'pining talabga javob bermasligini, maqolada konkret nima demoqchi ekanligini va u nima maqsadda yozilayotganini o'zlari ham anglab yetmaganliklarining guvohi bo'lganmiz. Ko'plab iqtidorli talabalar ustozlarining oldiga "Maqola yozishni o'rgating" degan iltimoslar bilan kelishadi. Bizning nazdimizda, shunday paytlarda o'sha talabalarga avval birorta chop etilgan maqolani o'qittirib, tahlil qildirib, unga Abstrakt yozdirish, maqolaning mohiyati, xato va kamchiliklari bilan uning yutuqlarini ham o'zlariga tahlil qildirish lozim. 4-5ta maqolani ana shunday tartibda tahlil qilib o'rgangan talaba maqolaning nima ekanligini, uni qanday yozish kerakligi haqida tasavvurga ega bo'ladi. Biz "Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari" darslarimizning amaliy mashg'ulotlarida aynan shunday tajribalarni ko'p bora takrorladik. Natijada, talabalar maqolaning nima ekanligini, unga qo'yiladigan asosiy talablar, uni tayyorlash bosqichlari, maqola uchun har qanday materialni analiz va sintez qilib chiqib, keyin yozish zarurligini, adabiyotlar va qo'shimcha ma'lumot manbalari bilan ishlash va ularni tartiblash jarayonini o'rganib borishdi. Bir qancha talabalarimiz konferensiyalarda o'zlarining maqola va tezislari bilan ishtirok etishdi.

Maqolalarga yoziladigan Abstrakt va taqrizlarning ham bir-biridan farqi, ahamiyati, tuzilishi va zarurati haqida ham talabalarga zarur ma'lumotlarni berib borish lozim.

Talaba-yoshlarda nafaqat yozma ijodkorlik, balki axborotlarni og'zaki shaklda yetkazish ko'nikmasini ham shakllantirish zarur.

Bu o'rinda ularga ma'ruzalarning turlari, ularga tayyorgarlik ko'rish jarayonlari, asosiy e'tibor beriladigan jihatlar haqida, ma'ruzachining nutq etikasi va imidji, ovozning ahamiyati va h.k.lar haqida to'liq ma'lumot berib borish kerak.

Ma'lumki, ma'ruzalarning o'zi ham bir qancha turlarga bo'linadi. Ularning ichida ta'limiy ma'ruzalar asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Ta'limiy ma'ruzalar, leksiya — o'quv material, biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil, tartibli og'zaki bayoni. O'quv ma'ruzasi o'quv jarayonining asosiy shakli; oliy o'quv yurtlarida dars berish usullaridan biri. Ma'ruza, shuningdek, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimida, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida ham qo'llaniladi. Ommaviy ma'ruza madaniy-ma'rifiy ishlar tizimida siyosiy va ilmiy bilimlarni tarqatish hamda tashviqot qilish shakllaridan biridir.

Zamonaviy ma'ruzalarning ta'lim tizimidagi o'rni katta, chunki talabalar bilimni oshirish zamonaviy ma'ruzalarga bog'liqdir. Ma'ruza, nutq, taqdimot (prezentatsiya) – aniq mavzu bo'yicha ma'lumotni taqdim etishning umumqabul qilingan usuli hisoblanadi. Ma'ruzada tizimiy ravishda, ma'lum ketma-ketlik asosida nazariy xarakterdagi materiallar o'qituvchi (ma'ruzachi) tomonidan tinglovchilar e'tiboriga yetkaziladi. Ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha «Ma'lumotni uzatish, yetkazish» eng qiyin uslublardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlar va axborotlarni ma'ruza shaklida uzatish oliy ta'lim tizimida o'qitish uslublaridan biri bo'lib, tinglovchilarning bilim darajalari, malakasi, tayanch ma'lumotlari va yoshiga, ayrim hollarda jinsiga ham bog'liq jarayon hisoblanadi.

Umuman, «Zamonaviy ma'ruzalar qanday bo'lishi kerak?» degan savolga, quyidagicha javob berish mumkin: Ma'ruza – bu:

- kuchli, esda qoladigan bahs, diskussiya;
- yangi yoki eski muammolar bo'yicha aniq loyihalangan va bahs qilinmaydigan qaror va tasdiqlar;
- aniq o'zaro munosabat, fikr almashish;
- nazariya va shaxsiy tajribalar kombinatsiyasi;
- zamonaviy ma'ruza o'ta «moslashuvchan» bo'lmog'i lozim;
- mavzuni yaxshi biladigan va nimanidir bilishni juda xohlovchilar o'rtasidagi suhbat;
- professional tomonidan o'qish davomida o'quvchilar guruhini fikrlashga undovchi, qandaydir muammo ustida tanqidiy va faol o'ylashga, tafakkur qilishga undovchi jarayon;
- «jonli» nutq, uning o'rnini hech qanday axborot uzatuvchi

Zamonaviy ma'ruza avvalgi o'qitishning «nafaol» usulidan «faol» usuliga o'tmog'i, bahs, munozara, suhbat, muhokama shaklida amaliy ishlarining uyg'unligi, ya'ni interaktiv usullarda tashkil etilmog'i lozim. Shu sababli hozirgi vaqtdagi ko'plab innovatsion uslublar o'qitishning interaktiv uslublarini qo'llash bilan bog'liqdir [Завада, Бушмина 2010, 66-70]. Ayrim pedagoglar o'qitishning interaktiv usublari deganda zamonaviy o'quvvizual materiallar (multimedia va animatsion slaydlar, tarqatma materiallar, ma'ruza matnlari, texnik vositalarning modellari, maketlari va boshqalardan) hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va boshqalardan) foydalanishadi. Ammo, ma'ruza matnlarini oldindan talabaga taqdim etib, talabaning darsga tayyor bo'lib kelishini ta'minlashlari to'g'ri emas.

Biz yuqorida ma'ruza va ma'ruzachi haqida ma'lumotlarni berdik. Ammo, uni tinglovchilarga ham bir qancha talablar qo'yiladi. Ma'ruzani tinglash, aslida, ixtiyori bo'lishi kerak (qanchalik abstrakt bo'lmasin). Chunki ixtiyoriy tinglangan ma'ruza oson qabul qilinadi, tinglovchi uchun katta qiziqish o'yg'otadi va ilmiy ijodkorlik uchun motivatsiya beradi, yangi g'oyalarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Ma'ruzalarni har xil metodlar asosida o'tish, turli texnik va boshqa vositalardan foydalanish, ma'ruzachi va tinglovchi o'rtasida bir-birini tushunuvchi va qo'llab-quvvatlovchi aloqa o'rnatish esa eng zerikarli ma'ruzani ham jonlantirishi muqarrar. Ma'ruzaning o'zlashtirilishi uni qanday olib borilishi bilan birga, uni tinglash va anglashga ham bevosita bohliq. Demak, talaba ma'ruza asosida qanday konspekt yozishi, ya'ni uni qayd etib borishi haqida ham, albatta, talabalarga mukammal ma'lumotlarni berib borishimiz zarur.

Xulosa

Demak, talaba-yoshlarning ilmiy-ijodkorlik potensialini oshirishda obyektiv bilimlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi. Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ma'lum bir sistemaga va oldindan ishlab chiqilgan rejaga asosan olib boriladi. Ilmiy tadqiqotdan ko'zlangan maqsadga erishish aniq bir tadqiqot olib borish uslubiga tayangan holda va unga asosan amalga oshiriladi. Umuman, tadqiqotlar olib borishda juda ko'plab usullardan foydalaniladi. Ulardan ayrimlari turli xil fan sohalarida foydalanilishi mumkin. Masalan, matematik usullar fanning turli sohalarida qo'llanilsa, tenzometrik o'lchash – mexanikada, sistemali yondashuv, termodinamik usul – energetikada va h.k. Aniq usullar aniq bir obyektning mohiyatini o'rganish,

ko'zlangan ilmiy va amaliy muammoni yechish bilan bog'liq tadqiqot obyektining xususiyatlari va o'ziga xos tomonlarini o'rganishda qo'llaniladi.

Ilmiy bilish muammoni hal qilish bilan bog'liqdir. Muammolarning bo'lmasligi tadqiqotlarning to'xtab qolishi va fanning bir joyda qotib qolishiga olib kelgan bo'lur edi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagilar farqlanadi: ilmiy yo'nalish, muammolar va mavzular.

Ilmiy yo'nalish – fanning muayyan tarmog'ida yirik, fundamental, nazariy-eksperimental masalalarni hal etishga bag'ishlangan jamoaviy ilmiy tadqiqot sohasi. Ilmiy yo'nalish quyidagi tuzilmaviy birliklarga bo'linadi: mujassam muammolar va muammolar, mavzular va masalalar.

Muammo – murakkab ilmiy masala bo'lib, hal etishni, tadqiq etishni talab qiladi. U muammoviy vaziyat natijasi hisoblanadi, bu mavjud eski bilimlar va empirik yoki nazariy tadqiqotlar natijasida yangidan topilgan bilimlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishi tufayli hosil bo'ladi. Mujassamaviy muammolar (yoki problematika) - odatda, bir yo'nalishdagi murakkab bir qancha masalani o'z ichiga oluvchi muammolar majmui.

Mavzu – bu ilmiy masala bo'lib, tadqiqot talab qiluvchi muammolar muayyan sohasini qamrab oladi. U ko'plab tadqiqiy masalalarga – muammoning aniq bir sohasiga taalluqli ancha mayda ilmiy masalalarga asoslanadi. Masalani yoki muammoni hal etishda muayyan tadqiqot vazifasi yechiladi, masalan, yangi materialni ishlab chiqish, konstruksiya, ilg'or texnologiya va sh.k.larni yaratish. Bunda ularni bajarish faqat nazariy ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki asosan kutilayotgan muayyan iqtisodiy samaraga ega amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

Muammo va mavzuni tanlash qiyin va mas'uliyatli ishdir, bir necha bosqichda o'z yechimini topadi.

Birinchi bosqichda, muammoviy vaziyatdan kelib chiqib, muammo ifoda etiladi va kutilayotgan natija umumiy tarzda belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda, muammoning dolzarbligi, uning fan texnika uchun ahamiyati aniqlanadi.

Uchinchi bosqichda muammo tuzilmasi ishlab chiqiladi mavzu, kichik mavzular, savollar va ular o'rtasidagi bog'liqlik farqlanadi. Natijada muammo daraxti shakllanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalarda ilmiy-ijodkorlik ko'nikmasini shakllantrish – bu ikki tomonlama harakat bo'lib, ham talabadan, ham o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab qiladi. Tala-

balarni ilm-fanga to'g'ri yo'naltirishda olib boriladigan ishlar, albat-ta, kelajakda o'z mevasi va samarasini beradi.

Adabiyotlar

- Davronov, Z. 2007. *Ilmiy ijod metodologiyasi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
- Грязнов, В.М. 2000. *Методология научного творчества*. Москва: РУДН.
- Журавлев, В.И. 1988. *Введение в научное исследование по педагогике: Учеб. пособие для студентов пед. Институтов*. Москва: Просвещение.
- Musulmanova, Nargiza. 2021. *Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari*. Toshkent: AKTIV PRINT.
- Перегудов, Л. 2002. *Методология научных исследований*. Ташкент.
- Peregudov, L.V., Saidov, M.X., Aliqulov, D.Y. 2002. *Ilmiy ijod metodologiyasi*. Toshkent: «Moliya» nashriyoti.
- Radjabov, A. 2012. *Ilmiy tadqiqot asoslari: o'quv qo'llanma*. Toshkent: «Tafakkur-Bo'stoni».
- Rahmatullaev, Shavkat. 2002. *Ilmiy-tadqiqot asoslari (Magistrlar uchun qo'llanma)*. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
- Скибитский, Э.Г. 2016. *Методология научного творчества: учеб. пособие*. Новосибирск: САФБД.
- Ходиев, Б.Ю., Бекмурадов, А.Ш., Болтабаев, М.Р., Голиш, Л.В., Гимранова, О.Б. 2008. *Основы подготовки к научно - исследовательской деятельности: Учебно - методическое пособие*. Ташкент: Экономика.
- Xodiev, Bahodir, Golish, Lyudmila. 2010. *Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma*. Toshkent: TDIU nashriyoti.
- Закин, Я.Х., Рашидов, Н.Р. 1981. *Основы научного исследования*. Тошкент: Уқитувчи.
- Завада, Г.В., Бушмина, О.В. 2010. *Педагогика высшей школы: Конспект лекций*. Казань: издательство Казан. гос. энерг. ун-т.
- https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf
- <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/maruza-uz/>
- https://enc.for.uz/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

Formation of research skills of students and youth

Nargiza Musulmanova¹

Abstract

This article deals with the formation of scientific and creative skills of students in research work, the introduction of students in higher education to the types of scientific texts and the principles of their creation, the formation of oral and written speech, reading fiction and scientific literature, work on abstracts and other scientific texts, lectures, their types, the process of preparation for them, scientific knowledge, methodologies. Planning, abstracts, abstracts, articles, theses, reviews, Abstracts, etc. for various scientific texts are described on the basis of well-founded examples and methods. In addition to teaching students to create scientific texts, the use of ready-made scientific and artistic literature, reading and analysis of scientific, scientific-methodological articles, sorting literature, searching for materials on the topic on electronic sites and in the process of work the use of skills such as the use of references and the formation of references can also be recognized as a task of this article. This article also covers how to prepare different presentations, present them in different ways, prepare and present presentations on a computer, and defend ready-made works.

Key words: *scientific and creative work writing, research, scientific topic, scientific text, creative text, methodology, heuristics, purpose, task, potential, scientific potential, oral information, written information, scientific-methodological sources, dissertation, course work, Abstract, resume.*

References

- Davronov, Z. 2007. Ilmiy ijod metodologiyasi. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
- Gryaznov, V.M. 2000. Metodologiya nauchnogo tvorchestva. Moskva: RUDN.
- Juravlev, V.I. 1988. Vvedenie v nauchnoe issledovanie po pedagogike: Ucheb. posobie dlya studentov ped. Institutov. Moskva: Prosveshenie.
- Musulmanova, Nargiza. 2021. Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari. Toshkent: AKTIV PRINT.
- Peregudov, L. 2002. Metodologiya nauchnix issledovaniy. Tashkent.
- Peregudov, L.V., Saidov, M.X., Aliqulov, D.Y. 2002. Ilmiy ijod metodologiyasi. Toshkent: «Moliya» nashriyoti.
- Radjabov, A. 2012. Ilmiy tadqiqot asoslari: o'quv qo'llanma. Toshkent:

¹Musulmanova Nargiza Rakxmatillayevna – Doctor of filology, associate professor. TSUULL after Alisher Navoiy. Docent of department of Applied Philology.

E-mail: musulmonova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-0001-1725

For reference: Musulmanova, N.R. 2022. "Formation of research skills of students and youth". *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1(5): 15-31.

«Tafakkur-Bo'stoni».

Rahmatullaev, Shavkat. 2002. Ilmiy-tadqiqot asoslari (Magistrlar uchun qo'llanma). Toshkent: O'zMU nashriyoti.

Skibitskiy, E.G. 2016. Metodologiya nauchnogo tvorchestva: ucheb. posobie. Novosibirsk: SAFBD.

Xodiev, B.Yu., Bekmuradov, A.Sh., Boltabaev, M.R., Golish, L.V., Gimranova, O.B. 2008. Osnovi podgotovki k nauchno - issledovatel'skoy deyatelnosti: Uchebno - metodicheskoe posobie. Tashkent: Ekonomika.

Xodiev, Bahodir, Golish, Lyudmila. 2010. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari (birinchi bosqich talabalariga yordam tariqasida): O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: TDIU nashriyoti.

Zakin, Ya.X., Rashidov, N.R. 1981. Osnovi nauchnogo issledovaniya. Toshkent: O'qituvchi.

Zavada, G.V., Bushmina, O.V. 2010. Pedagogika visshey shkoli: Konspekt leksiy. Kazan: izdatelstvo Kazan. gos. energ. un-t.

O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. https://enc.for.uz/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20R.pdf

<https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/maruza-uz/>

https://enc.for.uz/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili

Jumanazar O'rozov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada haqorat ma'nosidagi leksemalar va ularning leksik va huquqiy tasnifi hamda lingvokriminalistik tahlili bayon qilingan. Yaqin o'tmishda invektiv leksika, haqorat sifatida qabul qilingan, ammo hozirgi zamonda bunday hisoblanmaydigan va neytral leksika tomoniga harakatlanayotgan leksemalar haqida ma'lumot berilib o'tilgan. Umumiste'molda haqorat va xo'rlash tushunchalariga izoh berilib ketilgan. Noadabiy leksik birliklar, vulgar so'zlar, qo'pol va odobsiz so'zlarning haqorat bo'lib kelish tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: *Haqorat, odobsiz so'zlar, so'kinish, qo'pol so'zlar, tuhmat, og'zaki kamsitish, haqoratning umumiste'mol va huquqiy tushunchasi, noadabiy leksik birliklar, vulgar so'zlar.*

Kirish

Hozirgi vaqtda ko'pgina tilshunos olimlar til jarayonlarini to'g'ri tushunish va til faktlarini aniq izohlash uchun tilshunoslik doirasidan chiqib, ijtimoiy, milliy, ruhiy, psixologik, madaniy jarayonlar sohasiga o'tish zarurligini e'tirof etmoqda. Natijada lingvistik bilimlarning boshqa ilmiy bilimlar bilan tobora chuqurroq integratsiyalashuvi sotsialingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika kabi bir-biriga bog'liq bo'lgan ilmiy fanlarning paydo bo'lishi va faol rivojlanishiga olib keladi. Tilshunoslik fanlarining ushbu yo'nalishlarida, jumladan, lingvokriminalistika alohida o'ringa ega.

Lingvokriminalistika termini keyingi 50-60 yil mobaynida jahon tilshunosligida faol qo'llanilib kelinayotgan bo'lsa-da, oxiriga yetgan tamoyillar tizimi ishlab chiqilgan deyish qiyin. O'zbek tilshunosligi doirasida esa bu yo'nalish ilmiy jihatdan tadqiq etilgan deb bo'lmaydi. Huquqiy terminologiyani izga solish bo'yicha bir nechta tadqiqotlar olib borilib, bu sohada nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilinganiga qaramay, shuni alohida ta'kidlash

¹O'rozov Jumanazar Norqizilovich, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi.

E-pochta: urozovjumanazar@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-9508-921X

Iqtibos uchun: O'rozov, J.N. 2022. "Haqorat mazmunidagi leksemalarning lingvokriminalistik tahlili". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 32-43.

lozimki, o'zbek tilshunosligida ushbu sohaning obykti va predmeti masalasi hali keng muhokama ham etilgan emas. Hozirgi kunda Respublikamizda sud va sud organi ishini islohot qilish bo'yicha olib borilayotgan global o'zgarishlar davrida lingvokriminalistika yo'nalishining o'rni katta bo'lishi kerak va bu holat tilshunoslikning aynan amaliy samaralar keltiruvchi yo'nalish sifatida mavqeyini mustahkamlab bergan bo'lur edi.

Xususan, keyingi yillarda bizning mamlakatimizda ham amaliyotga kirib kelayotgan hakamlik sudi va maslahatchilar instituti bu sohalar lingvokriminalistika oldiga yana qator vazifalar qo'yishini ko'rsatdi. Yuridik bilimi bo'lmagan insonlarning yuridik jarayonlarga tortilishidagi lingvistik ta'minot masalasi kundan kunga dolzarb bo'lib bormoqda.

Asosiy qism

So'nggi vaqtlarda sud jarayonlarida haqorat bilan bog'liq murojaatlar soni keskin ortib bormoqda. Inson shaxsiyati, qadr-qimmat, obro'siga tahdid soluvchi leksik birliklarning ko'payishi natijasida haqoratning darajalarini farqlash masalasi ham paydo bo'ldi. Xo'sh qanday til birliklari haqorat sifatida baholonadi? Tilshunos olim V.I. Jelvis: "Huquqiy amaliyotda, ba'zi haqoratlar vaqti-vaqti bilan qarama-qarshi ma'noda, hayrat yoki do'stona munosabat ifodasi sifatida ishlatilishi mumkinligini hisobga olish zarur." [Жельвис, 2004] Shu o'rinda haqorat leksemasiga quyidagi ta'riflarni keltirib o'tishimiz mumkin: haqorat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 140-moddasida "boshqa shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini nomaqbul shaklda ifodalangan kamsitish" deb ta'riflanadi.

O'zbek tilining izohli lug'atida haqorat pastlik, razillik, tubanlik; pastkashlik; tahqirlash ma'nolarida keladi. Kishining ornomusi, shaxsiyatini pastga uradigan, tahqirlovchi ma'no-mazmunli so'z, gap tushuniladi.

Noadabiy leksik birliklarning vulgar turkumiga kiruvchi haqorat so'zlar semantik jihatdan darajalanadi. Shu asosda inson yoki yuridik shaxs qadr-qimmat, nufuzi, obro'yiga ijobiy yoki salbiy ta'siri asoslanadi. Ushbu jarayonlar sud-huquq tizimidagi muammoli vaziyatlarga lingvistik jihatdan oydinlik kiritadi.

Haqorat ma'nosidagi so'zlarni professor B.O'rinboyev ma'no ottenkasi va qo'llanish doirasiga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

- a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *ezma, juvonboz, xumpar, buzuq, mug'ombir, latta* kabi;
- b) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar:

mechkay, ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo'ng'iz, mo'ylov, kal, do'rdoq, qiyshiq, qo'tir kabi;

v) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag'ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko'r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-taloq, galvars, kasofat, naxs, ko'ppak, og'moq (telbalanmoq), og'zi katta (kibr-havoli), nazarga ilmaydi (mensimaslik)* kabilar.[Sherboyeva, 2017, 32]

Tilshunos T.S.Shahmatovanning e'tirof etishicha, haqorat (kommunikativ buzuqlik) ma'nosidagi so'zlar zamonaviy ma'noda nutq xatti-harakatlarining quyidagi strategiyalarini amalga oshirishni nazarda tutadi:

1) tuhmat - kimnidir obro'sizlantiradigan ma'lumotlarni ommaviy ravishda tarqatish;

2) og'zaki kamsitish - nutqda irqiy, milliy, mulkiy yoki boshqa sabablarga ko'ra o'zining ustunligini ifodalash;

3) og'zaki diskreditatsiya – obro'ga putur yetkazish, kimningdir qadr-qimmatini pastga urish, ishonchni susaytirish;

4) og'zaki insinuatsiya - kimningdir ijtimoiy qiyofasini salbiy idrok etish. [Шахматова, 270]

Haqorat qilish har doim muayyan bir shaxsga qaratilgan bo'ladi. Muayyan bir shaxsga qaratilmasdan aytilgan uyatsiz-beodob so'zlar va xatti-harakatlar bezorilik deb baholanishi mumkin.

Haqorat ma'nosidagi leksemalarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- So'kinish – *iflos, qo'tir, ahmoq, bezbet*;
- Ijtimoiy qoralanuvchi terminlar – *o'g'ri, fohisha, tovlamachi, firibgar, poraxo'r, kolxoz, haromi, lo'li*;
- Salbiy tarixga ega terminlar – *millatchi, qonxo'r*;
- Biror kasb nomi bilan boshqa kasbni atash – shifokorni jal-lod, *qassob* deyish;
- Zoosemantik metaforalar – *mol, eshak, it, hayvon, cho'chqa*;
- Salbiy ma'noli fe'llar – *uxlatish, kiydirish, yedirish*;
- Odam fe'l-atvorini salbiy baholovchi terminlar – *ablah, yaramas, maraz, latta, lapashang, dovdor, itfe'l, jinni*.

Haqoratli so'zlardan maqsadli ravishda foydalanish deganda ma'lum bir shaxsga nisbatan jamoat oldida uning obro'-e'tiboriga nomunosib so'zlarni qo'llashdir.

Masalan, biror xodimga nisbatan: "Vaqtli kelishning iloji yo'qmi, ahmoq", - tarzida munosabatda bo'lsa, bu vaziyatga ko'ra ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik ishini qo'zg'atsa bo'ladi. Buni

aniqlash uchun ekspertning oldiga ikki savol qo'yiladi:

- bu so'zlar, haqiqatan ham, odobsiz, beadab, haqoratli ma'noda qo'llanilganmi?;

- bu so'zlar etik-estetik jihatidan haqoratlimi?

Tilshunoslarning ta'kidlashicha, haqoratli va qo'pol so'z birikmalaridan maqsadli foydalanish - bu insonni haqorat qilish hisoblanadi va, albatta, uning semantik darajasiga muvofiq jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish mumkin. Ammo jamoat oldida birovga nisbatan haqorat qilish maqsadida emas, balki vaziyatning ziddiyatlashuvi natijasida shaxsning ixtiyorsiz ravishda qo'llagan qo'pol, haqoratli, hayosiz so'z birikmalari uchun jinoiy ish qo'zg'atilmaydi. [Ворошилова, 2016, 62]

Fuqarolik sudining inson sha'nini himoya qilish bo'yicha ishlarida eng muhimi quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- haqoratomuz so'zlarning ro'yxati va xarakteri;
- qanday leksemalar ularning tarkibiga kiradi;
- qachon ular haqorat bo'lishi mumkin va qachon bo'lmasligi

mumkin.

I.A.Sterninning fikricha, "Tushunchalar, odobsiz so'zlar, odobsiz ifoda shakli, qo'pol so'zlar, inaktiv lug'at bularning kundalik so'zlaridan foydalanishda, shuningdek, lingvistik va huquqiy tushunishda muhim ahamiyatga ega. So'z qo'llanilishining me'yoriy, uslubiy va ahloqiy tasnifi o'rtasida farqlanadi". [Стернин, 2006-2012]

Haqorat leksemalarning lingvistik tahlili sud jarayoni uchun muhim emas, ammo tahlil xulosasi jarayon uchun ahamiyatli sanaladi. Quyida haqorat leksemalarining lingvokriminalistik tahlili berilgan:

T/r	Haqorat ma'nosi-dagi leksemalar	Lingvokriminalistik tahlil
1.	Ahmoq	1. <i>Esi past, tentak;</i> 2. <i>Shaxsga nisbatan omma oldida nutqiy vaziyatga nomuvofiq qo'llanganda haqorat so'z sifatida qoraladi.</i>
2.	Lo'li	1. <i>Ashula aytib raqsga tushuvchi;</i> 2. <i>Urushqoq, janjalkash, shallaqi tarzida nutqiy vaziyatga ko'ra ayollarga nisbatan ishlatiladi.</i>
3.	Haromi	1. <i>Nikohsiz to'g'ilmagan shaxsga qasddan aytilsa haqorat sanaladi.</i> 2. <i>Bu so'z omma oldida ataylab obro'sizlantirish, kamsitish maqsadida qo'llansa, haqorat hisoblanadi.</i>

4.	Iflos	1. Kirlangan, isqirt; 2. Shaxsga nisbatan omma oldida nutqiy vaziyatga nomuvofiq qo'llanganda haqorat so'z sifatida qaraladi.
5.	It	Shaxsni itga qiyoslab, omma oldida nutqiy vaziyatga nomuvofiq qo'llanganda haqorat so'z sifatida qaraladi.
6.	Qo'tir	1. Badanda pufakcha hosil qilib terikasalligigayo'liqmagan insonga nisbatan qo'llansa, ushbu so'z haqorat sanaladi. 2. Bu so'z omma oldida ataylab obro'sizlantirish, kamsitish maqsadida qo'llansa, lingvistik- pragmatik jihatdan tahlilga tortiladi.

Lingvokriminalistik tahlilning ko'rsatilgan tamoyillari bahsli matnni obyektiv baholash uchun muhim ahamiyatga ega va lingvokriminalistika uchun jamlangan holda qo'llanilishi kerak.

Yaqin o'tmishda invektiv leksika, haqorat sifatida qabul qilingan, ammo hozirgi zamonda bunday hisoblanmaydigan va neytral leksika tomoniga harakatlanayotgan "ablah, muttaham, yaramas" leksemalarining ham keltirib o'tish mumkinki, hozirgi kunda bunday tipdagi leksemalar muammoli baxsga sabab bo'lmoqda.

Lingvistik ekspertizaning vazifasi esa inson, yoki biror tashkilotning qadr- qimmatini, obro'yiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan matnlardagi haqorat so'zlarning lingvistik tahlilini berishdan iboratdir. Haqorat so'zning haqiqatan haqorat mazmunida qo'llanganligi va maqsadli amalga oshirilganligini bilish uchun tilshunos I.A.Sternin ekspert o'tkazish jarayonida quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak ekanligini ta'kidlaydi:

1. Matnda shaxs haqida salbiy ifodalar, ya'ni uni salbiy tavsiflovchi ifodalar mavjudligi;
2. Ushbu ifodalar shaxsning o'ziga qaratilganligi;
3. Negativ ifodalar shaxsga shaxs sifatida umumlashtiruvchi xarakteristika berishi;
4. Negativ ifodalar mazmunan shaxsni haraqrat qilishi;
5. Tahlil qilinuvchi ifodalar nomaqbul til shakliga egaligi;
6. Haqorat omma oldida aytilgani (nashrlarda chop etilganligi, televizion chiqishlarda, mitingdagi, yig'ilishdagi nutqda qayd qilinganligi, rasmiy tashkilotga yo'naltirilgan rasmiy yozma murojaat yoki hujjatda ishlatilganligi va hokazo).

Haqoratning barcha oltita belgisi mavjud bo'lganidagina matnda haqorat mavjudligi to'g'risida lingvistik xulosa qilish mumkin. Shuningdek, sha'nni oyoqosti qilish va haqorat qilishning yettinchi va sakkizinchi belgilari ham mavjud, ammo ularni lingvist-ekspert aniqlay olmaydi:

1. Shaxsni obro'sizlantiradigan ma'lumotlar haqiqatga mos kelishi;

2. Ifodalar muallifida matnini tayyorlash va nashr etish vaqtida shaxsni ataylab haqorat qilish niyatida bo'lganligi [Стернин, 2006, 339-353].

Axloqsizlikning oddiy va huquqiy tushunchasini farqlash kerak. Me'yoriy va haqoratli so'zlarning asosiy farqi uning ommaviy qo'llanilishiga yo'l qo'yilishidadir: me'yoriy foydalanishga ruxsat beriladi, normativ bo'lmagan - ommaviy foydalanishda qabul qilinishi mumkin emas. Agar mazmunan haqoratli bo'lgan ibora adabiy yoki so'zlashuv uslub shakliga ega bo'lsa, bu shakl odobsiz deb tan olinmaydi. Qo'pol (xalq tili) so'zlardan foydalanish ham huquqiy tartibga solinmaydi. Agar gap qo'pol so'zlar ifoda shakliga ega bo'lsa, fikr qo'pol so'zlar lug'ati va frazeologiyada ifodalanadi. Uning qo'llanilishi so'zlovchining madaniyat darajasini salbiy xarakterlaydi, birinchi navbatda, so'zlovchining madaniyati pastligidan, nutq madaniyatining ibtidoiyligidan dalolat beradi. Lingvistik ma'noda bu foydalanish odobsiz, ammo haqorat emas. So'zlarni qo'pol, odobsiz ishlatish ma'naviy qoralashga olib keladi, lekin huquqiy tartibga solish predmeti bo'lolmaydi. Og'zaki va yozma (masalan, ommaviy axborot vositalarida, badiiy adabiyotda) qo'pol so'zlarning ommaviy qo'llanilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, qo'pol so'zlarni omma oldida qo'llashni ma'naviy taqiqlashning buzilishi sifatida ko'rish mumkin. Og'zaki nutqda (do'stlar o'rtasida) u muayyan vaziyatlarda ishlatilishi mumkin. Masalan, *U it qanday yaxshi raqsga tushadi!*

Muayyan shaxsga nisbatan odobsiz lisoniy shakllardan foydalanish huquqiy tartibga solinadi. Bunday foydalanish so'zning huquqiy ma'nosida haqorat belgilariga ega bo'ladi. Masalan, kimdir jamoat joyida kimningdir huzurida odobsiz so'z va iboralarni qo'llashi.

Agar haqorat so'zlarni ma'lum bir shaxsga aytilmagan bo'lsa - bu mayda bezorilik deb olish mumkin, bunday so'zlardan foydalanish so'zlovchini salbiy tavsiflaydi va jamoat joyida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. odobsiz so'zlarni ishlatish bilan bog'liq ko'plab muammolar hali ham mavjud. M. V. Gorbanevskiy ularni ommaviy axborot vositalarida qo'llash muammosi haqida yozadi, gazeta sahifalarida, radio yoki televideneda behayo so'zlardan foydalanishni mayda bezorilik deb hisoblash kerak deb hisoblaydi.[Горбаневский, 2007] Odobsiz so'zlarni ommaviy ravishda qo'llagan taqdirda, so'zlovchi mayda bezorilik (jamoat axloqini haqorat qilish, aniq shaxsni haqorat qilish) uchun ma'muriy jarimaga tortilishi mumkin,

ammo ko'p hollarda u ma'lum bir suhbatdoshni haqorat qilish uchun ayblana olmaydi. Jamoat joyida odobsiz so'zlar uchun jarima solinadi, bu esa, jamoat axloqini buzadi, lekin faqat ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Shunday qilib, agar mazmun jihatidan shaxsni tuhmat qiladigan ibora me'yoriy-adabiy yoki so'zlashuv-ifoda shakliga ega bo'lsa, bu shaklni haqoratomuz deb e'tirof etib bo'lmaydi, chunki u me'yoriy toifada qoladi, garchi so'zlarning so'zlashuv nutqida qo'llanilishi stilistik jihatdan noo'rin ko'rinishi mumkin. Bahsli matnda haqorat mavjudligi haqida gapirish uchun lingvistik va huquqiy asoslar yo'q.

Agar mazmunan haqoratomuz ibora qo'pol ifoda shakliga ega bo'lsa, u qo'pol so'zlarni ommaviy qo'llashni ma'naviy jihatdan taqiqlashni buzadi, lekin u ham odobsiz emas va huquqiy tartibga solinmaydi. Shuni ta'kidlash kerakki, kundalik ong uchun ham qo'pol, ham odobsiz so'z va iboralar ahloqsiz hisoblanadi.

Umumiste'molda terminologik bo'lmagan ma'noda odobsiz so'zlar va iboralar ona tilida so'zlashuvchilar uchun sinonimdir. Umumiste'mol uchun barcha uyatsiz, qo'pol va odobsiz so'zlar bir xil darajada odobsiz deb hisoblanadi. Shu munosabat bilan o'zining lingvistik ongiga tayangan holda, har qanday ona tilida so'zlashuvchi qo'pol, yoki odobsiz so'zlarni ishlatganlarni odobsiz deb hisoblashi mumkin va natijada so'zlovchining odobsiz, qo'pol so'zlari uchun ranjishi mumkin. Bunday gapning lingvistik shakli kundalik ong nuqtai nazaridan u to'g'ri, lekin yuridik nuqtai nazardan to'g'ri emas.

Yuridik nuqtai nazardan faqat odobsiz so'zlar haqoratli lingvistik shakl hisoblanadi, ammo odobsiz so'z va iboralarni ishlatgan shaxsni qonuniy ravishda qoralash yoki jazolash uchun bir qator shartlar bajarilishi kerak.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, shunchaki odobsiz so'z va iboralardan foydalanish huquqiy aralashuvga asos bo'la olmaydi. Bu faqat quyidagi hollarda mumkin va qonuniydir:

a) aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga bevosita murojaat qilingan bo'lsa;

b) bunda to'g'ridan-to'g'ri haqorat qilish niyati mavjud bo'lsa;

v) invektiv (xafa qilish uchun mo'ljallangan) lug'at – ma'lum bir shaxsning individual harakatlari yoki so'zlarini emas, balki uni shaxs sifatida tavsiflaydi, ya'ni. uning shaxsiyatiga umumlashtirilgan baho beriladi.

d) ibora ommaviy ravishda qo'llanilganda. [Горбаневского, 2002]

Haqoratning umumiste'mol va huquqiy tushunchasini farqlash kerak. Sud muhokamasida adolat emas, haqiqat o'rnatilganligi sababli, bahsli matnni tahlil qilishda huquqbuzarlik muhokama mavzusi bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, da'vogar ko'pincha haqoratni tanqid bilan aralashtirib yuboradi, ya'ni tanqidni haqorat deb biladi. Ba'zi odamlar o'zlari haqida mutlaqo haqorat belgilari bo'lmagan so'zlar bilan xafa bo'lishlari mumkin, boshqalari hech qachon xafa bo'lmasligi ham mumkin.

Umumiste'molda ko'pincha xo'rlash va haqorat tushunchalari ajratilmaydi. Aslida, odam hamma narsadan xafa bo'lishi mumkin.

Haqorat va xo'rlash o'rtasidagi farq uning individual, subyektiv, hissiy va psixologik tabiati, shaxsni haqiqiy kamsitish tomonlarida ko'rinadi. Biroq, haqoratning kundalik tushunchasi, agar u axloqiy nuqtai nazardan shaxsni salbiy tavsiflamasa va odobsiz shaklda ifodalanmasa, yuridik jihatdan haqorat emas.

Haqoratning mavjudligi to'g'risidagi yakuniy qaror sud tomonidan faktlarning haqiqatga mos kelishi, yoki nomuvofiqligi va da'vogarni javobgar tomonidan qasddan haqorat qilganligini aniqlagan holda qabul qilinadi.

Aniq bir misolni ko'rib chiqadigan bo'lsak, sudya sud zalidan chiqayotganida jabrlanuvchi tomonidan unga nisbatan *ahmoq* degan so'zlari haqorat hisoblanadimi?

Bu ibora sudyani haqorat qilishmi?

Keling, yuqorida ta'kidlangan haqoratning lingvistik belgilarini ketma-ket ko'rib chiqaylik.

1. Matnda shaxsga nisbatan salbiy gaplar, ya'ni uni salbiy xarakterlovchi gaplar bormi?

Sudya ahmoqdir - salbiy bayonot, u sudya haqida salbiy ma'lumot beradi.

2. Ushbu bayonotlar sudyaning shaxsan nomiga aytiladimi?

Yo'q, u shaxsan sudyaga aytilmaydi, uni bilvosita tavsiflaydi, sud muhokamasi tugagandan so'ng sud zalida baho sifatida e'lon qilinadi. Chunki bu sudyaga emas, balki sud xulosasiga nisbatan ishlatilgan qo'pol iboralar hisoblanadi.

3. Salbiy gap shaxsni yaxlit, umuman, shaxs sifatida tavsiflaydimi?

Ha, ifoda umumlashtiruvchi xususiyatdir.

4. Ushbu salbiy bayonot kontent hakami uchun haqoratlimi?

Haqorat - bu odamni odobsiz til shaklida kamsitish.

Tahlil qilinayotgan ibora sudyani ranjitadi, uni kamsitadi, unga nisbatan so'kinish so'zi (invektiv) omma oldida qo'llanadi, so'ki-

nish esa jamoatchilik ongi tomonidan ma'naviy jihatdan qoralanadi; xushmuomalalik me'yorlari aniq buzilgan deb qarash mumkin. Shunday qilib, sudlanuvchi omma oldida, jamoat joyida sudyaning jamoat va kasbiy mavqeini pasaytirgan, bu esa sudya uchun kamsitishdir. Ommaviy tahqirlash sudyaga zarar keltiradi.

Biroq, shu bilan birga, tahlil qilingan bayonot sudyani haqorat qilmaydi, chunki uning mazmunida sudyani obro'sizlantiradigan ma'lumotlar mavjud emas, bu sudyaning ma'naviy kamchiliklari yoki uning buzilishi to'g'risidagi bayonot emas, balki subyektiv baholovchi fikrdir.

5. Tahlil qilinayotgan inkor gap odobsiz til shakliga egami?

Ahmoq so'zi stilistik so'zlashuv so'zi bo'lib, u beadab so'zlarga mansub emas va odobsiz emas, shuning uchun ham so'zning huquqiy ma'nosida haqoratli lingvistik shakl maqomiga ega emas.

6. Haqorat oshkora qilinadimi?

Bu ibora jamoat joyida - sudda, ya'ni jamoat joylarida qo'llaniladi.

Shunday qilib, bahsli bayonotda haqorat haqida gapirishga imkon beruvchi oltitadan faqat uchta belgi bor va aynan shu asosiy belgilar yetishmayotgan haqoratning barcha zarur differensial belgilari ularning umumiyligida ko'rsatilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, huquqiy nuqtai nazardan qaraganda, "Sudya ahmoqdir" degan gaplar sudyaga nisbatan haqorat sifatida ko'rilmaydi. Haqorat qilish niyatini va tuhmat qiluvchi ma'lumotlarning haqiqatga muvofiqligini aniqlashi kerakligini ta'kidlab o'tish joizdir. Sud bu ishda sudyani haqorat qilish uchun ish sudyalik nuqtai nazariga ega bo'lmaydi.

Ahmoq so'zining semantikasini tahlil qilish bizga ushbu so'zning ikkita ma'nosini ochishga imkon berdi:

1. Ahmoqlik bilan kasallangan (kasal).
2. Juda ahmoq odam (so'zlashuv tilida).

Munozarali vaziyatda ahmoq so'zi so'zlashuv tilida majoziy ma'noda qo'llaniladi - juda ahmoq odam, u tibbiy vaziyatda emas, balki uy sharoitida talaffuz qilinadi. Sud majlisidagi vaziyatni tahlil qilish, da'vogar va guvohlarning ko'rsatmalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, munozarali bayonot sudlanuvchi tomonidan sud zalidan chiqib ketayotganda eshik oldida aytgan va sudya - sudyaga shaxsan aytilmagan. Sudlanuvchi sudyaga qaramadi, sudya uning orqasida edi, u bu gapni sudyaning aqliy qobiliyatiga subyektiv baho sifatida dimog'i ostida aytdi. Bu sudyaning xatti-harakatlariga o'zining subyektiv bahosining ifodasidir, madaniyatsiz, ammo sudyaga aytilma-

gan va sudya haqorat uchun da'vo qila olmaydi.

Kommunikativ vaziyatni hisobga oladigan bo'lsak, munozarali so'zlarning qo'llanilishida sudyani haqorat qilish belgilari yo'qligini ko'rsatadi – "*Sudya – ahmoq*" degan gap sudyaga shaxsan aytilmagan, sudyani biron bir qoidani buzgan shaxs sifatida tavsiflamaydi. axloqiy me'yorlar yoki qonunlar tekshiruvdan o'tkazilmaydi. Bu nutq madaniyati me'yorlarini buzadi, sudlanuvchining madaniyati yo'qligidan dalolat beradi, lekin huquqiy tartibga solinmaydi.

Demak, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, haqorat mazmunidagi leksemalarni aniqlashda, lingvokriminalistik tahlil qilishda quyidagilarga e'tibor berish kerak: *birinchidan*, haqorat ma'nosidagi leksemalarning darajalanish xususiyatiga ko'ra matnni tahlil qilish ancha samarali natija beradi. Shu asosda, ekspert uchun haqorat so'zlar lug'ati muhim ahamiyatga ega. Bunday lug'at munozarali matn mazmuniga oydinlik kiritishda ham, tekshiruv xulosasini berishda ham asos vazifasini o'taydi; *ikkinchidan*, shunday haqorat mazmunidagi leksemalar borki, ayrim hududda haqorat leksemasi sifatida qo'llansa, ayrim hududlarda ijobiy ma'noda ishlatiladi. Shunda ikki hudud vakilining suhbat jarayonida aynan shu tipdagi so'zlardan foydalansa, tushunmovchilik, mag'ziga yetib bora olmaslik oqibatida ikki o'rtada nizo tug'ilishi mumkin. Shunday vaziyatlarda haqorat mazmunidagi leksemaning lingvistik ekspertizasi muhim sanaladi. Ammo lingvokriminalist uchun ham vulgar, jargon so'zlar, shuningdek, noadabiy grammatik va fonetik birliklar indeksi zarur bo'ladi. Nafaqat, indeks, balki noadabiy birliklarning milliy korpusini yaratish katta ijobiy natijalarga xizmat qilishi mumkin. Bu borada o'zbek tilshunosligida hech qanday manba yaratilmagan va sud-huquq tizimi bunday yangiliklarga muhtoj; *uchinchidan*, Inson shaxsiyati, qadr-qimmat, obro'siga tahdid soluvchi leksik birliklar, yoki yaqin o'tmishda invektiv leksika, haqorat sifatida qabul qilingan, ammo hozirgi kunda haqorat hisoblanmaydigan, neytral leksika tarkibiga kirayotgan leksemalarning aniq ro'yxatini ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar

- Жельвис, В.И. 2004. Слово и дело: юридический аспект сквернословия. Понятия чести, достоинства и деловой репутации: Спорные тексты СМИ и проблемы их анализа и оценки юристами и лингвистами. — Изд. 2-е, перераб. и доп. Москва: Медея.
- Sherboyeva, G. 2017. Badiiy matnda sotsial chegaralangan so'zlar. Andijon, b. 32.

- Шахматова, Т.С. Оскорбление как инструмент языкового насилия в речевых ситуациях институционального общения. Ученые записки казанского университета. Казань
- To'rayeva, D. 2022. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi: Fil. fan.fal.dok. (PhD) diss. Qo'qon, B. 41
- Стернин, И.А. 2006. Оскорбление и неприличная языковая форма как предмет лингвистической экспертизы (бытовое и юридическое понимание) Опубликовано в: Антропотекст -1. Изд-во Томского университета, С.339-353.
- Ворошилова, М.Б. 2016. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник: Учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». Екатеринбург, 62 с.
- Стернин, И.А. О понятии «неприличная форма высказывания» и «неприличная лексика». Избранные-статьи-2006-2012 (дата обращения: 17.10.2018).
- Горбаневский, М.В. 2007. Об ответственности за словою Русская речь. №1.
- «Цена слова». 2002. Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации». Под ред. проф.М.В.Горбаневского. Изд.3, испр. и доп. Москва: «Галерея».

Linguocriminalistic analysis of insulting lexemes

Jumanazar Urazov¹

Abstract

This article gives information on lexical and legal classification of insult meaning lexemes, as well as linguistic-criminological analysis. In the recent past, there have been reports of invective lexemes being considered insulting in the past, and moving towards neutral lexicons. In general, the

¹*Urozov Jumanazar Norkizilovich*, Teacher of Linguodidactics department at the Tashkent State University of Uzbek language and Literature named after Alisher Navai

E-mail: urozovjumanazar@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-9508-921X

For reference: Urozov, J.N. 2022. "Linguo-criminological analysis of insulting lexemes". *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1(5): 32-43.

concepts of insult and humiliation are explained. An analysis of the use of vulgar lexical items, vulgar words, rude and obscene words as insults.

Key words: *Insults, obscene words, swearing, rude words, slander, verbal discrimination, general and legal concept of insult, obscene lexical units, vulgar words.*

References

- Zhelvis, V.I. 2004. Word and deed: the legal aspect of foul language. Concepts of honor, dignity and business reputation: Controversial media texts and problems of their analysis and evaluation by lawyers and linguists. - Ed. 2nd, revised. and additional. Moscow: Medea.
- Sherboyeva, G. 2017. Socially limited words in the literary text. Andijon, b. 32.
- Shakhmatova, T.S. Insult as a tool of linguistic violence in speech situations of institutional communication. Scientific notes of Kazan university. Kazan. B. 2
- Turaeva, D. 2022. Territorial characterization of non-literary elements in personal correspondence in Uzbek language: Phil. fan.fal.dok. (PhD) diss. - Kokand, B. 41
- Sternin, I.A. 2006. Insult and indecent language form as a subject of linguistic expertise (everyday and legal understanding) Published in: Anthroptext -1. Publishing House of Tomsk University, S.339-353
- Voroshilova, M.B. 2016. Linguistic expertise [Text]: problem book: Proc. allowance. At 2 pm Part 1. Examination of the conflict text / M. B. Voroshilova; FGBOU VO "Ural. state ped. un-t. - Yekaterinburg, 62 p.
- Sternin, I.A. 2007. On the concept of "indecent form of expression" and "indecent vocabulary". Selected articles-2006-2012 (date of access: 10/17/2018).
- Gorbanevsky, M.V. 2002. About responsibility for the word//Russian speech. -#1. "The price of the word". From the practice of linguistic expertise of media texts in lawsuits to protect honor, dignity and business reputation. / Ed. Prof. M.V. Gorbanevsky. Ed.3, rev. and additional M.: "Gallery".

QIYOSIY TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI

Формулы азербайджанских и узбекских пословиц и притч в форме «перекрёстной рифмы» или «гошайарпаг»/«чарпаз гафийе»

Ханкиши Мамедов¹

Абстракт

В работе впервые рассматриваются художественные качества поэтической структуры «гошайарпаг» азербайджанских и узбекских пословиц, не встречающихся прежде ни в одном источнике. Термин «пословицы гошайарпаг» употребляется впервые Х.Б.Мамедовым. Исследования показывают, что в азербайджанских и узбекских пословицах формы «гошайарпаг» предостаточно. Пример к «пословицам гошайарпаг» в азербайджанской пословице «Баба, баба дедилер, вар-йокуну йедилер», слово «дедилер» рифмуется со словом «йедилер», в узбекской – «Bir kalla – **kalla**, ikki kalla – **tilla**» слово «**kalla**» рифмуется со словом «**tilla**». Следует отметить, что такие поэтические слепки, формы, разновидности, «вербальные» образцы, которые выражают наш жизненный опыт словами, являются новым образцом для нашего фольклора. И это есть новая точка зрения, новая перспектива, новая модель подхода, новая концепция видения. А провести новые исследования на имеющейся базе и представить их как единое целое – требование времени.

Ключевые слова: *Фольклор, азербайджанские пословицы и поговорки, узбекские пословицы и поговорки, Ашуг Алескер, “гошайарпаг”.*

Введение

Одним из самых распространенных видов азербайджанской литературы является поэтический жанр «гошма».

¹Мамедов Ханкиши Бахтияр оглы - докторант кафедры Литературы. кандидат технических наук, доцент. Азербайджанский государственный педагогический университет.

Э-почта: xankishi022@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7064-726X

Для цитаты: Мамедов, Х.В. 2022. “Формулы азербайджанских и узбекских пословиц и притч в форме «перекрёстной рифмы» или «гошайарпаг»/«чарпаз гафийе”. *Узбекистан: язык и культура. Прикладная филология* 1 (5): 44-53.

«Гошма» – это древняя форма стихосложения с парными рифмами. Одним из самых сложных образцов двустишия является стихотворная форма «гошайарпаг» (буквально «парные листки»). Такие стихи строятся от начала до конца на параллельных парных рифмах, отличаются плавностью и особой музыкальностью [Эльчин, Виляят Кулиев 1993, 32]. Во-первых, написать подобные стихи невозможно без знания тонкостей языка и богатства его лексики. Иногда вместо «гошайарпаг» используются термины «внутренний стих» или «перекрёстная рифма» [Гасымылы М., Аллахманлы М. 2018, 143]. По этой причине стихи в форме «гошайарпаг» встречаются только в произведениях мастеров художественного слова. В парных стихотворениях стихи, строки, бейты (двустишие), стопы рифмуются друг с другом по диагонали, и такое состояние рифмовки условно соблюдается во всех стихах. Такую поэтическую форму можно найти в творчестве Ашуга Раджаба, который жил в XIX веке и был известен в окрестностях Дербента как Кёр ашуг, Ашуга Алескера, Моллы Джумы, Шамиля Далидага и многих других мастеров слова.

Основная часть

Но относится ли «гошайарпаг» к другим образцам фольклора? Например, пословицам и т. п. Ведь большинство азербайджанских и узбекских пословиц являются образцами коротких стихов. Покойный фольклорист Паша Эфендиев об этом писал: «Большинство пословиц и притч в форме стихов. Это отрывки с различными стопами, с художественной точки зрения красивы, выразительны и совершенны. Иными словами, это образцы поэзии [Эльчин, Виляят Кулиев 1993, 142]. Наши исследования показывают, что в азербайджанских и узбекских пословицах, а также в других образцах фольклора формы «гошайарпаг» предостаточно. Безусловно, это говорит нам о богатстве мышления наших древних предков, красоте их духовных, художественных вкусов, глубине национального общественного сознания и психологии. Очень важно изучить их смысловую природу. На наш взгляд, это не только знак глубокого уважения и почитания духа наших предков, но и с точки зрения изучения истории фольклора и интересно, и важно для сохранения красоты азербайджанских и узбекских языков и духовных сокровищ, созданных на этих языках. В связи с этим не считаем необходимым доказывать актуальность проблемы. В работе впервые рассматриваются художественные качества

поэтической структуры «гошаярпаг» азербайджанских и узбекских пословиц, не встречающихся прежде ни в одном источнике. Следует отметить, что термины «пословицы дудакдеймез», «пословицы гошаярпаг», «пословицы дилдонмез», «пословицы еввел-ахыр» и многие новые термины употребляется впервые Х.Б.Мамедовым (7).

Анализ методов

Сначала рассмотрим пример:

Sevdiciyim, **hanı** gözəllər **xanı**?
Güzarımız sizin **otağa** düşdü.
Buyursan **fərmanı**, alarlar **canı**,
Püşk atdıq, can sana **sadağa** düşdü.

Sallan qələm **qaşdı**, yanı **yoldaşdı**,
Qalmışam **ataşdı** mən başı **daşdı**.
Huş başımdan **çaşdı**, dilim **dolaşdı**,
Gözlərim sataşdı, **buxağa** düşdü

Çox çəkmişəm **cəfa**, gəl bir **insafa**,
And olsun **müşafa**, olmam **bivəfa**.
Gəlmişəm **təvafa**, verəsən şəfa,
Ələsgər xəstədi, **ocağa** düşdü (2, 86).

Как видно, в стихотворении строки, бейты, и строфы перекрестно рифмуются друг с другом. Точнее слова первой строфы первой строки «hanı» и «xanı» перекрестно рифмуются со словами третьей строки «fərmanı» и «canı». Слово «otağa» первой строфы второй строки рифмуется со словом «sadağa» четвертой строки, и эти рифмы сохраняются в следующей строфе, рифмуясь со словами последней строки «buxağa» и «ocağa». Также слово «qaşdı» рифмуется со словом «yoldaşdı» второй строфы первой строки, во второй строке слово «ataşdı» со словом «daşdı», в третьей строке слово «çaşdı» со словом «dolaşdı».

Нетрудно заметить, что эти условия соблюдаются во всех строфах. Главной особенностью стихотворений «гошаярпаг» является то, что мы уже отметили.

Исследования показывают, что в азербайджанском и узбекском фольклоре много «пословиц-гошаярпаг». Например,

в азербайджанской пословице «Баба, баба дедилер, вар-йокуну йедилер», слово «дедилер» рифмуется со словом «йедилер», в узбекской – «Bir kalla – kalla, ikki kalla – tilla», слово «kalla» рифмуется со словом «tilla».

В исследовании было рассмотрено около двухсот пословиц. В качестве источника использованы [Аббасов А.Г., Мамедов Х.Б. 2019], [Пословицы. 2013. Автор М. Якубкызы], [Узбекские народные пословицы. 2005] и [https://www.ziyouz.com]. Их количество бесконечно. Это ясно показывает, что оба языка являются языком поэзии. Ниже приведены около шестидесяти примеров пословиц «гошайарпаг» относительно каждого языка. Параллельные парные рифмы выделены в тексте черным шрифтом.

1. Примеры пословиц «гошайарпаг» на азербайджанском языке:

Ac acı **doluyar**, tox toxu **yaliyar**; Ac deyər, **doymazam**, tox deyər, **acmazam**; Ac əlinə düşəni **yeyər**, tox ağzına gələni **deyər**; Ac ölməz, gözü **qaralar**, borclu ölməz, üzü **saralar**; Acı ayran nəhrə **dibində**, qara kişmiş bəylər **cibində**; Acıgnan **itirərsən**, səbirmən **gətirərsən**; Acın gözü çörəkdə, toxun gözü **hənəkdə**; Acından günorta **durur**, bığını yağ ilə **burur**; Aclığında eldən **yeyər**, toxluğunda eldən **deyər**; Abır **harda**, çörək orda; Abır istəsən çox **demə**, sağlıq istəsən çox **yemə**; Açıq başa **qoz** dəyər, örtülməsə **tez** dəyər; Adam adamdır, olmasa da **pulu**, heyvan heyvandır, atlas olsa da çulu;

Adam adamın **rəhmanı**, adam adamın şeytanı;

Adam altdan **söz**, qazan altdan **köz**; Adam var, **dağı** gəz, adam var, **yağı** gəz;

Adam var, gözdən qızar, adam var, **sözdən** qızar;

Adam var ki, adamların **naxşıdır**, adam var ki, heyvan ondan **yaxşıdır**;

Adam var ki, **rəhmət** aparar, adam var ki, **lənət** aparar;

Adamı adam eyləyən **paradı**, parasız adamın yüzü **qaradı**;

Adamı **başdan**, ağacı **yaşdan**;

Adamın alaçası işində, heyvanın alaçası dişində; Adamın əti **yeyilməz**, dərisi **geyilməz**; Adamın yerə **baxanından**, suyun lal **axanından**;

Aftan olsun, **oftan** olsun, dək oğlana **qaftan** olsun;

Ağ ərik, sarı ərik, dərərək **görərik**;

Ağ gün **ağardır**, qara gün **qaraldır**; Ağa gətirər **navala**, xanım tökər çuvala;

Ağam bir **xatın** aldı, davanı **satın** aldı; Ağıl sözün **gövhəri**, söz ağılın **cövhəri**; Ağırılıq qızıl **qala**, yüngüllük başa **bəla**;

Ağızdan **burun** yaxın, qardaşdan **qarın** yaxın; Ağızı buladın **harama** – kəşkülü doldur **qalama**; Ağlama ölü üçün, ağlağıl **dəlü** üçün; Ağrılarda **göz** ağrısı, hər kişinin öz ağrısı;

Ağzıma **aş**, qarnıma – **daş**; Ağzımı yandıрмаğa görə **aş** olaydı, başımı yarmağa görə **daş** olaydı; Axdı **qan**, çıxdı **can**; Axır-**axır**, çıxar **paxır**.

Axşam qızartısı sabaha **yaydır**, səhər qızartısı axşama **vaydır**; Axtaran **tapar**, yoğuran **yapar**; Al malın **yaxşısını**, çəkmə heç **qayğısını**; Al **malını**, gör **halını**; Ala qarğada **alımım** olsun, almazsam, ölümüm olsun; Alan alıb **varlanıb**, satan satıb **aldanıb**; Alçaq yerdə yatma, **sel** aparar, hündür yerdə yatma, **yel** aparar; Aləm geyər çit tuman **damaqlı**, mən geyirəm kətandan **yamaqlı**; Aləmi **dağlar**, balası qalar **ağlar**; Aləmin malı **mülkü**, Qəmbərin yırtıq **kürkü**; Allah verəndə **verər**, əbləh qayğıdan ölər; Allah verməz **quluna**, qalar vuruna-**vuruna**; Allah **yetirər**, bəndə **itirər**; Allahdan **buyrux**, ağzıma **quyrux**; Alma arvad **malını**, gündə pozar **halını**;

Alma arvadın **dulunu**, dalıynan gələr **qulunu**, satar soyar **pulunu**, ayrı qoyar **malını**; Almanı **say** ye, armudu **soy** ye; Altdan gedər **irini**, heç kəs bilməz **sirrini**; Analı qız, **bəlli** qız, anasız qız **dəli** qız; Analı uşağın ürəyində **yağ** olar, anasız uşağın ürəyində **dağ** olar; Anasın gör, **qızın** al, qıyısın gör, **bezin** al.

2. Примеры пословиц «гошаярпаг», встречающихся в узбекском фольклоре:

Ayрилган **yo'lda** qolar, bo'lingan – **do'lda**;

Ayрilmagin **elingdan**, quvvat ketar **belingdan**; Baliqning kuni **ko'l** bilan, botirning kuni **el** bilan; **Begona** tuproq – **devona** tuproq;

Betkay ketar, **bel** qolar, beklar ketar, **el** qolar;

Birikkan kuch – **kuch**, birikmagan kuch – **puch**; **Birlashgan** daryo bo'lar, **tarqalgan** irmoq bo'lar; Birlashgan – **o'zar**, birlashmagan – **to'zar**;

Birlik bor – **tiriklik** bor; Birlikli uy – **barakatli**, go'vgo'ali uy – **halokatli**;

Bizniki – **xaltada**, **sizniki** – **o'rtada**; El boqsa, baxting **kular**, el boqmasa, taxting **qular**; El kuchi – **sel** kuchi;

El senga etsa **nadomat**, dunyoda turolmassan **salomat**; El so'zi – **dil** so'zi;

Elga kirgil **elingcha**, suvga khgil **belingcha**;

Eri bo'lib, erga borgan – **bet qorasi**, eli bo'lib, elga borgan – **yurt to'rasi**;

Hashar borsam **bitar**, ingranib kunim **o'tar**; Ikkovga birov **botolmas**, otliqqa yayov **yetolmas**;

Indama **ko'pga**, yiqitadi **cho'pga**; Jiyan-tog'a **el** bo'lmas, yakka tomchi **sel** bo'lmas; Kiymoqqa **katan** yaxshi, Turmoqqa **vatan** yaxshi; Ko'p **ko'padi**, oz **cho'kadi**;

Ko'pdan **ayrilgan** ozar, ko'pga **qo'shilgan** o'zar;

Ko'pni demay **kul** bo'ldim, g'am-g'ussaga **mo'l** bo'ldim; Ko'pning ishi **yitmas**, ozning ishi **bitmas**; **Ko'pning haqi – to'pning o'qi**; Ko'pning kuchi **ko'lday**, ko'chib yurgan **yelday**;

Ko'pning **qo'li** ham to'g'ri, **yo'li** ham to'g'ri;

Ko'pchilik bir mushtdan ursa, **o'ldirar**, bir burdadan bersa, **to'ydirar**;

Ko'pchilik **qo'l** – unumi **mo'l**;

Ko'pchilik ko'pirsa, **qulatar**, ko'pchilik supursa, **sulatar**; O'z bilganingda **bo'lma**, el bilganidan **qolma**;

Qomatiga ishongan qaddini bukib **ketadi**, ko'pchilikka ishongan maqsadiga **yetadi**;

Sigirning suti – **tilida**, erning quti – **elida**;

Suvni bersang **elga**, yasharsan ming **yilga**; Tegishmagin **ko'pga**, teng bo'lasan **cho'pga**;

To'pdan chiqsang ham, **ko'pdan** chiqma;

Tug'ilgan yerdan ko'ngil **uzilmas**, yurt qo'riganning yurti **buzilmas**; Uzoq bo'lsa ham, **yo'l** yaxshi, yomon bo'lsa ham, **el** yaxshi; **Vatan** gadosi – **kafan** gadosi;

Vatanga **falokat** – o'zingga **halokat**;

Vatanning **vayronasi** – Umrning **g'amxonasi**;

Vatanning **vayronasi** – Umrning **hayronasi**; Xalq qarg'asa, **xor** bo'lasan, xalq qo'llasa, **bor** bo'lasan; Xalq xohlasa **tuzishni**, hojati yo'q **cho'zishni**;

Xalqdan ajralganning **yuzi** qora bo'lar, yurtdan ajralganning **so'zi** ado bo'lar; Xalqqa suyansang, **bo'lasan**, xalqdan chiqsang, **so'lasan**;

Xalqqa **xiyonat** qilding, o'zingga **jinoyat** qilding; Yakkaning yori **xudo**, bo'lmasa eldan **judo**;

Yaxshi rahbar elni **o'ylar**, yomon rahbar hovli **bo'ylar**; Yaxshi rahbar yo'l **qurar**, yomon rahbar yo'l **buzar**;

Yigit g'ami elida, Elning g'ami dilida;

Yo'ldan chiqsang chiq, **eldan** chiqma; Yolg'iz botir **yovga** yo'q, yolg'iz yigit **dovga** yo'q; Yolg'iz itning **hurgani** bilinmas, yolg'iz

kishining **yurgani** bilinmas; Yolg'iz yigit **alp** bo'lar, alp bo'lsa ham, **qalp** bo'lar; Yolg'iz otning **changi** chiqmas, changi chiqsa ham **dong'i** chiqmas; Yolg'iz tuya **baqiroq** bo'lar, yolg'iz bola **yig'loq** bo'lar; Yolg'iz yog'och pana **bo'lmas**, yolg'iz biyaga sova **to'lmas**.

Нетрудно заметить, что большинство пословиц «гошаярпаг» в азербайджанском и узбекском языках практически идентичны по образу, структуру, семантике и по лексическому составу. Конечно, мы прогнозировали такой же результат. И это естественно. Потому что, оба братских тюркоязычных народа, относящихся к категории родственных языков, всегда были близки и дружны друг с другом, вопрос не новый, и это общеизвестно.

Вывод

Таким образом, с точки зрения принципов поэтики фольклора историческая картина азербайджанских и узбекских пословиц, их жанровая характеристика, художественно-эстетическая функция и, как следствие, национально-духовное, художественное мышление и историко-культурное наследие двух народов свидетельствуют о его глубоком величии. Следует отметить, что такие поэтические слепки, формы, разновидности, такая любовь к языку, которая является важнейшим кодом нашей национально-энергетической системы мышления и кодом этнокосмического поведения, связывающих нашу этнокультурную память со своими корнями и историческими источниками, встречаются очень редко. Конечно, как было отмечено выше, это говорит нам о богатстве мыслительной сферы наших предков, их богатом духе, художественном вкусе, поэтическом мышлении и красоте. Очень важно изучить их смысловую природу. Потому что эти примеры важны для повышения творческой активности людей, обогащения их духовности и художественного мышления. Это можно рассматривать как одно из важнейших средств обеспечения красоты языка, а также наиболее эффективное дидактическое средство. Следует отметить, что формулы «пословицгошаярпаг» при подходе с точки зрения современной системы мышления представляют собой новую модель подхода в литературе. В отличие от своих предшественников, эта модель представляет собой совершенно новый и иной мир идентичности, философию этнической мудрости, которую мы храним в глубинах своей памяти и мысли, природный и культурный потенциал нашего

национального интеллектуального и этнопсихологического бытия. Конечно, все это, выражая наше глубокое уважение и почтение к народной памяти, прошлому и истории, требует систематического изучения нашего этнокультурного мышления, а также привития его подрастающему поколению. Потому что провести новые исследования на имеющейся базе, представить их как единое целое – требование времени.

Литература

- Аббасов, А.Г., Мамедов Х.Б. 2019. Азербайджано-англо-русские паремнологические единицы. Баку: Наука и образование.
- Ашуг, Алескер. 2004. Стихи. Баку: Восток-Запад.
- Пословицы. 2013. Автор М. Якубкызы. Баку: Нурлан.
- Эльчин, Виляят Кулиев. 1993. «Özümüz ve sözümüz». Баку: Азернешр.
- Эфендиев, П. 2013. Азербайджанская устная народная литература. Баку: Наука и образование.
- Гасымлы, М., Аллахманлы, М. 2018. Поэтические формы и разновидности ашугской поэзии. Баку: Наука и образование.
- Мамедов, Х. 2022. Функционально-семантическая структура азербайджанских и турецких пословиц. *BENGI: Дунйа Йоррук-Журнал туркменских исследований*, Год: 5, Выпуск: 1, с.145-162. E-ISSN: 2717-6584.
- Узбекские народные пословицы. 2005. Составители: Т.Мирзаев, А.Мусокулов, Б.Саримсаков. Главный редактор: Ш.Турдимов. Ташкент: Восток.
- <https://www.ziyouz.com>.

Formulas of Azerbaijani and Uzbek proverbs and parables in the form of “cross rhyme” or “goshayarpag” / “charpaz gafiye

Khankishi Mammadov¹

Abstract

The paper for the first time examines the artistic qualities of the poetic structure of «goshayarpag» in Azerbaijani and Uzbek proverbs, not found before in any source. The term «goshayarpag proverbs» is used for the first time by H.B.Mammadov. Research shows that the form «goshayarpag» is abundant in Azerbaijani and Uzbek proverbs. Example to «goshayarpag proverbs» in Azerbaijani proverb «Baba, baba dediler, var-yokunu yediler», word «dediler» rhymes with «yediler», in Uzbek proverb «Bir kalla – kalla, ikki kalla - tilla» word «kalla» rhymes with «tilla». It should be noted that such poetic casts, forms, varieties, «verbal» patterns, which express our life experience in words, are new patterns for our folklore. And this is a new point of view, a new perspective, a new model of approach, a new conception of vision. And to carry out new research on the existing base and to present it as a whole is the demand of the time.

Key words: *Folklore, Azerbaijani proverbs and sayings, uzbek proverbs and sayings, Ashug Alesker, «goshayarpag».*

References

- Abbasov, A.G., Mammadov H.B. 2019. Azerbaijani-English-Russian paremiological units (Azerbaydjano-anglo-russkie paremioloqiçeskie yedinitisi). Baku: Science and Education.
- Ashug, Alesker. 2004. Poems (Stixi). Baku: East-West.
- Proverbs, (Poslovitsi). 2013. Author M. Yakub kizi. Baku: Nurlan.
- Elchin, Vilayat Kuliev. 1993. «Özümüz ve sözümüz» (Miy i naše slovo). Baku: Azerneshr.
- Efendiyev, P. 2013. Azerbaijani oral folk literature (Azerbaydjanskaya ustnaya narodnaya literatura). Baku: Science and Education.
- Gasymly, M., Allahmanly, M. 2018. Poetic forms and varieties of ashug poetry (Poetiçeskie formı i raznovidnosti aşıuqsıkoı poezii).

¹Mammadov Khankishi Bakhtiyar oglu - doctoral student at the Literature Department. candidate of technical sciences, associate professor. Azerbaijan State Pedagogical University.

E-mail: xankishi022@gmail.com

ORCID: 0000-0002-7064-726X

For reference: Mammadov, X.B. 2022. “Formulas of Azerbaijani and Uzbek proverbs and parables in the form of “cross rhyme” or “goshayarpag” / “charpaz gafiye”. *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1(5): 44-53.

Baku: Science and Education.

Mammadov, Kh. 2022. The functional-semantic structure of Azerbaijani and Turkish proverbs (Funksionalno-semantiçeskaya struktura azerbaydjanskix i turetskix poslovits)// *BENGI: World Journal of Yörük-Türkmen Studies*, Year: 5, Issue: 1, pp.145-162. E-ISSN: 2717-6584.

Uzbek folk proverbs (Uzbekskie narodnie poslovitsı). 2005. Compiled by: T. Mirzaev, A. Musokulov, B. Sarimsakov. Main editor: Sh. Turdimov. Tashkent: East.

<https://www.ziyouz.com>.

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda pedagogikaning muhim jihatlari

Xurshida Kadirova¹

Abstrakt

O‘zbek tilini o‘qitishda xorijiy tillarni o‘qitishdagi muayyan tajribalarni olib kirish ushbu maqolaning maqsadlaridan biri hisoblanib, o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilining samaradorligini oshirish, dars sifatini yaxshilash uchun qilingan harakatdir. Unda quyidagi vazifalar belgilanadi: a) Ta’limda milliy va xorijiy tajribani qiyoslash; b) O‘qituvchi va dars sifatini oshirish bilan bog‘liq omillarni tadqiq etish; s) O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda xorijiy tajribalarni qo‘llash ikoniyatlarini o‘rganish; d) Til ta’limida psixologik va metodik kompetentsiyalarni tahlil qilish. O‘zbek tili darslik va qo‘llanmalarining salmolg‘i va sifatining oshishi til o‘rguvchining ta’limini osonlashtiradi, idrokini ravshanlashtiradi. Maqolada ko‘rsatilgan masalalarning qo‘llanganlik darajasi amaliy ahamiyat kasb etadi. Til ta’limida metodologik yondashuv zaruriy omil ekan, uni nazariy va amaliy jihatdan hayotga tadbiqu etish muhim masaladir.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, milliy dastur, ta’lim sifati, pedagogikaning uch doirasi, pedagogikaning uch texnikasi, tana tili, o‘qituvchi nutqi, skafolding, havoza, yaqin rivojlanish sohasi, til ta’limi.*

Kirish

Mamlakatimizda ta’lim siyosatining avj olishi salohiyatli, bilimli va iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va jahon sahnasida raqobatbardosh kardlarni tayyorlash bilan bog‘liq. Ta’limni shunchaki emas, balki sifatli o‘qitishga bo‘lgan e’tibor hamma zamonda ham diqqat markazida bo‘lgan, ammo bugun jahon miqyosida zamonaviy standartlarga mos kelish masalasi xorijiy tajribaga murojaat

¹Kadirova Xurshida Batirovna – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Amaliy filologiya kafedrasida dotsenti v/b.

E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

Iqtibos uchun: Kadirova, X. 2022. “O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda pedagogikaning muhim jihatlari”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 54-68.

qilishga undaydi. Shu ma'noda, bugun milliy va xorijiy tajribani uyg'unlashtirgan "Milliy dastur"ni yaratishga bo'lgan ehtiyoj amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun mamlakatimizdagi mavjud dasturning kuchini yo'qotdi. Endi jahon hamda mintaqamizdagi tajribalar o'tilajak darslarimizda o'z aksini topadi.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish bo'yicha muayyan qadamlar qo'yilgan bo'lib, 1991-yillarda nashr etilgan X.Ismatullayevning "Самоучитель узбекского языка", asari, shuningdek, M.A.Batirova va boshqalar tomonidan yozilgan "Учимся говорить по-узбекски. Русско-узбекский разговорник" kitobi dastlabki ishlar hisoblanadi. 10 yildan ortiq vaqto'tib, 2003-yilda R.Rasulovning bir necha olimlar bilan hammulliflikda yaratgan "O'zbek tili"si dunyo yuzini ko'rdi. Yana 10 yildan so'ng 2012-yilga kelib T.S.Sorokinaning "Узбекский язык для стран СНГ" asarini mukammal ish sifatida ko'rsatish mumkin bo'ldi. Bugungi kunda G.Ergasheva va MO'TUL jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan adabiyot o'zgacha nom ostida kreativ yondashuvni o'zida aks ettirmoqda. "O'zbekona" [Ergasheva 2020; Ergasheva, Adilova 2021] bugun ko'pchilikning e'tiborini qozondi. Lekin biz bu bilan to'xtab qolmasligimiz kerak. Xorijliklar uchun tanlov imkoniyatini yaratish o'zbek filologlari oldida turgan majburiyatdir. Shuningdek, yangi metodik yondashuvlarni o'zida aks ettirgan adabiyotlarni yaratish kun tartibidagi masaladir.

Til ta'limida uchta qadriyat bor:

- til ta'limi davlat qadriyati sifatida;
- til ta'limi ijtimoiy qadriyat sifatida;
- til ta'limi shaxsiy qadriyat sifatida.

Bular o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Mamlakatda til ta'limining rivojlantirishi davlat, jamoat va shaxsiy manfaatlar uyg'unlash-gandagina ro'y beradi. Unga siyosiy tus berganda, ijtimoiy ahamiyatini muvofiqlahstirganda, inson omili yuqori pog'onaga ko'tarilganda – shaxsiy manfaatlar, xususiy nuqtai nazarlar ustun qo'yilgandagina til ta'limidagi muammolarni hal etish; jamiyat oldida turgan ijtimoiy-pedagogik natijalarga erishish; davlat, ta'lim, ijtimoiy madaniyat maqsadlarining yuqori sifatlariga erishish mumkin. Zero, har qanday tilning roli uning jamiyatdagi, davlatdagi mavqei bilan belgilanadi.

Til xalqaro aloqa vositasi bo'lishi mumkin. Bunga, birinchi navbatda, ijtimoiy vazifalarning maksimal miqdorini bajaradigan

global qamrovli va universal madaniyat tillari kiradi. Bunday tillarga, masalan, ingliz, rus va nemis tillari misol bo'la oladi. Agar til ma'lum bir mintaqaning bir qator mamlakatlarida (masalan, nemis tilida – nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda) so'zlashsa, bu til davlatlararo til maqomiga ega bo'ladi.

Til davlat yoki mahalliy til rolini o'ynashi mumkin. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish mamlakatimizda lokal (mahalliy) tus olgan bo'lib, akasriyat adabiyotlar o'zga tilli guruhlar uchun mo'ljallangan. (Shu o'rinda, o'zbek tilini o'qitish metodikasini yaratishda B. To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodovalarning [To'xliyev, Shamsiyeva, Ziyodova 2006], Yo'ldoshev Rustam A'zamovich [Юлдашев 2015] hamda olim Muxitdinova Xadicha Sobirovnaning [Muxitdinova 2020] hissalarini e'tirof etish lozim.) Shuning uchun, xorijliklar adabiyotlarning yetishmovchiligidan shikoyat qiladi. Oliy ta'limda esa davlat tili sifatida lingvokulturologik qirralari ochilmay o'rgatiladi. Bu tabiiy. O'zbekiston muhitida o'zga tilli fuqaroni qurshab olgan tilning xarakter-xususiyati, milliy mohiyati barq urgan shart-sharoit mazkur bo'shliqni to'ldiradi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish borasida yuqorida zikr etilgan tillarning metodikasidan andoza olish, boyitish, qayta ishlash, mavjud adabiyotlarni to'ldirish xorijliklar uchun qulaylik, tanlov imkoniyati garovidir.

Xorijliklar Nigora Azimovaning Amerikada 2010-yilda chop etilgan "Uzbek. An elementary textbook" ("O'zbek tili. Birinchi bosqich") [Azimova 2010]; 2012-yil Moskvada nashr etilgan «Узбекский язык для стран СНГ» [Бакиев, Караева, Коршуноса, Краева, Тешабаева, Фролова 2012] darsligidan keng foydalani-shadi. Bundan tashqari bugungi kunda bir necha loyihalar ham avj olib bormoqda. Misol qilib MO'TUL jamoasining "O'zbekona" loyihasini keltirish mumkin. Aytish kerakki, bunday loyihalar qancha ko'p bo'lsa til ta'limida sog'lom raqobat; izlanishga, tilning yangi qirralarini kashf etishga bo'lgan ishtiyoq; tadqiqiy yondashuv va nuqtai nazarlarga keng yo'l ochiladi.

1997-yilda "Chet elliklar uchun. O'zbek tili – 1" [Rafiyev 1997] nomli kitob ham bu masladagi dastlabki muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Zero, u muayyan til muhitiga moslashgan bo'lib, milliy koloriti o'zbek tili bilan umumiy hisoblangan til egalariga mo'ljallanganligi bilan ahamiyatli. Yaratilajak adabiyotlar ana shunday muayyan millat xususiyatlariga moslashlashtirilgan bo'lishi muhim masala. Bunda idrok masalasi; ong ostida qotib qolgan intizom masalasi; diniy, ijtimoiy, milliy qadriyatlar masalasi til o'rganishga to'siq bo'lmasligi haqida so'z bormoqda. Ehtimol yo'qotishlar, orttirishlar-

ga duch kelinar, biroq asosiy maqsad o'rganuvchini qiziqtirish, jalb etish va shu orqali o'zbek tilining shirasini targ'ib qilish bo'lib qoladi.

Asosiy qism

Pedagogikaning uch doirasi. Tilni o'rganish yoqimli tajriba bo'lishi mumkinligini muhokama qilar ekanmiz, samarali strategiyalarga ega bo'lmagan o'qituvchilar bu tajribani buzib qo'yishi mumkinligini ham o'ylab ko'rishimiz kerak. Til o'rganuvchilar tomonidan materialni maksimal darajada o'zlashtirishini ta'minlash uchun ma'lumotni taqdim etish va mazmunni yetkazishning ba'zi usullarini ko'rib chiqish mumkin.

Yaxshi o'qitish texnikasi nima?! Hayotimiz davomida ko'plab buyuk professor-o'qituvchilar bo'lib, ularning materiallarni taqdim etish va yetkazish usullarini yodga olaylik. Albatta, bu buyuk o'qituvchilar yozuv taxtasi, PowerPoint taqdimotlari, grafikalar, diagrammalar va hatto metaforalardan foydalanganlar. Bu usullarning barchasi talabalarga o'zi o'qitayotgan tilda muloqot qilish va materialni 100% yetkazishda ko'p yordam bergan. Ongli, balki ongsiz ravishda, lekin shu buyuk o'qituvchilarimiz bizga uni idrok etishni, ya'ni o'zlashtirishni osonlashtirishga qo'llaridan kelganda harakat qilganlar.



Rus psixologi Lev Semyonovich Vigotskiy o'qituvchilar pedagogikaning uchta doirasini eslab qolishlari kerakligini tushuntiradi. **Birinchi doira:** talabalar bilgan narsalari. **Ikkinchi doira:** ular hali o'rganmagan narsalar. **Uchinchi doira:** talabalar

o'qituvchidan o'rganishi kerak bo'lgan ma'lumot.

Uchinchi doira "yaqin rivojlanish doirasi" (ближайшая зона развития) deb ataladi. [Выгодский 1999] Biz buni shirin zona deb atashimiz mumkin, chunki til – bu shirinlik va o'qituvchi o'sha doirada ishlaganda eng yaxshi ta'mga ega bo'ladi.

Stefan Krashen, ESL (English as a second language – Ingliz tili ikkinchi til sifatida) nazariyotchisi, materialning kirish mo'ljali (gipotezasi) deb nomlangan shunga o'xshash bir nazariyani taklif qiladi. Bu nazariya shuni ko'rsatadiki, talabalar rivojlanish uchun ayni damdagi darajasidan bir oz yuqoriroq bo'lgan kirish ma'lumotlarini olishlari kerak. Bir oz murakkabroq, ozgina yangi material.

Stefan Krashen buni "kirish + yangi ma'lumot (I + 1)" deb ataydi. [Krashen 1977; Brown 1977] E'tibor berilsa, bunday yondashuv L. S. Vigotskiyning xulosasidagi yaqin rivojlanish doirasi (ближайшая зона развития) ni yodga soladi.

Ushbu doiradan tashqarida ishlaganda nima bo'lishi haqida mulohaza qilib ko'ramiz. Quyidagi matnga e'tibor bering:

«Bir necha yil oldin men ikki joyda dars berganman: til maktabida va universitetda. Til maktabidagi talabalarimdan biri universitet talabalari bilan birga darsda qatnashish mumkinligini so'radi. Bu talaba juda aqlli yosh xonim edi, lekin u faqat uch oy davomida ingliz tilini o'rgangan, shuning uchun uning darajasi boshlang'ich edi. Shunga qaramay, uning natijalari hayratlanarli edi. Menga bu jarayonni kuzatish juda yoqardi. U auditoriyadagi har qanday savolga osongina, tabassum bilan javob berardi.

Bu talaba ilg'or talabalar bilan birga darsda o'tirishni so'raganda, albatta, rozi bo'ldim. U o'zining maftunkor tabassumi bilan hammadan oldin keldi. Lekin gapni boshlashim bilan uning tabassumi yo'qoldi va talaba qovog'ini chimirdi. Keyinchalik u menga maktabdagi auditoriyada hamma narsani tushunishini, lekin universitetda go'yoki umuman noma'lum tilda gapirganimni aytdi. Uning nazarida juda tez gapirganman va talaba tushunolmaydigan juda murakkab so'zlarni ishlatganman.»

S.Krashen buni «I + 10» deb ataydi. Ushbu formula bo'yicha kiritilgan ma'lumotlar talabaning hozirgi darajasidan juda farq qiladi.

Bunga zid bo'lgan boshqa bir vaziyatni kuzatamiz.

"Hayvonot olami" kursiga xush kelibsiz.

Mendan keyin takrorlang, iltimos.

Bu it.

"It", qaytaring "IT".


Bu mushuk.

Mu-shuk, MU-SHUK” Bunda o'qituvchi o'rgatmoqchi bo'lgan narsani talaba biladi, shuning uchun u zerikishni boshlaydi.

Krashen buni «I + 0» deb ataydi. “Kirish mo'ljali” talabaga to'liq ma'lum. Demak: til o'qituvchisi juda murakkab yoki aksincha, juda oddiy materialni o'rgatishi kerak emas. Talabani ilhomlantirishi, biroq ularni chet tilidan uzoqlashtirmasligi uchun “I + 1” formulasiga amal qilgan holda ma'lumot berishi kerak. O'qituvchi **yaqin rivojlanish doirasini** aniqlab olishi va talabalarga ma'lumotni bloklarga to'g'ri ajratgan holda, kerakli tezlikda gapirish va samarali usullarni qo'llash orqali yordam berishi kerak, shundagina talaba o'qituvchisiz tushuna olmaydigan materialni o'zlashtirishi mumkin.

Pedagogikaning uch texnikasi. Til ta'limida talabalarga yordam beradigan uch xil texnika mavjud. Birinchisi: tana tili, ya'ni imo-ishora tili.

I Tana tili. Bu uslub Rozentalning ilmiy ishlarida o'z aksini topadi. [Mehrabian 1981; Mehrabian 1972] Talabalar o'qituvchini kuzatayotganda imo-ishoralar, ko'z bilan aloqa qilish va harakat orqali yangi materialni tushunishlari oson bo'ladi. Ba'zi tadqiqotchilar noverbal muloqotni verbal muloqot kabi 80% samarali deb bilishadi.



Albert Mehrabyan 7, 38, 55% qoidasini taklif qiladi, bu raqamlar bilan mos ravishda so'zlar orqali muloqot qilish foizi, nutq tonalligi va imo-ishora tili mos keladi.

Auditoriyada talabalarga orqasiga qarab gapiradigan o'qituvchini tushunish ehtimoli talabalarga qarab turgan yoki o'tirgan o'qituvchiga qaraganda uch baravar kam. Gap shundaki, noverbal muloqotning asosiy qismi qo'llar va yuzlar yordamida

amalgaga oshiriladi.

Shuningdek, tana tili va imo-ishora tili talabalarning yangi soʻzlarni yodlashi uchun assotsiatsiya yaratishda ham ishlatilishi mumkin.

“Venesuelaga ketayotganimni bilib, mahalliy dialektni oʻrgatgan ispan oʻqituvchimni hech qachon unutmayman. – deydi Shayn Dikson, oʻzining “Teach English Now!” kursida, – Bu soʻz “oldinga borish”, maqsadli, qatʼiy olgʻa yurish maʼnosini bildiradi. U buni mana shu ishora bilan koʻrsatdi. Bu soʻz “palante” edi. Oldinga siljish degan maʼnoni anglatgan ushbu soʻzni eslab qolishimga yordam beradigan ajoyib vizual illyustratsiya koʻz oʻngimda muhrlanib qolgan”

Tana tili – bu oddiy uslub, ammo u talabalar uchun oʻquv jarayonining ajralmas va zarur qismidir.

II Oʻqituvchi nutqi. Oʻqituvchilik kasbi uchun ajralmas boʻlgan ikkinchi mahorat – bu nutqning oʻziga xos uslubi – oʻz nutqidir.

Oʻqituvchi oʻz nutqini talabaning darajasiga mos ravishda oʻzgartirishi yoki soddalashtirishi kerak. Bu oddiy holat boʻlib, koʻpchilik oʻz suhbatdoshining mavqei, yoshi, darajasiga qarab turlicha muloqot qiladi. Odatda bir xil mavzuni uch xil odamga – toʻrt yoshli bolaga, oʻz otasiga va eng yaxshi doʻstiga turli tarzda istifoda etamiz. Bu holat mavzuni emas, nutqni oʻzgartiradi xolos.

Toʻrt yoshli bolaga aytiladigan narsa otaga aytilmaydi, otaga aytilmagan narsa doʻstga aytiladi va aksincha. Tabiiyki, bu jarayonda vaziyatni beixtiyor oʻz qoʻlimizga olamiz. Oʻqituvchi ham talabalarning darajasini inobatga olishi, shunga koʻra axborotni yetkazish shaklini tartiblashi eng ahamiyatli omildir.

Oʻzga tilli guruhlarda oʻzbek tili yoʻnalishi talabalarining aksariyati nutq masalasida muammolari bor. Biz ularning koʻproq nutqi ustida ishlashimiz kerak. Chekka qishloqdan kelgan talabalarning aksariyati uyatchang, buning ustiga, hatto oʻzbek tilida ham ravon gapirish koʻnikmasiga ega emas. Sababi mashq, amaliyot meyoriga yetmagan. Vaholangki, ular auditoriyada oʻzbek tilidan dars berishi kerak.

Koʻpchilik yangi oʻqituvchilar buni qanday qilishni umuman bilishmaydi. Avvaliga juda tez va juda murakkab, yoki aksincha, juda oddiy va juda sekin gapirishi mumkin. Talabalarning saviyasiga qarab samarali topshiriqlar bergan bir qancha oʻqituvchilarni koʻrganmiz, biroq topshiriqlarni tushuntirishda nutqi talab darajasida emas.

«Oʻqituvchi nutqi» qanday boʻlishi kerak!?

Oʻqituvchi nutqi takrorlari serob, qisqartirilgan grammatik shakllarga boy, soddalashtirilgan, eʼtiborni tortuvchi soʻzlar bilan

to'yintirilgan, umumiy madaniy kompetentsiyalar inobatga olingan, savollar, izohlar va yana takrorlar bilan kengaytirilgan nutqdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Har bir unurni alohida ko'rib chiqamiz.

Takrorlash – fikrni til o'rganuvchiga tushunarli qilish uchun uni qayta shakllantirish yoki eslatish demakdir. Bu til o'rgatishning tabiiy va zarur strategiyasi bo'lib, ko'p o'qituvchilar bora-bora uni faqat intuitiv ravishda qo'llay boshlaydilar. Agar ingliz tili kurslariga borgan bo'lsangiz, mabodo u yaxshi o'qituvchi bo'lgan bo'lsa, siz buning guvohi bo'lgansiz. Ya'ni eski mavzuga bir necha mavzudan keyin qaytishlar bo'ladi.

Takrorlash, shuningdek, til o'rganuvchilarga takrorlanayotgan materialning ahamiyatini idrok etishga yordam beradi. O'qituvchilar takrorlanadigan ma'lumotlarga e'tiborni jalb qilish uchun «avval aytganimdek» yoki «boshqacha aytganda» kabi iboralardan foydalanadilar.

Qisqartirilgan grammatik shakllardan foydalanish. Bu murakkab til elementlarini soddalashtirish va ularni tushunishni osonlashtirishdir.

Ko'pgina tajribali o'qituvchilar qisqartirilgan shakllardan qanday foydalanishni intuitiv ravishda o'rgangan bo'lishsa, yangi o'qituvchilar buni qilishni o'rganishlari, turli konstruktsiyalarni soddalashtirishlari va potentsial qiyin va anglash og'ir bo'lgan iboralardan qochishlari kerak. Buning uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

➤ Soddalashtirilgan so'z boyligi. Oddiyroq so'zlardan foydalanish nazariy jihatdan juda oson ko'rinadi, lekin amalda qiyin. Chunki bunda auditoriyaning darajasini taxmin qilishga to'g'ri keladi. Masalan, *Ular «o'zini oqlash» so'zini bilisharmikan? Yo'q, ular «bahona topish» iborasini bilishsa kerak,* qabilidagi mulohazalar bilan tushunchalarning eng maqbuli tanlanadi.

➤ Diqqatni jalb qiluvchi so'zlar. "O'qituvchi nutqi"ning yana bir elementi – kirish so'zlardan foydalanish bo'lib, ular alohida vazifa, ya'ni talabalar diqqatini nazorat qilish va uni u yoki bu tomonga yo'naltirish ahamiyatiga ega. Bular «*birinchi*», «*masalan*», «*shuningdek*» kabi so'zlardir. Ular talabalarga oddiy va tushunarli axborot yetkazish uchun ishlatiladi.

Madaniy kompetentsiyaga ega bo'lish. O'zga tilni o'rganuvchilar bilan ishlashga odatlanmagan ko'plab o'qituvchilar talabalarga noma'lum bo'lgan madaniy hodisalarga o'zlari bilmagan

holda murojaat qilib qolishlari mumkin. Aslini olganda o'qituvchi talabalarga qaysi tilni o'rgatayotgan bo'lsa o'sha til vakillarining madaniy qirralarini tanishtirish orqali til o'rganuvchilarning madaniy qatlamlari haqida muayyan darajada bilib olish imkoniga egadir. Umuman olganda ma'lum bo'lmagan mavzuni ochmaslik, mabodo qiziq bo'lsa, samimiylilik bilan so'rash orqali tushunmovchiliklarning oldini olishga erishish mumkin. Misol uchun, o'zbek mentalitetida turmush o'rtoqlar bir birlarining ismlarini aytmalik madaniyati ko'p boshqa madaniy qatlam uchun antiqa bo'lib tuyulishi mumkin. bunday misollar juda ko'p bo'lib, o'qituvchi auditoriyaning tili haqidagi axborotga ega bo'lgan holda ushbu kompetentsiyani shakllantirishi zarur.

Aniqlik kiritish. Bunda qisqa pauza qilish, nutqni sekinlashtirish va boshidan boshlash bosqichlarini bosib o'tish mumkin. Bu shunchaki "takrorlash" dan ustivorlikka ega. Materialga izoh berilganda ta'riflar va misollarni o'z ichiga olgan holda yanada ko'proq ma'lumot beriladi. Misol uchun, til o'rganuvchiga «oriyat» so'zi haqida axborot bera turib, materialni aniqlashtirish uchun, misollar keltirgan holda, uning ta'rifini berish mumkin. Bunda ham o'zga til vakili uchun noma'lum bo'lgan milliy-madaniy omillar sabab bo'lib, o'qituvchi uni to'g'ri yetkaza olish uchun yetarli bilimga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, ayollarga bo'lgan munosabat, turli marosimlar, urf-odatlar bilan bog'liq tushunchalar tarjima qilinmaydi va unga izoh talab etiladi.



Savollar. Talabalar nimani tushunganligini aniqlash uchun savollar berish o'qituvchining eng an'anaviy nutq shakli hisoblanadi. Mabodo, biror narsa talabalarning e'tiboridan chetda qolsa, o'qituvchi uchun muhim bo'lgan bu vaziyat savol orqali aniqlanadi. Bundan tashqari, savollarni berganda, ularga javob berish uchun yetarli vaqt ajratish ham muhimdir. Ba'zida sukunat bilan to'ldirilgan

pauza ham qiziqish uyg'otadigan va talabalarni ishga jalb qiladigan samarali usuldir.

Til o'qituvchilari doimo til o'rganuvchilarning ko'ziga e'tibor berishadi. Va agar talabalar mana bunday qarashsa, unda «o'qituvchi nutqini» o'zgartirish yoki qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Auditoriya bilan ko'z aloqasini o'rnatishning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirmaslik zarur.

III Scaffolding. Til o'rganuvchilar bilan kontakt o'rnatish, axborot berishni yanada qulayroq qilish va ularga tilni o'zlashtirishda yordam berish uchun muhim bo'lgan – yuqorida qayd etilgan *tana tili va pedagogik nutq* kabi tushunchalardan tashqari yana bir texnika mavjud. Bu ingliz tilida Scaffolding deb ataladi. Bizning til-da leksik tarjimai qurilishda ishlatiladigan havozalar ma'nosini beradi. Scaffolding bino qurish uchun ishchilarning foydalanadigan platformalaridir. Bino qad ko'tarayotganda quruvchilarning harakatlanishi uchun ajratadigan ushbu yurish yo'laklari singari, o'qituvchilar til o'rganuvchilarga murakkab tushunchalarni tezroq tushunishlariga yordam berish uchun zarur ko'rsatmalar va tuzilmalarni taqdim etishlari kerak bo'ladi.

Scaffolding usulining asosiy vazifasi talabalarga sodda topshiriqlar orqali bosqichma-bosqich murakkab narsalarga o'tish imkoniyatini yaratishdir, bu ularga qiyinroq vazifalarni bajarish uchun oson tushunchalarni birlashtirishga imkon beradi. Xo'sh, scaffolding jarayoni qanday?

Til o'rganishda havozaning asosiy tamoyillaridan biri bu yangi yoki, ayniqsa qiyin vazifani tushunish uchun birinchi navbatda, vazifani bajarishda misol keltirib, ko'rsatib berish.

Ya'ni amalda vazifaning turli qismlarini ko'rsatish va keyin ularga qiyin vazifalarni o'zlarining bajarishlariga ruxsat berish ketma-ketligi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, birinchi bosqich, vazifa namunasini ko'rsatish hisoblanadi. O'zbek tilida murakkab bo'lgan ko'plab grammatik vaziyatlar bor. Talabalarga bosqichlarni ko'rsatib, o'qituvchi boshchiligidagi amalda qo'llash bo'lgan skafolding jarayonining ikkinchi qismiga o'tiladi. Bunda o'sha aniq ko'rsatmalar, namunalar, jarayonning har bir bosqichini takrorlash kabi usullardan foydalaniladi. O'qituvchi rahbarligida mashq qilgandan so'ng, talabalarga nihoyat topshiriqni mustaqil ravishda bajarish imkoniyatini berish mumkin. Quyida buni kengroq izohlaymiz.



Ot soʻz turkumining grammatik kategoriyalari oʻzbek tilining suyagi hisoblanadi. Zero, gap tuzishda soʻzlarning bir biriga bogʻlanishi ular orqali, xususan kelishik kategoriyasi orqali amalga oshadi. Oʻzbek tili bu masalada ingliz tilidan qiyinroq va rus tilidan osonroq. I Love You – jumlasini rus tiliga soʻzma-soʻz oʻgirilganda – я любовь ты; oʻzbek tilida esa – *men sevgi sen* shaklida namoyon boʻladi. Bu oʻrinda oʻzbek tili bosh boʻlaklarining pozitsiyasi ingliz va rus tilidan farqlanishi, moslashuv belgilarining ingliz tilida yoʻqligi dastlab til oʻrganuvchi uchun yangilik hisoblanadi va uni oʻqituvchi avval koʻrsatib berishi kerak boʻladi. Grammatik kategoriyalar tilning ichki qismlari boʻlib, pazl kataklari, yoki imoratning gʻishtlari kabi toʻgʻri qoʻyilishni talab etadi. Uni nafaqat toʻgʻri qoʻyishni oʻrgatish, balki imoratga uzoqdan nazar solishga koʻmaklashish ham kerak boʻladi: bu – skafolding texnikasi.

Baʼzan talabalarining oʻzlashtirishi yaxshi boʻlmasa, boshidan boshlash mumkin. Skafolding bir martalik harakat emas. Bu juda rekursiv, yaʼni orqaga qaytib-qaytib, takror va takror amalga oshirish bilan natijalanadigan usuldir. Talabalarga topshiriqlarni taqsimlagan holda, toki ular oʻzlarini bu ayni mavzuda erkin his qilmaguncha mashq qilish uchun vaqt berish orqali tilning mohiyatini, ichki jarayonlarini oʻzlashtirishga yordam berish mumkin.

Shunday qilib, oʻqituvchining til oʻrgatishida muayyan mezonlar borligi maʼlum boʻladi. Bu tana tili, oʻqituvchi nutqi va havozalar orqali talabalarga maʼlumotni yetkazish mahoratidir. Bu esa, fikr tiniq va tushunarli, til oʻrganish zavqli va shirin boʻlishi uchun zamin yaratadi. Oʻqituvchi esa qisman aktyor boʻlishi kerak, desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Xulosa

Bugungi kunda o'zbek tiliga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligini hisobga olgan holda uni boshqa millat vakiliga tilimizning go'zal taraflarini ko'rsatish, til ta'limni qulaylashtirish siyosat darajasiga ko'tarilar ekan, buning ustida ishlashni davr taqozo qilmoqda. Bunda o'qituvchining roli, til o'rganuvchi yoki o'zga tilli talabanning roli haqidagi muayyan nazariy va amaliy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, dars shakli, o'qitish uslubi mental va madaniy kompetentsiyalarga yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Shu ma'noda har qanday tajriba belgilangan maqsadni osonlashtiradi. Til o'rganish boshqa ta'limga nisbatan ommaviy va zamonaviy hisoblangani uchun, bunda xorijiy tajriba muhim rol o'ynashi tabiiy.

Umuman olganda, talabalarga fikrni tushuntirishda yordam beradigan usullar juda muhimdir. Bunda "yaqin rivojlanish doirasi" samarali natija beradi. Uni biz shirin zona deb atadik, ya'ni talabalar tushunadigan miqdorda ma'lumot berish doirasi o'qituvchining hududi hisoblanadi. Ma'lumotni I + 1 darajasida talabalar uchun juda oddiy yoki juda murakkab bo'lmagan tarzda taqdim etish buning asosidir.

Yana bir xulosalardan biri bu – tana tilidan foydalanish. Mazkur texnika yetkazilayotgan axborotni idrok etishda eng samaralisidir. Vizual harakatlar orqali talaba yangi yoki murakkab tushunchalarni anglashi, tushunishi mumkin.

Bundan tashqari "o'qituvchi nutqi" kabi mezon bilan tanishdik. Bu fikrni to'g'ri tushunishda eng ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, talabalarning tushunganlariga ishonch hosil qilish uchun ularning ko'zlariga qarash kerak bo'ladi.

Nihoyat, havoza: bu tushunchalarni oddiydan murakkabgacha bosqichma-bosqich kiritish g'oyasini ifodalovchi prinsip. Bunda talabalar ko'rsatilgan misollardan o'zlari mustaqil amaliyotga o'tishlari mumkin bo'ladi.

Tana tili, o'qituvchi nutqi va skafolding (havoza) – bularning barchasi tilni talabalarga to'g'ri darajada, to'g'ri joyda taqdim etishga yordam beradigan unsurlardir. Shunday qilib, ular ko'proq ixlosmand talabalarga ega bo'lishadi.

Xullas, «o'qituvchi nutqi», «skaffolding» va «tana tili» tushunchalari bilan tanishganimizdan so'ng, bularni butun faoliyatimizda uni shakllantirib borishimiz kerakligini anglab olish mumkin. Masalan, men hali ham o'qituvchi nutqimni yaxshilash va har kuni yangi usullarni o'rganish ustida ishlamoqdaman.

Adabiyotlar

- Azimova, Nigora. 2010 Uzbek: an elementary textbook. USA.
- Brown, H; Yorio, Carlos; Crymes, Ruth. 1977. DC: Teachers of English to Speakers of Other Languages, Washington, – P. 144–158.
- Ergasheva, Gulruxsor. 2020. O'zbekona. Muharrir. Toshkent. 100 bet.
- Ergasheva, Gulruxsor; Adilova, Saodat. 2021. O'zbekona. Muharrir. Toshkent. 301 bet.
- Krashen, Stephen. 1977. Some issues relating to the monitor model // Teaching and learning English as a Second Language: Trends in Research and Practice: On TESOL '77: Selected Papers from the Eleventh Annual Convention of Teachers of English to Speakers of Other Languages, Miami, Florida, April 26 – May 1.
- Mehrabian, Albert. 1981. Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes. – 2nd. – Belmont, CA: Wadsworth.
- Mehrabian, Albert. 1972. Nonverbal Communication. Chicago: Aldine-Atherton
- Muxitdinova, Xadicha. 2020. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'zga tilli guruhlarda). Toshkent.
- Rafiyev A., O'zturk Tunjay, Nuriddinova D. 1997. Chet elliklar uchun O'zbek tili – 1. Toshkent, "Silm.A.Ş" O'zbek-Turk Litseylari Bosh Mudirligi nashri.
- To'xliyev, B.; Shamsiyeva, M.; Ziyodova, T. 2006. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi asd-abiyot jamg'armasi nashriyoti, Toshkent: 192 b.
- Бакиева, Г.Х.; Караева, Б.Х.; Коршуноса, Е.Н.; Краева, И.А.; Тешабаева, Д.М.; Фролова, Г.М. 2012. Узбекский язык для стран СНГ: Учебник. Москва, ИПК МГЛУ «Рема».
- Выгодский, Л.С. 1999. Мышление и речь. Изд. 5, испр. Издательство 'Лабиринт', Москва, 352с. // <http://filosof.historic.ru/books/item/f00/s00/z0000763/index.shtml>
- Юлдашев, Р.А. 2015. Методика преподавания узбекского языка в школах с русским языком обучения: Монография. Ташкент: УЗНИИПН, 157 с.

Important aspects of pedagogy in teaching uzbek as a foreign language

Khurshida Kadirova¹

Abstract

One of the objectives of this article is to introduce specific experiences in teaching foreign languages in the teaching of Uzbek, an attempt to increase the effectiveness of the Uzbek language in other language groups, to improve the quality of lessons. It sets the following tasks: a) to compare national and foreign experience in education; b) Investigate factors related to teacher and lesson quality improvement; c) to study the possibilities of using foreign experience in teaching Uzbek as a foreign language; d) Analysis of psychological and methodological competencies in language teaching. Increasing the weight and quality of Uzbek language textbooks and manuals facilitates the learning of the language learner and clarifies his / her understanding. The level of application of the issues raised in the article is of practical importance. Since a methodological approach to language teaching is a necessary factor, it is important to put it into practice, both theoretically and practically.

Key words: *Uzbek language, national program, quality of education, three areas of pedagogy, three techniques of pedagogy, body language, teacher speech, scaffolding, air, field of close development, language education.*

References

- Azimova, Nigora. 2010. Uzbek: an elementary textbook. USA.
Brown, H; Yorio, Carlos; Crymes, Ruth. 1977. DC: Teachers of English to Speakers of Other Languages, Washington, – P. 144–158.
Ergasheva, Gulruxsor. 2020. O'zbekona. Muharrir. Toshkent. 100 bet.
Ergasheva, Gulruxsor; Adilova, Saodat. 2021. O'zbekona. Muharrir. Toshkent. 301 bet.
Krashen, Stephen. 1977. Some issues relating to the monitor model // Teaching and learning English as a Second Language: Trends in Research and Practice: On TESOL '77: Selected Papers from

¹*Kadirova Khurshida Batirovna* – Candidate of Philological Sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Associate Professor of Applied Philology, etc.

E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

For reference: Kadirova, Kh. 2022. «Important aspects of pedagogy in teaching Uzbek as a foreign language.» *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1 (5): 54-68.

the Eleventh Annual Convention of Teachers of English to Speakers of Other Languages, Miami, Florida, April 26 – May 1.

- Mehrabian, Albert. 1981. *Silent Messages: Implicit Communication of Emotions and Attitudes*. – 2nd. – Belmont, CA: Wadsworth.
- Mehrabian, Albert. 1972. *Nonverbal Communication*. Chicago: Aldine-Atherton.
- Muxitdinova, Xadicha. 2020. *O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'zga tilli guruhlarda)*. Toshkent.
- Rafiyev A., O'zturk Tunjay, Nuriddinova D. 1997. *Chet elliklar uchun O'zbek tili – 1*. Toshkent, "Silm.A.Ş" O'zbek-Turk Litseylari Bosh Mudirligi nashri.
- To'xliyev, B.; Shamsiyeva, M.; Ziyodova, T. 2006. *O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi asd- abiyot jamg'armasi nashriyoti*, Toshkent: 192 b.
- Bakieva, G.X.; Karaeva, B.X.; Korshunosa, Ye.N.; Kraeva, I.A.; Teshabaeva, D.M.; Frolova, G.M. 2012. *Uzbekskiy yazyk dlya stran SNG: Uchebnik*. Moskva, IPK MGLU «Rema».
- Выгодский, Л.С. 1999. *Мышление и речь*. Изд. 5, испр. Издательство 'Лабиринт', Москва, 352с. // <http://filosof.historic.ru/books/item/f00/s00/z0000763/index.shtml>
- Yuldashev, R.A. 2015. *Metodika prepodavaniya uzbekskogo yazyka v shkole s russkim yazykom obucheniya: Monografiya*. Tashkent: UzNIIPN, 157 s.

O'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning didaktik jihatlari

Dilafuz Xidoyatova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada ta'limda o'zga tilni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanishning ayrim didaktik aspektlari yoritilgan. O'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samarasi mavzusi asosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari asosida tahlillar keltirilgan. Bunda o'zga tilni o'qitishda interfaol metodlarning o'rni, ulardan to'g'ri foydalanishdagi muhim jihatlari va interfaol ta'limni tashkil etishdagi asosiy omillar sanab o'tiladi. O'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitish jarayonida o'qituvchilarning maslahatchi, fasilitator, kommunikator, boshqaruvchilik kabi ayrim vazifalari keltirilgan. O'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitish jarayonida bu vazifalarni to'g'ri va samarali bajarish tamoyillari, hamda ularni til o'rgatishda o'ziga xos didaktik jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: *interfaol metodlar, o'zga tilni o'rgatish, didaktik aspektlar.*

Kirish

Jahon ta'lim tizimida o'zga tilni o'qitish jarayoni samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar Carl Wieman Science Education Initiative (CWSEI) loyihasida (Britaniya Kolumbiyasi), mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda interfaol elektron o'qitish tizimidan (interactive E - learn) foydalanish bo'yicha tadqiqotlar Purdue Universityda (AQSh) va JCM International Management Engineering Instituteda (Xitoy xalq respublikasi) hamda interfaol ta'limni amalga oshirish bo'yicha tadqiqotlar BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD) kabi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida olib borilmoqda. Davlatimiz

¹Xidoyatova Dilafuz Abdugaffarovna – pedagogika bo'yicha falsafa doktori (Ph.D.), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Amaliy filologiya kafedrasi dotsenti.

E-pochta: hidoyatovadilafuz@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-3835-6577

Iqtibos uchun: Xidoyatova, D.A. 2022. "Ta'lim samaradorligini oshirishda interfaol jarayonning roli". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 69-77.

pedagogika sohasida ikkinchi tilni o'rgatish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha zamonaviy ta'lim modellaridan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabrda PF-6084-son Farmonida xorijliklar uchun o'zbek tilini o'rgatuvchi dasturlar yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va xorijiy oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o'quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, o'zbek tilini o'rgatishga doir ilmiy tadqiqotlar miqdorini oshirish kabi bir qancha vazifalar belgilandi.

Bizga ma'lumki xorijiy davlatlarda o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish borgan sayin ortib bormoqda. Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Chexiya, Yaponiya, Turkiya kabi davlat fuqarolari katta qiziqish bilan o'zbek tilini o'rganishayotganlari tajribalarda ko'rinyapti. Bu jarayonni yanada rivojlantirish, xalqaro miqyosda o'zbek tili nufuzini oshirish va uni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirishda, bu jarayonni samarali tashkil etishga bo'lgan tadqiqotlarni ko'lamini oshirish talab etilmoqda. Bu yo'nalishlardan biri esa, o'zga tilni o'rgatishda jahon tajribalarida eng yuqori natijalarni ko'rsatayotgan interfaol ta'lim modelidir. Interfaol ta'lim modelidan o'zbek tilini o'zga til sifatida o'qitish, interfaol metodlarning til o'rgatishdagi didaktik imkoniyatlaridan samarali foydalanish jarayonni samarasini oshishiga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan didaktik imkoniyatlarga ega ko'plab interfaol metodlar mavjud bo'lsa-da, biroq ular har doim ham o'tilayotgan o'quv predmeti yoki o'rganilayotgan mavzuga mos kelavermaydi. Buning ko'plab sabablari mavjud. Jumladan:

- nazariy ma'lumotlar va amaliy masalalarni yorituvchi manbalar yetarli darajada mavjud emas (aksariyat manbalarda sof nazariy masalalar yoki mohiyatini to'la anglash qiyin bo'lgan rasm, tasvir va sxemalarning berilishi, noaniq texnologiyaning tasvirlanishi o'quv material mohiyatining o'quvchilar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmashligiga olib keladi);

- aksariyat mualliflar amaliyotda o'zlari asoslagan tuzilmalarning tasvirlari yoki o'yinlarni taqdim etishsa-da, biroq ularning yosh, yetarli darajada kasbiy malakaga ega bo'lmagan o'qituvchilar foydalanishlari uchun qulay bo'lishiga erishishni o'z

oldilariga maqsad qilib qo'ymaydilar;

- turli sharoitlarda ham samarali foydalanish mumkin bo'lgan interfaol metodlar mazmunini yorituvchi manbalar, odatda, keng ommaga mo'ljallanmagan va kam adad (tiraj)da chop etilgan;
- ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda o'quvchilarning yosh davri, ularning fiziologik va psixologik xususiyatlari, o'quv sinfining holatini inobatga olishga e'tibor qaratilmaydi;
- sinf xonalarining holati va joylashishi o'yinni tashkil etish shartiga javob bermaydi.

Har bir fan o'qituvchisi o'quv predmetining ichki xususiyatlari, o'rganilayotgan mavzuning yo'nalishi, mohiyatiga mos keluvchi, shuningdek, mavzu mohiyatini to'laroq va aniqroq ochib berish imkoniyatiga ega interfaol metodlarni tanlashga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Interfaol metodlarni tanlash o'quvchilarga yetkazib berilishi kerak bo'lgan o'quv material va ta'lim maqsadiga bog'liq. Didaktik xarakterdagi interfaol metodlarni to'g'ri tanlay oladigan, ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llay oladigan o'qituvchining pedagogik mahorati yuqori bo'lishi bilan birga o'zbek tili o'qituvchisi o'z navbatida tajribali metodist ham sanaladi.

Xususan, o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil etish, ular o'rtasida o'zaro bahs-munozara va faol tortishuvlarni yuzaga keltirish, shuningdek, ularning nima uchun "tortishayotganliklari (bahslashayotganliklari)"ni tushunib yetishlari uchun interfaol metodlarning umumiy mohiyati to'g'risidagina ma'lumot berib qolmasdan, shu bilan birga uni tashkil etish qoidalari, shartlarini tushuntirishi, zarur o'rinlarda maslahat hamda ko'rsatmalarni berishi, ta'lim jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriluvchi vazifalarni alohida o'quvchilarning individual xarakteridan kelib chiqqan holda tushuntirishi va bosqichlar ketma-ketligini tasvirlashi darsning samarali bo'lishini ta'minlashini malaka oshirish kurslarida amaliyot orqali yetkazish kerak.

O'zga tilni o'rgatuvchi o'qituvchi, interfaol metodlardan foydalanishda o'quvchilarni jalb qilish, aniq vaqt (reglament)ni belgilash va unga rioya qilish, uzatilishi zarur bo'lgan axborotlar sonini inobatga olish va ularning muayyan ketma-ketlikda, izchil va tizimli uzatilishiga e'tiborni qaratishi lozim.

O'zga tilni o'rgatuvchi o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri – bu o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlarini mustahkamlash hamda amaliy ko'nikmalarini boyitishda pedagogik yordam

ko'rsatish, ya'ni maslahatlar berishdan iborat. Maslahatchi sifatida o'zga tilni o'rgatuvchi o'qituvchi quyidagi tamoyillarga amal qilishi kerak:

- darsni tashkil etish chog'ida ma'lum muammoga duch kelgan yoki kutilmaganda savol berish istagida bo'lgan ishtirokchiga e'tibor qaratish uchun vaqt ajratishi va buning uchun qulay vaziyatni tanlay olishi;

- zarur o'rinlarda o'quvchilarning faoliyati, xatti-harakatlaridan qoniqish hosil qilayotganligini bildirishi yoki ularni maqtashi;

- o'quvchilarining ehtiyojlarini aniqlay olishi, "nozik nuqtalari"ni fahmlashi yoki, aksincha, mavjud nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalaridan samarali foydalanishi maqsadga muvofiqdir;

- dars jarayonida o'quvchilar ma'lum qiyinchiliklarga duch kelganlarida, ulardagi ishonchsizlik, o'zini yo'qotib qo'yish va boshqa salbiy holatlar yuzaga kelishining oldini olishi;

- ta'limning muqobil shakllarini qo'llashga tayyor bo'lib turishi zarur.

O'qituvchining ikkinchi tashkilotchi sifatidagi vazifasi darsning barcha bosqichlarida: darsgacha, dars vaqtida va darsdan keyin ham namoyon bo'ladi. O'qituvchi tashkilotchi sifatida maqsadni qo'yish, qaror qabul qilish, rejalashtirish, dars jarayonini tashkil qilish, uning borishi va natijasini nazorat qilish, shuningdek, zarur bo'lganda dars mazmunini o'zgartirishda ham bevosita ishtirok etadi.

Darsning borishi o'qituvchidan barcha kichik guruhlar faoliyatini yo'naltirish, guruhlararo bahs-munozaralarni boshqarish, ularga zarur vaziyatlarda yordam ko'rsatish hamda ruhiy madad berish, ish mazmunini tahlil etilishini nazorat qilib borishni talab qiladi.

Bundan tashqari, o'qituvchi tashkilotchi sifatida dars tashkil etiluvchi xonalar va zarur anjomlarni ta'lim jarayoniga tayyorlash, shu bilan birga, yetarli miqdorda ish o'rinlari bo'lishini ta'minlashi lozim.

Barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirgach, o'qituvchi darsning samarali tashkil etilganligini aniqlashi hamda natijalarni tahlil etishi, shuningdek, anketa so'rovnomasini tarqatishi yoki qisqa savol-javoblar orqali o'quvchilarning taassurotlarini o'rganishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu harakat keyingi pedagogik faoliyat yo'nalishini belgilashga ham yordam beradi.

Interfaol metodlar asosida tashkil etiluvchi o'quv

mas'ulotlarini boshqarish boshqa mas'ulotlardan tubdan farq qiladi, shu sababli o'qituvchi ularning tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri uyushtirilishiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

O'qituvchining boshqaruvchi (tashkilotchi) sifatida kichik tadqiqot va innovatsion faoliyatni tashkil etish jarayonida qo'llanilishi rejalashtirilayotgan interfaol metodlar mohiyatidan to'la xabardorligi kifoya qilmay, shu bilan birga darsni tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtirish, o'quvchilar faoliyatini nazorat ostiga olish, turli tasodiflar yuzaga kelganligi va xatoliklarga yo'l qo'yilganligini tezda seza olish, muammoli vaziyatlarni to'g'ri boshqarish, shuningdek, dars davomida ma'lum tuzatishlarni kiritib borish layoqatiga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Uning dars bosqichlari xususiy maqsadlarini yaxshi bilishi esa darsning izchil, uzluksiz va bir maromda tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratadi.

Barcha o'qituvchilarga taalluqli bo'lgan ushbu vazifalardan tashqari, o'zga tilni o'rgatuvchi o'qituvchi aloqa o'rnatuvchi (kommunikator) sifatida ham ma'lum vazifalarni amalga oshiradi. Bunday vazifalar sirasida barcha o'quvchilar bilan birdek ta'limiy aloqani o'rnatish, fikrni mantiqan bayon etish, o'quvchilarni tinglay olish, mantiqiy izchillikka ega savollarni berish hamda o'quvchilarning savollariga qisqa, aniq, lo'nda javob bera olish, munozarani tashkillashtirish, o'quv xonasi (yoki auditoriya)da ijodiy muhitni hosil qilishi kabilar alohida o'rin tutadi.

Aloqa o'rnatuvchi sifatida o'zga tilni o'rgatuvchi o'qituvchi guruh ichida va guruhlararo muloqotni barcha o'quvchilarning faol ishtirok etishini yuzaga keltiribgina qolmay, shu bilan birga muloqot jarayonida o'quvchilar tomonidan ilgari surilgan fikrlarni izchil, to'g'ri ifodalanishini, o'quvchilarning yangi o'zlashtirilgan so'zlarni to'g'ri qo'llashi, ularning talaffuzi, dialogik suhbatlarda murojaat shakllari va ohangning to'g'ri qo'llanishi, o'quvchi nutqining ravonligiga alohida e'tibor qaratib turishi lozim.

O'quvchilar o'rtasida ta'limiy aloqani yuzaga keltirish murakkab jarayon bo'lib, bu jarayon o'zida bir qator psixologik jihatlarni namoyon etadi. Shu bois ta'lim jarayonida ularga ham alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Jumladan:

1) umumiy munozara vaqtida o'quvchilarning "sen", "u", "biz", "siz", "ular" kabi kishilik olmoshlarini emas, balki "men" olmoshini qo'llashlarini ta'minlash lozim (mas., "Biz bir oz hayajonlanyapmiz" emas, balki "Men bir oz hayajonlanyapman" tarzida qo'llash);

2) fikrni aniq bayon etish (masalan, munozara ishtirokchilarining xatti-harakatlarini baholashda uchinchi shaxs

shaklida emas, ikkinchi shaxs shaklida bevosita murojaat qilishlariga erishish. Masalan “Alisher nohaq” emas, balki “Alisher, mening fikrimcha, bu o‘rinda sen nohaqsan” deya to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish, birinchidan, fikrning aniqligini ta‘minlasa, ikkinchidan, qolgan o‘quvchilarning e‘tiborlari ham aniq holatga qaratilishiga olib keladi;

3) guruhlardagi barcha o‘quvchilarning birdek faol bo‘lishlariga erishish, ya‘ni, faqat o‘zbek tilini biladiganlar emas, o‘zbek tilida yaxshi gapira olmaydiganlarni ham gapirtirishga erishish.

O‘zga tilni o‘rgatuvchi o‘qituvchi fasilitator (nazoratchi) sifatida har bir o‘quvchining o‘quv faolligini oshirishga yordam berishi lozim. Bu o‘rinda uning yordami quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- o‘quvchilarga ochiq savollar berish orqali ularni yo‘naltirish;
- o‘quvchilarning savollariga qisqa, aniq javob qaytarish;
- o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatli, noaniq, muammoli bahslarni maqsadga qarab yo‘naltirish;

- ma‘lum masalalar bo‘yicha o‘quvchilarning yagona xulosaga kelishlariga ko‘maklashish;

- o‘quvchilar bermoqchi bo‘lgan ma‘lumot, axborotlarni ifodalashga, ya‘ni unga mos so‘zni topishga ko‘maklashishi;

- guruhlararo muloqat vaziyatlarida bir-biriga savol berish, javoblarni to‘ldirish shakllarini topishda o‘zbekona lutfning nozik, go‘zal shakllarini qo‘llashlariga yordam berish;

- o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zni topolmay to‘xtab qolgan vaziyatlarda ularga turtki berib yuborish kabi.

Bular ayni paytda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotdagi “iliqlik”ka olib keladi. O‘quvchida “himoyalaniish pozitsiyasi”ni hosil qilishga ehtiyoj yo‘qligi, o‘zaro yaqinlik va ishonch, samimiylik hislarini uyg‘otadi.

O‘zga tilni o‘rgatuvchi o‘qituvchi har bir o‘quvchiga alohida e‘tibor qarata olishga majbur. Ushbu e‘tibori uning his-tuyg‘ulari, pedagogik odobi va o‘zini tuta bilishi, shuningdek, ta‘lim jarayonida u bilan o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga kelgan munosabatda namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarning o‘y-kechinmalarini anglash, ularni tushunish, xatti-harakatlari va fikrlariga toqat qila olish, o‘zini ularning o‘rniga “qo‘yib ko‘rish” o‘zbek tili o‘qituvchisining kasbiy mahorati darajasini ham belgilab beradi. Kasbiy mahorat, ayniqsa, o‘quvchilarning fikrlarini tinglash, ularga nisbatan qiziqish va zarur vaziyatlarda

psixologik yordam ko'rsata olishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Xulosa

Umuman olganda, dars jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish hamda yaxlit, umumiy ta'lim jarayonini boshqarish o'zbek tili o'qituvchidan tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishni, alohida faollik ko'rsatishni, topqir, qat'iyatli bo'lishni talab etadi. Shu bilan birga u muayyan harakat tezligiga ega bo'lishi, ma'lum pozitsiyada tura olishi va o'quvchilarga birdek ta'sir ko'rsata olishi lozim.

O'zga tilni o'rgatish jarayonida o'qituvchi, so'zsiz, barcha o'quvchilarga bir xil munosabatda bo'lishi kerak. Zero, bu holat o'quvchilarning o'zga tilda mustaqil fikrini ayta olishga, o'zida ishonchni paydo bo'lishiga, o'zga tilda noto'g'ri gapirishda qo'rqmaslikka, shuningdek, insoniy qadr-qimmatini yuqori darajaga ko'tarilishini ta'minlaydi. O'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatishi, garchi yetarli darajada bo'lmas-da, ularning hayotiy tajribalarini hurmat qilishi, ular tomonidan qabul qilingan qarorlarga do'stona munosabat bildira olishi lozim.

O'zga tilni o'rgatuvchi o'qituvchilar o'rganilayotgan mavzu xususiyati va yo'nalishidan kelib chiqqan holda muayyan darsda foydalanish uchun interfaol metodlarni tanlash malakalarini hosil qilishga alohida e'tibor qaratish zarur nazariy va amaliy bilimlar berishda ijobiy natijalarni berishi ilmiy tadqiqot ishida kuzatildi va o'z isbotini topdi.

Adabiyotlar

- Xidoyatova, D.A. 2017. *Interfaol ta'lim modeli vositasida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni samaradorligini oshirish*: diss. falsafa. dok (PhD) 13.00.02.- Tashkent, – 198 b.
- Хидоятова, Д.А. 2017. Повышение эффективности процесса повышения квалификации преподавателей узбекского языка в школах с русским языком обучения по средством модели интерактивного обучения: дисс. док. наук. Ташкент.
- Хидоятова, Д.А. 2020. «Дидактические аспекты использования интерактивных приемов в обучении иностранному языку». Современная наука: актуальные вопросы: 165-168
- Хидоятова, Д.А. 2011. «Формирование у учителя умений и навыков использования интерактивных методов обучения (в условиях повышения квалификации)». Высшее

образование сегодня. №11, 2011; 59-63

Хидоятова Д.А. 2021 г. "Обучение узбекскому языку – актуальная проблема: на примере интерактивной модели обучения" Тенденций научных исследований и разработок (IJTSRD), ISSN: 2456-6470, октябрь Импакт-фактор 6.410. -P-1306-1309

Didactic aspects of using interactive methods in teaching uzbek as a foreign language

Dilafruz Xidoyatova¹

Abstract

This article discusses some of the didactic aspects of using interactive methods in teaching another language in education. The analysis is based on the results of experimental research on the effectiveness of the use of interactive methods in the teaching of Uzbek as a foreign language. It lists the role of interactive methods in teaching another language, the important aspects of their proper use, and the key factors in the organization of interactive learning. In the process of teaching Uzbek as a foreign language, some of the responsibilities of teachers are given, such as consultant, facilitator, communicator, manager. In the process of teaching Uzbek as a foreign language, the principles of correct and effective performance of these tasks, as well as their specific didactic aspects of language teaching are analyzed.

Key words: *interactive methods, teaching another language, didactic aspects.*

References

- Xidoyatova, D.A. 2017. Interfaol ta'lim modeli vositasida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni samaradorligini oshirish: diss. falsafa. dok (PhD) 13.00.02.- Tashkent, – 198 b.
- Xidoyatova, D.A. 2017. Povisheniye effektivnosti protsessa povыsheniya

¹*Khidoyatova Dilafruz Abdugaffarovna* - Doctor of Philosophy in Pedagogy (Ph.D.), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. Associate Professor of Applied Philology.

E-mail: hidoyatovadilafruz@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-3835-6577

For reference: Khidoyatova, D.A. 2022. «The role of the interactive process in increasing the effectiveness of education.» *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1(5): 69-77.

- kvalifikatsii prepodavateley uzbekskogo yazyka v shkolax s russkim yazykom obucheniya po sredstvom modeli interaktivnogo obucheniya: diss. dok. nauk. Tashkent.
- Xidoyatova, D.A. 2020. «Didakticheskiye aspekty ispol'zovaniya interaktivnykh priyemov v obuchenii inostrannomu yazyku». *Sovremennaya nauka: aktualnyye voprosy*: 165-168
- Xidoyatova, D.A. 2011. «Formirovaniye u uchitelya umeniy i navykov ispol'zovaniya interaktivnykh metodov obucheniya (v usloviyax povysheniya kvalifikatsii)». *Vyssheye obrazovaniye segodnya*. №11, 2011; 59-63
- Xidoyatova D.A. 2021. "Obucheniye uzbekskomu yazyku – aktualnaya problema: na primere interaktivnoy modeli obucheniya" *Tendentsiy nauchnykh issledovaniy i razrabotok (IJTSRD)*, ISSN: 2456-6470, oktyabr Impakt-faktor 6.410. -P-1306-1309

LINGVOKULTUROLOGIYA

Til – xalq ruhiyati va madaniyatini ifoda etuvchi yetakchi omil

Ilhom Xudoynazarov¹

Abstrakt

Ushbu maqolada tilning muayyan milliy madaniyat va milliy mentalitetning asosi ekanligi, aloqa vositasi sifatida madaniyatlararo hamkorlikda muhim o‘rin tutishi, millatni millat sifatida tanitadigan, uning borligini bildirib turadigan muhim unsurlardan biri – milliy ma’naviyat va milliy tafakkurning milliy til orqali yuzaga chiqishi, dunyo tillariga tegishli statistikalar, o‘zbek tili va uni umumjahon tillar doirasidagi qadriyatini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar borasida qisqacha so‘z yuritiladi.

Shuningdek, tilning xalq ruhiyati va madaniyatini ifodalovchi muhtasham hodisa ekanligi, uning ishtiroki va yordamisiz madaniyatni o‘rganishning imkoni yo‘qligi, til va madaniyat tushunchalarini bir-biridan ayro tasavvur etib bo‘lmasligi ilmiy mulohazalar hamda tahlillar orqali ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *til, mentalitet, madaniyatlararo hamkorlik, kompetentlik, Internet tili, kommunikatsiya, aloqa vositasi, ijtimoiy hodisa*

Kirish

Til – bu dunyoda har bir millatning avvalo, borligi, mavjudligi, qolaversa, xarakteri, qadriyatlari, urf-odat va an‘analarini aks ettirib turadigan muhim omillardan biri, ya‘ni u mavjudlik hodisasidir. U real voqelikni namoyon qiladi. Gumanitar fan tizimida metodologik o‘ringa ega ekani tilning o‘zi aks ettirgan voqelikni tahlil qila olishi, shu bilan birga reallikni mustaqil yaratishi bilan belgilanadi.

Bugun yer yuzida yetti mingga yaqin til mavjud bo‘lsa, ularning har biri muayyan milliy madaniyat va milliy mentalitetning

¹Xudoynazarov Ilhom O‘tkir o‘g‘li – O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “San‘atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasi 70212002 – “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi magistranti

E-pochta: i.khudoynazarov@yandex.ru

ORCID: 0000-0002-1919-4744

Iqtibos uchun: Xudoynazarov, I.O‘. 2022. “Til – xalq ruhiyati va madaniyatini ifoda etuvchi yetakchi omil”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 78-87.

asosidir. Ularning har biri mutlaqo o'ziga xos siru asrorlar mujassam bo'lgan bebaho boylik. Shuning uchun ham bu boylik sinoatlarini o'rganish, bu sinoatlarni bolalikdan, yoshlikdan egallash jamiyatda qadim davrlardan aql egalarini o'ylatgan. Yer yuzidagi eng ko'hna muassasalardan bo'lmish qadim Sharq bag'rida tavallud va kamol topgan.

Eramizdan oldingi uchinchi ming yillikning boshlarida, demakki, bundan besh ming yillar burun qadimgi Shumerda maktablar faoliyat ko'rsatgan va bu maktablarning ta'lim dasturlarida ikki asosiy tayanch mavjud edi. Ularning biri matematika, ikkinchisi esa ona tili hisoblangan. Ularning biri qorin qayg'usi ehtiyoji uchun, ikkinchisi – til ta'limi esa ruh, ya'ni qadr qayg'usi talabini qondirishga xizmat qilgan. Albatta, bugun ham shunday, maktabdir, oliy maktabdir, ona tili ta'limining bosh mo'ljali inson ruhiy, ma'naviy olami. Maqsad, avvalo, millat qiyofasi va ma'naviyatini salomat saqlashdan iborat.

“Tarixga nazar solsak, Buyuk Ipak Yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy, ilmiy madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi” [Mirziyoyev 2021, 464].

Asosiy qism

Tilning taraqqiyotida uning sohibi juda muhim o'rin tutadi. Ya'ni til o'z egasining ixtiyori, ehtiyoji va tafakkur talablaridan holi tarzda rivojlanishi, takomilga yetishishi mumkin emas. Tilshunos olim B.Mengliyev bilan bo'lgan 20.10.2019dagi kun.uz saytida e'lon qilingan suhbatda keltirilishicha, YUNESKO hisob-kitobiga ko'ra, mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o'zining “so'nggi sohibi”dan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga ko'ra, asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitadan til o'layotgani esa barchamizni sergaklantirishi kerak.

Turli hisob-kitoblarga ko'ra, bugungi kunda dunyoda 3 mingdan 7 mingtagacha til borligi e'tirof etiladi. 2005-yilda tuzilgan YUNESKO ro'yxati 6 912 ta tilni qamrab oladi. Bu tillardan 32,8 foizi (2 269 tasi) Osiyo va 30,3 foizi (2 092 tasi) Afrika qit'asiga to'g'ri keladi.

YUNESKOning 2017-yil 15-iyundagi xabariga ko'ra, o'lim

yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15 tasi Markaziy Osiyo mintaqasiga to'g'ri keladi. Jumladan, O'zbekistondagi Markaziy Osiyo arablari tili, Buxoro-Samarqand yahudiylari tili, Markaziy Osiyo lo'lilari (paryo) tilini keltirish mumkin. Qolgan tillarning 2 tasi Qozog'iston va Qirg'izistonda (dungan va oyrot tillari), bittasi Turkmanistonda (truxman tili), 9 tasi Tojikistonda (voxon, ishkomish, sanglich, roshorv, shug'on, bartang, rushon, yazg'ulob, yag'nob tillari).

Maktab amaliyotida ona tili ta'limi ham, xorijiy til ta'limi ham favqulodda muhim ahamiyatga molik. Faqat ona tili ta'limida maqsad tildan tafakkurga qarab borish bo'lsa, noqarindosh til ta'limida ta'lim mantig'i tafakkurdan tilga olib boradi. Mamlakatimizda turli millat vakillari bir davlat fuqarolari o'laroq istiqomat qiladilar. Yurtimizda shakllangan odil til siyosati bois bugun yetti tilda ta'lim olib borilmoqda.

Til shunchaki so'zlashish instrumenti emas, balki madaniyatlararo kompetentlikda yetakchi o'rin tutadigan aloqa vositasi, shuningdek, xalq ruhiyati va madaniyatini ifodalovchi muhtasham hodisadir. Uning ishtiroki va yordamisiz madaniyatni o'rganishning imkoni yo'q. Demak, til va madaniyat tushunchalarini bir-biridan ayro tasavvur etib ham bo'lmaydi. Yangilanayotgan O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida ham ona tilimizga e'tibor berish va uning Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning asosiy omillaridan biri deb hisoblanishida ham katta ijtimoiy ahamiyat borligi bizdan tilimizga e'tiborli bo'lishni talab etadi.

Bugungi tezkor jarayonda yoshlarning madaniy saviyasini oshirish masalasi yetakchi o'rinda turar ekan, avvalo ularni o'zga til madaniyati bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Negaki, madaniy saviya faqat milliy madaniyatni bilish, uni teran tafakkur qila olish darajasi bilan o'lchanmaydi, zamonaviy tendensiyalar talabidan kelib chiqib, bugunning odamidan dunyo xalqlari, o'zga millatlar madaniyati borasida ham atroflicha bilimga ega bo'lish ham talab etiladi.

Muayyan til madaniyati boshqa tillar madaniyatiga ta'sir ko'rsatib, pirovardida umumbashariy ahamiyat kasb etishi mumkin. Fikrimiz isboti o'laroq, bir misolni keltirmoqchimiz.

O'zbekiston Qahramoni, shoir Erkin Vohidovning "Inson" qasidasi [Vohidov 2001] Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilganligining 75 yilligiga bag'ishlangan "UN75" onlayn-tadbirda o'zbek, qozoq, turk, arab, ingliz, rus, italyan va tojik tillarida baralla yangradi. Bu degani o'zbek shoiri ilgari surgan umumbashariy

g'oyaga dunyoning muhim strategik minbaridan turib kuchli xayrixohlik bildirildi.

Agar ustoz Erkin Vohidovning ijodiy bisotida tanho shugina she'ri bo'lsa ham edi, u zotning pokiza ruhi baribir abadiyatga daxldor bo'lib qolaverardi. Zero bu muhtasham misralarni bitish uchun shoirimiz jahon mutafakkirlari zehniyatining necha buloqlaridan to'yib-to'yib simirgan, nechalab durdona asarlarning ma'no maxzanlaridan quvvat olgan va ularni ona tilimizga o'girib, butun o'zbek xalqining ham bahramand bo'lishiga hissa qo'shgan. Shoir zahmatlari tufayli o'zbek tiliga tarjima qilingan Gyotening "Faust" asarini ne baxtki, o'z ona tilimizda angladik. Til va madaniyat kesishuvida farazlab aytadigan bo'lsak, ma'lum ma'noda shoir boshqa tillar madaniyati bilan o'z tili madaniyatini uyg'unlashtira olgan.

Donishmand o'zbek shoirining aqlini, ko'nglini zirillatgan cho'ng falsafa bugun dunyoning turfa millat vakillari qalblarini hali hamon titratib turibdi. Orada necha avlod tug'ilib ulg'aydi, necha suvlar oqib o'tdi... Olam butkul o'zgardi, lekin shoh asar – "Inson" qasidasining qadri o'zgarmadi. Mag'zining to'qligi, mazmuniga singgan g'oyaning baquvvatligi tufayli qasida zamoni va makonini kengaytirib yashab kelmoqda. Ayniqsa, bugun bani bashar mana shunday kuchli mafkuraga tashna. Dunyoda kechayotgan g'alati voqealar to'fonida insoniyat asliyatini, mohiyatini yangidan eslab olishi bugun nihoyatda zarur. Insonga o'zlikni tanituvchi kuchli mafkura esa til orqali, tillarning o'zaro hamkorligi natijasida yaraladi va umumbashariy ahamiyat kasb etadi.

Zuvalasi pishiq she'rning umri go'zal qo'shiqqa ulanib ketadi. "Inson" qasidasini bolalik paytlarimiz ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayevning ijrosida eshitib ulg'ayganmiz. Necha avlodni ulg'aytirdi bu qo'shiq: otalarimiz ham, bolalarimiz ham uni hali-hanuz sevib eshitadi.

Sobit-ul sayyorada inson o'zing, inson o'zing,
Mulki olam ichra bir xoqon o'zing, sulton o'zing.
Sobit o'z ma'vosida, sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida karvon o'zing, sarbon o'zing.

Shams – dil taftingdadur, sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur, bog'bon o'zing, posbon o'zing.
Bu yorug' dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur, mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Bunda oq birla qaro, zulmat, ziyo, shohu gado,
Jang qilurlar doimo ul yon o'zing, bul yon o'zing.
Sen balo, ham mubtalo, xayr ila kin, rostu riyo,
Fitnagar olam aro fatton o'zing, qurbon o'zing.

Goh adolat bog'ida, piri adovat gohida,
O'z diling dargohida shayton o'zing, g'ilmon o'zing.
Xormisan yo gulmisan, tojdormisan yo qulmisan,
Cho'g'zmissan, bulbulmisan, nodon o'zing, xushxon o'zing.

Prezidentimiz taqdim etgan g'oya asosida "Inson" qasidasini umumbashariy qo'shiqqa aylantirish ishiga jamoa bo'lib kirishildi. She'rga Nodir Umarov kuy bastaladi, Aziz Xolmurodov kuyni sayqalladi, Dilmurod Matkarimov ovozlarni yozish ishiga mas'ul bo'ldi, Sanjarbek Matkarimov klip konsepsiyasini ishlab chiqdi.

Yozuvchilar uyushmasining ko'magi bilan she'r boshqa tillarga o'girildi. Keyin ushbu loyiha bo'yicha hamkorlik yuzasidan dunyo yulduzlari jalb qilindi. Shu o'rinda tilning, so'zning quvvati haqida yana bir gapni aytib o'tish o'rinli. Tashabbuskorlar turli mamlakatlarning mashhur xonandalari bilan bog'langanida, avvalboshda katta-katta gonorarlar talab qilishgan ekan, albatta, "yulduz" bo'lgach, bunga haqqi bor. Lekin ushbu loyiha mohiyatini anglab yetganidan keyin birin-sirin gonorardan voz kechishgan ekan. Ko'pchilik xorijlik xonandalar bu qo'shiqni aytish uchun pul olish ayb, deyishgan. Rossiyalik mashhur xonanda Oleg Gazmanov loyihadagi ishtiroki uchun oldindan olib bo'lgan gonorarini boyagi holatdan keyin O'zbekistonga darrov vakil yuborib, mablag'ini Toshkentdagi Mehribonlik uylaridan biriga o'tkazdirdi. Mana, insoniylik qanday yaraladi. Mana, So'zning qudrati, Ma'noning mohiyati...

Shu zaylda O'zbekiston tashabbusi bilan xalqaro projekt dunyoga keldi: "Inson" qasidasi o'zbek tilida Ozodbek Nazarbekov, qozoq tilida Omirqul Ayniyazov, arab tilida Ahmad Al-Xuraybiy, turkchada Rafet El-Roman, italyan tilida Alessandro Safina, ingliz tilida Dilafroz Rustamova, tojik tilida Zafar Abdualimov, rus tilida Oleg Gazmanov lafzidan yangradi. G'oya g'oyaga ulandi. Bu qo'shiq donishmand xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga ohangdosh mafkurasini tarannum etdi.

Shoirning ijodiy mahsuli bo'lgan qasida aynan til orqali jahon madaniyatining durdonasi sifatida baralla jarangladi. Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, demak, bugun har bir millat vakillari qatori, ayniqsa, ijodkor ziyolilar – shoir-yozuvchilar,

tarjimonlar, dramaturglar, ssenaristlar tilimiz sofligini saqlash, boyitish va uni umumjahon tillar doirasidagi qadriyatini oshirishga kamarbasta bo'lishi lozim.

Avar elining farzandi, XX asr jahon she'riyatining yorqin vakili Rasul Hamzatovning "Mening dog'istonim" asari Vatan tuyg'usi, millat ravnaqi, til madaniyati, urf-odatlar davomiyligi va sof muhabbat haqidagi eng ibratli kitoblardan biri bo'lgani uchun ham ko'plab kitobxonlarning bebaho boyligiga aylandi.

Shoir o'z asarida tilni o'rganmasdan she'r yozishga uringan odamni suzishni bilmasdan cho'milish uchun o'zini sarkash daryoga tashlagan telbaga o'xshatadi. Shoir nazdicha, ba'zan odamlar miyasida fikr bo'lgani uchun emas, shunchaki tili qichib turgani uchun gapiradi. Ba'zan odamlar yuragiga tuyg'ular sig'mayotgani uchun she'r yozishmaydi, balki... To'g'risi, ularning nima uchun she'r yozishayotganini ham tushuntirish qiyin... Bunday odamlar she'r boshlashdan avval dunyoda nimalar ro'y berayotganiga bir qur nazar tashlamaydi. Dunyo qanday musiqa, qo'shiq va ohanglarga yo'g'rilganini tushunishni istamaydi.

"Mening dog'istonim" kitobidan o'rin olgan til haqidagi yana bir ta'sirli hikoyani ko'pchilik yaxshi eslaydi. [Hamzatov 2011] Shoir o'zga yurtda adashgan o'g'ilning qismati haqida uning onasiga gapirib berganida, ona "Sen o'g'lim bilan qaysi tilda so'zlashding?" deb so'raydi. – Ajnabiy tilda suhbatlashdik, u avar tilini esdan chiqaribdi, deb javob beradi shoir. – Rasul, sen yanglishibsan, mening o'g'lim allaqachon o'lgan ekan. Agar mening o'g'lim hayot bo'lganida, avar onasi o'rgatgan tilni unutmagan bo'lardi, deydi ona.

Bugun ajnabiy tillarni o'rganishga berilib ketgan, xorij urflari va udumlariga mukkasidan ketgan yoshlar o'z tilida qanchalik savodxon? Kichik bir minbardan turib ular ona tilida tutilmasdan, ravon, fikrchan so'zlay oladimi? Afsuski, hammasi ham emas. O'zga tillarni o'zlashtirishga e'tiborimiz kuchaygan holda, o'z tilimizga befarqlik bilan munosabatda bo'lyapmiz. Ijtimoiy tarmoqda tilimizga shu qadar hurmatsizlik bilan qaraymizki, o'zaro yozishmalarimizdan xato jumlar o'rniga to'g'risini sanaganimiz durustroq. Negaki, to'g'ri so'zimizdan noto'g'risi ko'p. Buning ustiga har ikki jumlamiz birida chet el so'zlarini qistirib o'tamiz. Go'yoki, bu bizning "zamonaviy" ekanimizni belgilab beradi. O'z tili oldidagi mas'uliyatini chuqur anglagan shoir Muhammad Yusufning quyidagi misralari bizga ham ona tilimiz oldidagi burchimizni bot-bot eslatib turishi kerak:

Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,

Bu dunyoda tili yo'qda, dil yo'q derlar.

Bahoing-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim. [Muhammad Yusuf 2007,
351-352 betlar]

Milliy ma'naviyat, milliy madaniyat, milliy tafakkur millatni millat sifatida tanitadigan, uning borligini bildirib turadigan muhim unsurlardan biri bo'lsa-da, bularning bari milliy til orqali yuzaga chiqadi. Dunyo olimlarining faraziga tayanadigan bo'lsak, globallashuv sabab 600 ta til iste'moldan chiqib, yo'q bo'lib ketishi mumkin. Tillarning yo'qolishi esa, madaniyatlarning, tarixlarning, millat va mamlakatlarning yo'qolib ketishi demakdir. Shu o'rinda, sergak tortishimiz zarur. O'zbek tilimizni globallashib borayotgan davr muammolaridan qanchalik asray olyapmiz. Uning barhayot yashashi uchun nima karomatlar ko'rsatyapmiz?

Jadid ma'rifatparvarlari bu o'rinda ham bizga ibrat bo'la oladi. Abdulhamid Cho'lponning (1897–1938) "Tilimizning ishlanishi" nomli maqolasi yozilganiga va bosilganiga qariyb 100-yil to'ldi. Uni o'qiyturib, shu muddat ichida ona tilimizning boshidan kechirganlarini his qilib, ichingiz uziladi. Shoyadki, ushbu dilgir maqola bugunning millionlab tarmoqparastlari "til"ini sal bo'lsa-da isloh qilsa.

"Qog'ozlarining yaxshilig'i, harflarining ochig'lig'i, rasmlilik chiqib turishi jihatidan bu gazetalarimiz orasida birinchi o'runni tutadir. Xalqimiz nodon, kitob mutolaaga rag'batsiz. Uni shunga o'rgatmak va qiziqtirmoq uchun matbuotning ochiq, aniq, chiroyliq bosdirilishi juda ahamiyatlikdir. Turkiston, Buxoro va Xiva gazetolari bunga ayrim diqqat qilishlari kerak".¹

Xulosa

Biz bugungi murakkab davrda tilimiz himoyasi uchun maydonga chiqishimiz va uni asrab qolish uchun bosh qotirishimiz shart. Milliy tilimiz kelajagi haqida qancha ko'p o'ylab, shunga monand amaliy harakatlarimizni amalga oshirsak, milliy madaniyatimiz, milliy tariximizga ham bap-baravar munosabat qilgan bo'lamiz. Avvalo, tilning o'zi katta bir madaniyat bo'lsa, madaniyat ham o'z navbatida til orqali yuzaga chiqadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, biz milliy madaniyatimizni asramoqchi va bu bilan o'zbek xalqining

1 Maqola "Turkiston" gazetasining 1923-yil 11-aprel sonida "Q" imzosi bilan bosilgan, keyin "Adabiyot nadir" maqolalar to'plamida qayta chop etilgan.

borligini dunyoga bot-bot eslatib turmoqchi bo'lsak, birinchi o'rinda milliy tilimiz kelajagi, ravnaqi haqida qayg'urishimiz shart.

Avvalo, ona tilimizning o'z yozuviga, davlat tili maqomiga egaligi, 30 mln dan ortiq so'zlashuvchisi borligi kishini xursand qiladi. Biroq uning axborot kommunikatsiya texnologiyalari, Internet tili darajasiga ko'tarilmayotganini tan olishimiz kerak. Bu borada tegishli ilmiy tadqiqot muassasalari va markazlar konseptual xarakterdagi nazariy, amaliy va tashkiliy ishlarni muntazam olib borishlari lozim.

Ikkinchidan, xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borayotgan ekan, madaniyatni xorijiy til bilan birga o'rgatish amaliyotini yanada keng va chuqurroq qo'llay boshlash kerak.

Uchinchidan, jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti, ayniksa kelajagini uylasak, lotin alifbosini mustahkamlashimiz zarur. G'arb sivilizatsiyasi tomon harakat qilar ekanmiz, alifboni tanlashda buni albatta hisobga olishimiz shart. G'arb dunyosidagi taraqqiy etgan millatlarning deyarli barchasi lotin alifbosi asosidagi milliy alifbolar bilan ish yuritadi. Umuman, lotin alifbosi — dunyoda keng tarqalgan alifbo.

To'rtinchidan, til va madaniyat kombinatsiyasi to'g'ri yo'lga qo'yilishi kerak. Bu madaniyatlararo kompetentlikni faol yuzaga chiqarish, samarali va unumli muloqotni ta'minlashda asosiy o'rin tutadi.

Beshinchidan, so'zlashuvchilarning muhabbatiga egaligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliy yo'l bilan kurashishlari juda ham zarur.

Adabiyotlar

- Mirziyoyev, Sh.M. 2017. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 488 bet.
- Mirziyoyev, Sh.M. 2017. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 48 bet.
- Mirziyoyev, Sh.M. 2021. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 464 bet.
- Vohidov, E. 2001. Saylanma. 3-jild. Umrin daryosi. - Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
- Hamzatov, R. 2011. Mening Dog'istonim. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti,
- Muhammad, Yusuf. 2007. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. Toshkent: "Sharq", 351-352 bb.
- Mavrulov, A.A. va boshqalar. 2017. O'zbek xalqi san'atidagi transformatsiya

jarayonlarining tarixiy tahlili (XX-XXI asr boshlari). – Toshkent: “Lesson press” nashriyoti.

Nishonboyeva, Q. 2017. Mustaqillik va madaniyat rivoji. – Toshkent: “Sano-standart” nashriyoti.

Language is a main factor which expresses the spirit and culture of the people

Ilkhom Khudoynazarov¹

Abstract

This article discusses the importance of language as the basis of a particular national culture and mentality, the role of intercultural cooperation as a means of communication, the emergence of national spirituality and national thinking through the national language, statistics on world languages, there is a brief discussion of the Uzbek language and its suggestions and recommendations for enhancing its value in the world of languages.

It has also been revealed through scientific considerations and analysis that language is a magnificent phenomenon that reflects the psyche and culture of a people, that it is impossible to study culture without its participation and assistance, and that the concepts of language and culture are inseparable.

Key words: *language, mentality, intercultural cooperation, competence, Internet language, communication, means of communication, social phenomenon*

References

Mirziyoyev, Sh.M. 2017. We will build our great future together with our brave and noble people. - Tashkent: Uzbekistan Publishing House, 488 pages.

Mirziyoyev, Sh.M. 2017. The rule of law and the protection of human interests are the key to the country's development and the well-being of the people. - Tashkent: Uzbekistan Publishing House, 48 pages.

Mirziyoyev, Sh.M. 2021. New Uzbekistan Strategy. - Tashkent: Uzbekistan

¹*Khudoynazarov Ilkhom Utkir ugli* – The Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Department of Art and Cultural Studies 70212002 - Master of Culture

E-mail: i.khudoynazarov@yandex.ru

ORCID: 0000-0002-1919-4744

For reference: Khudoynazarov I.U. 2022. «Language is a main factor which expresses the spirit and culture of the people.» *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1(5): 78-87.

Publishing House, 464 pages.

Vokhidov, E. 2001. Selection. Volume 3 The river of my life. - Tashkent: Editor-in-Chief of Sharq Publishing and Printing Joint-Stock Company.

Khamzatov, R. 2011. My Dagestan. - Tashkent: Tafakkur Publishing House.

Mukhammad, Yusuf. 2007. Selection: Poems. Epics. Memories. - Tashkent: "Sharq", pp. 351-352.

Mavrulov, A.A. and others. 2017. Historical analysis of the processes of transformation in the art of the Uzbek people (XX-XXI centuries). - Tashkent: Lesson Press Publishing House.

Nishonbaeva, K. 2017. Independence and cultural development. - Tashkent: Sano-Standard Publishing House.

TABIY TILNI QAYTA ISHLASH (NLP)

Morfologik analizatorni yaratish usullari

Botir Elov¹

Shahlo Hamroyeva²

Dilrabo Elova³

Abstrakt

Morfologik tahlil jarayoni imloni tuzatish vositalari, parserlar, mashina tarjimasini tizimlari va elektron lug'atlar kabi tabiiy tilni qayta ishlash tizimlarining muhim tarkibiy qismidir. Ushbu maqolada matn analizatori bosqichlari, morfologik analizator va morfologik generator yaratish usullari tavsiflangan. Morfologik analizatorni yaratishda Python tilidagi NLTK paketi vositalaridan foydalanish yo'llari, dasturiy kodlarning namunalari keltrilgan. Shuningdek, morfologik tahlil jarayoni boshqichlari (*fleksiya, hosila, affikspidlarni aniqlash, birikma shakllari*) asosida morfologik analizator sturkturasi va arxitekturasini taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: *Tabiiy tilni qayta ishlash, NLP, Python, morfologik analizator, token, lemmatizatsiya, stemming, morfologik generator, qidiruv tizimi, stemming algoritmi, PorterStemmer.*

Kirish

Morfologiya – morfema vositasida so'zlarning grammatik ma'nolarini o'rganuvchi bo'lim. *Morfema* ma'noli qismlarga bo'lin-

¹*Elov Botir Boltayevich* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasini mudiri, texnika fanlari bo'yicha PhD

E-pochta: elov@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5032-6648

²*Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Amaliy filologiya kafedrasini filologiya fanlari doktori (DSc)

E-pochta: shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-5429-4708

³*Elova Dilrabo Qudratilloevna* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Amaliy filologiya kafedrasini o'qituvchisi

E-pochta: elovadilrabo@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2329-1811

Iqtibos uchun: Elov, B.B., Hamroyeva, Sh.M., Elova, D.Q. 2022. "Morfologik analizatorni yaratish usullari". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 88-108.

maydigan tilning eng kichik birligidir. Ushbu maqolada ingliz tilidan tashqari tillar uchun stemming va lemmatizatsiya, stemmer va lemmatizator, mashinali o'rganish vositalari, qidiruv tizimlaridan foydalangan holda **morfologik analizator** va **morfologik generator** yaratish masalasi tahlil qilinadi.

Bugungi kunda jahonda bir qator olimlar morfologik analizatorini yaratish ustida ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, Adnan Öztürel, Tolga Kayadelen va Isin Demirsahin turk tili morfologiyasining keng qamrovli modelini va uni amalga oshiradigan ochiq manbali morfologik analizatorini taqdim etgan [Öztürel, Kayadelen, Demirşahin 2019]. Ushbu model turk tili morfologiyasi, sintaksisining nozik jihatlarini qamrab olgan, undan til modelini ishlab chiqishda yo'l-yo'riq sifatida foydalanish mumkin. Model turk tili morfotaktikasini OpenFst yordamida chekli holat transduserlari va morf fonemik jarayonlarni Thrax grammatikalari sifatida amalga oshiradi. Arab tilshunoslari Y.Jaafar va K.Bouzoubaa tomonidan arab morfologik analizatorlaridan sintaktik tahlil dasturlari, qidiruv tizimlari va mashina tarjimai tizimlarida foydalanish usullari keltirilgan.

Tabiiy tilni tushunish (Natural Language baholashga bag'ishlangan arab tili korpusining birinchi versiyasi yaratilgan [Jabbar, Iqbal, Akhunzada, Abbas 2018]. G.Szabó, L.Kovács tomonidan venger tili uchun eng keng tarqalgan va eng ilg'or to'rtta morfologik analizator (*Hunmorf-Okamorf*, *Hunmorf-Foma*, *Humor* va *Hunspell*) tahlil qilingan, taqqoslangan. Ular analizatorlarning lemmatizatsiya xususiyatlari o'rniga Abstraktning token tizimlari qiyoslangan [Szabó, Kovács 2018].

Jahon kompyuter lingvistikasida tabiiy tilga ishlov berish muammolari A.Keyler, K.V.Linden, N.Vard [Daniel, Jurafsky, James, Martin 2000], M.A.Mohri [Mohri] tomonidan yoritildi. Matnga avtomatik ishlov berish texnologiya va vositalari V.Axo Alfred, S.Lam Monika, S.Ravi, D.Ulman Djeffri [Ахо Альфред, Лам Моника, Сети Рави, Ульман Джеффри 2008], morfologik tahlilning nazariy asoslari S.Yu.Toldova, AA.Bonch-Osmolovskaya [Толдова, Бонч-Осмоловская 2011], T.Sadikov [Садыков, Кочконбаева 2018.] ishlarida tavsiflandi. Rus kompyuter lingvistikasida O.V.Dereza, D.A.Kayutenko, A.S.Fenogenova, M.Hakimovning morfologik analizator, uning umumiy tavsifi, ishlash prinsiplari, tilga oid grammatik kategoriya, dastur uchun lingvistik modullar tavsifi haqidagi ishlarini ta'kidlash o'rinli.

Morfoanaliz xususiyatlari D.Rudolf [Rodolfe 2008],

morfoanalizning amaliy ahamiyati A.Ermakov [Ермаков], matnga avtomatik morfologik va sintaktik ishlov berish modeli va dasturlari I.M.Nojov [Ножов 2003] tomonidan o'rganilgan.

Turkiy kompyuter lingvistikasida tabiiy tilning kompyuter ishlovi, jumladan, morfoanalizator tuzish masalalari atroflicha tadqiq etildi. Bunday ishlar sirasiga A.V.Dibo, A.V.Sheymovich [Дыбо, Шеймович 2014], J.Suleymanov [Сулейманов, Гатиатуллин 1996], A.R.Gatiatullin, A.M.Bashirov [Сулейманов, Гильмуллин, Гатауллин 2017], P.V.Jeltov [Желтов 2017], N.A.Israilova, P.S.Bakasova [Исраилова, Бакасова 2017], N.A.Leontyev [Леонтьев 2018], V.V.Kukanova, A.Yu.Kadjiev [Куканова, Каджиев 2014] larning morfologik nalizator tuzish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarini kiritish mumkin. Turkiy tillar morfologik tahlil tizimi hamda ularning modellari tavsifi, tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'lamining kengligi ko'rsatadi. O'zbek tilidagi otlarni avtomatik tahlil qilish [Orxun 2018], so'z yasalishining formal modellari [Турсунов 2018] haqida qator maqolalar nashr etilgan. O'zbek tilida ot va sifat so'z turkumi morfologik analizini avtomatlashtirishning dasturiy tomonlari o'rganilgan [Болтаев, Ибрагимов 1992].

1. NLPni ikkita asosiy komponentga ajratish Understanding, NLU).

2. Tabiiy tini generatsiya qilish (Natural Language Generation, NLG).

NLP vazifalarini bajarishda talab etiladigan qadamlar ko'rib chiqiladi. Tabiiy tilning **manbaya nutq (tovush)** yoki **matn** bo'lishi mumkin. Matnni qayta ishlash bosqichlari 1-rasmda keltirilgan:



1-rasm. Matn analizatori bosqichlari

O'zbek kompyuter lingvistikasi sohasida haligacha **morfofologik analizator** va **morfologik generator** yaratilmagan. Ushbu maqolada jahon tajribasidan kelib chiqqan holda ushbu masalali hal qilish usullarini ko'rib chiqamiz.

Morfologik analizator yaratishda quyidagilar tushunchalarni

o'rganish maqsadga muvofiq:

- 1) morfologik birliklar;
- 2) stemmer;
- 3) lemmatizatsiya;
- 4) o'zbek tilida stemmerni ishlab chiqish;
- 5) morfologik analizator;
- 6) morfologik generator;
- 7) qidiruv tizimini ishlab chiqish.

MORFOLOGIK BIRLIKLAR

Morfema tilning eng kichik ma'noli qismidir. Morfema ikki turga ajratiladi: **o'zak** morfema, qo'shimcha morfema (**affiks**) (rus.: суффиксы, префиксы, инфиксы и циркумфиксы). O'zaklar erkin morfemalar deb ham yuritiladi, chunki ulardan gaplarda affiks (**qo'shimcha**) qo'shmasdan ham foydalanish mumkin. Affikslar (**qo'shimcha**) tilda alohida qo'llanilmaydi. Chunki ular mustaqil shaklda lug'aviy ma'no anglatmaydi va doimo mustaqil morfemalar bilan birga mavjud bo'ladi. Ingliz tilidagi **unbelievable** so'zini ko'rib chiqamiz. Bu yerda **believe** o'zak yoki erkin morfemadir. U mustaqil ravishda ma'no anglatadi; **un** va **able** morfemalari *affiks (qo'shimcha)* yoki *bog'langan morfemalardir*. Ushbu morfemalar mustaqil shaklda mavjud bo'lolmaydi, ma'no anglatmaydi, ular o'zak bilan birga ishlatiladi [Gökçe 2014; Ruppenhofer, Steiner, Wiegand 2017]. O'zbek tilida *vatandoshlarimiz* so'zi **vatan** (asos)+**dosh** (yasovchi)+**lar** (ko'plik)+**imiz** (egalik) tarzida farqlanadi.

Tabiiy tillar grammatik shakl hosil qilishiga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

amorf tillar (isolating languages) – maye xitoy, bamana, anam, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari xalqlarining talay tillari [Minegishi 2011];

agglyutinativ tillar (agglutinative languages) – turkiy, bantu, mo'g'ul, fin-ugor tillari [Gökçe 2014; Pan, Li, Yang, Dong 2020];

inflektiv tillar (inflecting languages) – hind-yevropa (lotin tili va b.) va som tillari *oilalari* [Hakkani-Tür, Oflazer, Tur, 2002];

polisintetik tillar – Shimoliy Amerika *indeyslari tillari* [Kelly, Wigglesworth, Nordlinger, Blythe 2014].

Amorf tillar. Bu tillarning lug'at tarkibi, asosan, bir bo'g'inli o'zaklardan iborat bo'lib, ularda *turlanish*, *tuslanish* xususiyatlari yo'q. Shu bois ushbu tillarda so'z yasovchi affikslar, yordamchi so'zlar vazifasini bajaruvchi yuklamalargina mavjud. Amorf tillarda so'zlar faqat mustaqil morfemalardan iborat bo'ladi; ular **zamon**

(o'tgan, hozirgi va kelajak) va **son** (birlik yoki ko'plik) ma'lumotlarini o'z ichiga olmaydi.

1. **Agglyutinativ tillar.** Agglyutinativ tillarda so'zlar o'zak va unga birikib keladigan qo'shimchalardan iborat bo'ladi; so'zning morfologik tarkibi (o'zak va qo'shimcha) aniq ajralib turadi. Bunda har bir qo'shimcha alohida ma'no, vazifa ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida yasama so'zlar va so'z shakllari asosga muayyan izchillik bilan qo'shimchalar qo'shish orqali hosil qilinadi. Bunda har bir qo'shimchanning o'z grammatik ma'nosi mavjud: **terimchilarimizga (ter-im-chi-lar-imiz-ga)**. Agglyutinativ tillarda murakkab ma'lumotni yetkazish uchun o'zak so'zlarning birikishi natijasida hosil qilinadigan so'zlardan foydalaniladi.

2. **Flektiv tillar** – qo'shimchalarning o'zak bilan birikib, unga singib ketishi bilan tavsiflanadi. Bunday tillarda grammatik ma'nolar fleksiya yo'li bilan ifodalanadi: mas., arab tilida kitob (birlik) – kutub (ko'plik). Rus tilida друг (birlik) – друзья (ko'plik). Flektiv tillarga hind-yevropa va som tillari oilalari kiradi. Flektiv tillar sintetik va analitik tillarga ajratiladi. Sintetik tillarda grammatik ma'nolar (gapda so'zlarning o'zaro munosabati) shakl yasovchi qo'shimchalar vositasida ifodalanadi (mas., rus, nemis tillari). Analitik tillarda esa grammatik ma'nolar so'z shakllari (shakl yasovchi qo'shimchalar) vositasida emas, balki yordamchi so'zlar, so'z tartibi, ohang yordamida ifodalanadi (mas., ingliz, fransuz, ispan tillari). Flektiv tillarda so'zlar sodda birliklarga bo'lingan bo'lib, bu sodda birliklarning barchasi turli xil ma'nolarni namoyon qiladi.

3. **Polisintetik tillar** – asosiy nutq birligi so'z-gapdir. Tasnif etilgan tillar orasiga qat'iy chegara qo'yib bo'lmaydi, chunki bir tilda uchraydigan ayrim til hodisalari boshqalarida ham uchrab qolishi mumkin. Masalan, Okeaniya tillarini ham amorf tillar, ham agglyutinativ tillar sifatida tavsiflash mumkin [Кузнецов 2010].


Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi dunyo tillarini muayyan morfologik xususiyatlariga ko'ra guruhlash, ularning umumiy chizmasini yaratish ahamiyatli [Bareket, Tsarfaty 2021; Ledeneva, Sidorov, 2010; Pirkola 2001].

Morfologik jarayonlar quyidagi boshqichlarga bo'linadi [Jayan, Rajendran 2011]:

- 1) *fleksiya (inflection);*
- 2) *hosila (derivation);*
- 3) *yarim affikslarni aniqlash (semiaffixes);*

- 4) *birikma shakllari (combining forms)*;
- 5) *klitizatsiya (cliticization)*.

Shu bosqich asosida o'zbek tili morfologik analizatorining ishlash boshqichi strukturasi quyidagi 2-rasmda keltirilgan:



2-rasm. Morfologik analizator sturkturasi

Infleksiya bosqichida so'z *shaxs, son, zamon, jins* va boshqa grammatik kategoriyalarni ifodalovchi shaklga aylantiriladi. Ushbu bosqichda leksemaning sintaktik kategoriyasi o'zgarishsiz qoladi.

Derivatsion bosqichida so'zning sintaktik kategoriyasi o'zgaradi. Yarimaffikslarni aniqlash bosqichida qo'shma so'zlar, qisqartma shaklida morfemalar hosil qilinadi. Masalan: *noteworthy, antisocial, anticlockwise* va hokazo.

Stemmer. Stemmatizatsiya jarayonida so'zdan qo'shimchalarni olib tashlash orqali so'z o'zagini aniqlash amalga oshiriladi [Aslan, Gunal, Dincer 2018; Rifano, Fauzan, Makhi, Nadya, Nasikin, Putra, 2020; Yayla, Diyar Demirkol, Alqaraleh 2021]. Masalan, **tabiatdan** so'zi quyidagicha tahlil qilinadi: **[tabiat]** - dan (*Kelishik qo'shimchalari* \in *Sintaktik shakl yasovchi*)


Qidiruv tizimlari (Google, Yahoo, Yandex) ma'lumot qidirishning aniqligini oshirish maqsadida asosan o'zakni aniqlash va ularni indekslangan so'zlar sifatida saqlashda **stemming**dan foydalaniladi. Qidiruv tizimlari bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlarni sinonimlar deb ataydi va bu so'rov natijalarni aniqroq amalga oshirishning bir turi bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda ko'plab morfoanalizatorlar Martin Porter tomonidan ishlab chiqilgan *stemming algoritmidan* foydalanmoqda. Ushbu algoritm asosan ingliz tilidagi so'zlarda mavjud bo'lgan sufikslarni almashtirish va tahlil qilish uchun mo'ljallangan. NLTK paketida stemmingni amalga oshirish uchun **PorterStemmer** sinfining nusxasini yaratishimiz va keyin **stem()** metodini chaqirish orqali stemmingni amalga oshirishimiz mumkin (3-rasm). **NLTK**da PorterStemmer sinfidan foydalanib, stemming jarayonini ko'rib chiqamiz [Deepti Chopra, Jacob Perkins, Nitin Hardeniya 2016; Orhun, Tantug, Adali 2009]:

```
import nltk
from nltk.stem import PorterStemmer
stemmerporter = PorterStemmer()
print(stemmerporter.stem('removing'))
print(stemmerporter.stem('happies'))
```

remov
happi

PorterStemmer sinfi ingliz tilidagi ko'plab o'zaklar va so'z shakllari haqida ma'lumotga ega. O'zaklarni aniqlash jarayoni bir nechta bosqichdan iborat: so'zni *qisqaroq so'zga* yoki *o'zakka o'xshash ma'noga ega shaklga* aylantiradi. Stemmer I interfeysi **stem()** metodini aniqlaydi va barcha stemmerlar Stemmer I interfeysidan namuna qilib olingan [Deepti Chopra, Jacob Perkins, Nitin Hardeniya 2016].



3-rasm. NLTK paketidagi stemming usullari

Lancaster stemming algoritmi deb nomlanuvchi yana bir

stemming algoritmi Lankaster universitetida ishlab chiqilgan. PorterStemmer sinfiga o'xshab, LancasterStemmer sinfi ham **NLTK**da Lancaster stemmingni amalga oshirish uchun ishlatiladi. Biroq ikkita algoritm o'rtasidagi asosiy farq shundaki, Lancaster stemming Porter Stemming bilan solishtirganda turli xil xususiyatlarning ko'proq so'zlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

```
from nltk.stem import LancasterStemmer
stemmerlan=LancasterStemmer()
print(stemmerlan.stem('removing'))
print(stemmerlan.stem('happies'))
```

```
remov
happy
```

Biz **RegexpStemmer**dan foydalanib NLTKda o'z stemmerimizni ham qurishimiz mumkin. U satrni qabul qilish va moslik topilganda so'zning prefiksi yoki qo'shimchasini olib tashlash orqali ishlaydi. NLTKda RegexpStemmerdan foydalanib, stemming misolini ko'rib chiqamiz:

```
import nltk
from nltk.stem import RegexpStemmer
stemmerregex=RegexpStemmer('ing')
print(stemmerregex.stem('removing'))
print(stemmerregex.stem('happiness'))
print(stemmerregex.stem('pairing'))
```

```
remov
happiness
pair
```

Biz **RegexpStemmer**dan PorterStemmer va LancasterStemmer yordamida o'zakni aniqlash mumkin bo'lmagan hollarda foydalanishimiz mumkin. **SnowballStemmer** ingliz tilidan tashqari **13** tilda stemmingni bajarish uchun ishlatiladi. SnowballStemmer yordamida stemmingni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, stemming bajarilishi kerak bo'lgan *tilni* ko'rsatish kerak. Keyin **stem()** metodidan foydalanib, stemming amalga oshiriladi. SnowballStemmer yordamida NLTKda *ispan* va *fransuz* tillarida stemming jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

```
import nltk
from nltk.stem import SnowballStemmer
print(" ".join(SnowballStemmer.languages)) # qaysi tillar
qo'llab-quvvatlanishini ko'rish
```

```
spanishstemmer=SnowballStemmer('spanish') # tilni tan-  
lash
```

```
print(spanishstemmer.stem('comiendo')) # so'z stemmingi  
frenchstemmer=SnowballStemmer('french') # tilni tanlash  
print(frenchstemmer.stem('manger')) # so'z stemmingi
```

NLTKda mavjud bo'lgan quyidagi kodni ko'rib chiqamiz, bu bizga stemmingni amalga oshirish imkonini beradi:

```
Class StemmerI(object):
```

```
"""
```

Tokenlardan morfologik affikslarni olib tashlashga yordam beradigan interfeys bo'lib, jarayon stemming deb nomlanadi.

```
"""
```

```
def stem(self, token):
```

```
"""
```

Token dan affikslarni olib tashlash va o'zakni qaytarish.

```
"""
```

```
raise NotImplementedError()
```

Bir nechta stemmerlar yordamida stemmingni amalga oshirish uchun ishlatiladigan kodni ko'rib chiqamiz:

```
import nltk
```

```
from nltk.stem.porter import PorterStemmer
```

```
from nltk.stem.lancaster import LancasterStemmer
```

```
from nltk.stem import SnowballStemmer
```

```
def obtain_tokens():
```

```
text_file = open("D:/Examples/Examples.txt", "r")
```

```
stem = text_file.read()
```

```
text_file.close()
```

```
tok = nltk.word_tokenize(stem)
```

```
return tok
```

```
def stemming(filtered):
```

```
stem=[]
```

```
for x in filtered:
```

```
    stem.append(PorterStemmer().stem(x))
```

```
return stem
```

```
tok=obtain_tokens()
```

```
print("tokens is %s")
```

```
stem_tokens= stemming(tok)
```

```
print(stem_tokens)
```



```
print("After stemming is %s")
res=dict(zip(tok,stem_tokens))
print(res)
```

Lemmatizatsiya. Lemmatizatsiya – soʻzshaklning bosh (leksema koʻrinishini) shaklini aniqlash jarayoni. Lemmatizatsiyadan keyin hosil boʻlgan soʻz muhim ahamiyat kasb etadi. *morphy()* metodi orqali **WordNetLemmatizer**da lemmatizatsiya jarayoni amalga oshiriladi. Kiritilgan soʻz WordNetda topilmasa, oʻzgarishsiz qoladi. *pos* argumentda kiritilgan soʻzning soʻz turkumidagi qismini hosil qilinadi. NLTKda lemmatizatsiya jarayonini koʻrib chiqamiz [36; 38-40]:

```
import nltk
from nltk.stem import WordNetLemmatizer
lemmatizer_output=WordNetLemmatizer()
print(lemmatizer_output.lemmatize('working'))
print(lemmatizer_output.lemmatize('working',pos='v'))
print(lemmatizer_output.lemmatize('works'))
```

WordNetLemmatizer kutubxonasi **WordNet** korpusi deb ataladigan axborot tizimi (ontologiya)dan foydalanib, *morphy()* metodi orqali lemmani hosil qiladi. Agar lemma hosil qilinmasa, soʻz boshlangʻich (asl) shaklda qaytariladi. Masalan, **works** uchun qaytarilgan lemma birlik shakli: **work**. Oʻzbek tilida **kitoblar** soʻzining lemmasi stemi **kitab** boʻladi. Quyidagi dastur kodida stemming va lemmatizatsiya jarayonlari oʻrtasidagi farq koʻrsatadigan:

```
import nltk
from nltk.stem import PorterStemmer
stemmer_output=PorterStemmer()
print(stemmer_output.stem('happiness'))

from nltk.stem import WordNetLemmatizer
lemmatizer_output=WordNetLemmatizer()
print(lemmatizer_output.lemmatize('happiness'))
```

```
happi
happiness
```

Oldingi kodda **happiness** stemming jarayoni natijasida **happi** ga aylandi. Lemmatizatsiya **happiness** soʻzining oʻzagini topa olmaydi. Shuning uchun u **happiness** soʻzini qaytaradi. Oʻzbek tilida stemmatizatsiya jarayoni nisbatan oson kechadi, chunki oʻzbek tilida lemmalar koʻpincha stemga mos keladi. Ammo oʻzbek tilida ham

fleksiya holatlari uchurab turadi. Masalan: *yutug'ı, so'rogim* kabi so'zlarda o'zak *yutug', so'rog'* emas, balki *yutuq, so'roq* shaklida bo'ladi. Bunday holatlarda stemni topishning yuqoridagi kabi usulidan foydalaniladi.

Polyglot – tokenlardan morfemalarni aniqlash uchun ishlatiladigan *morfessor modellari* deb ataladigan modellarni taqdim etish uchun ishlatiladigan dasturiy ta'minot [Al-Rfou, Perozzi, Skiena 2013; Thanaki 2017]. **Morpho** loyihasining maqsadi ma'lumotlarga qayta ishlash uchun boshqarilmaydigan jarayonlarni hosil qilishdan iborat. Morfo loyihasi asosida sintaksisning eng kichik birligi bo'lgan morfemalar yaratiladi. Tabiiy tilni qayta ishlashda morfemalar muhim rol o'ynaydi. Morfemalardan tilni avtomatik tanib olish va yaratishda foydalaniladi. *Polyglot*ning lug'atlari yordamida turli tillarning 50000 ta tokenlarida morfessor modellari ishlab chiqilgan.

Morfologik analizator

Morfologik tahlil jarayonida tokenlarning qo'shimchalarga asoslangan ma'nolarini hisobga olgan holda grammatik ma'lumot olish amalga oshiriladi. Morfologik tahlil uchta usulda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) *morfemaga asoslangan morfologiya;*
- 2) *leksema asosidagi morfologiya;*
- 3) **ordga asoslangan morfologiya.**

Morfologik analizator muayyan tokenning morfologik tarkibini tahlil qilish uchun mas'ul bo'lgan dastur sifatida izohlanadi. Morfologik analizator berilgan tokenni tahlil qiladi va turkum, turli grammatik ma'nolar kabi ma'lumotlarni shakllantiradi. Berilgan bo'sh joy bo'lmagan tokenda morfologik tahlilni amalga oshirish uchun **pyEnchant** lug'ati qo'llaniladi. So'zning turlumini aniqlash uchun qator qoidalar guruhi talab etiladi. Quyidagi qoidalar asosida so'z turkumini aniqlashimiz mumkin:

1. **Morfologik qoidalar.** Qo'shimchalar haqidagi ma'lumotlar so'z turkumini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida **-ness** va **-ment** qo'shimchalari otlar bilan birikadi. Demak, ingliz tilida so'z oxorodagi yasovchi qo'shimchaga qarab uning turkumini aniqlash mumkin. Ammo o'zbek tilida bu usul bilan so'zning turkumini aniqlash imkoni yo'q. Shu sababli o'zbek tili morfoleksikoni ishlab chiqilishi kerak.

2. **Sintaktik qoidalar.** Kontekstli ma'lumotlar so'z turkumini

aniqlashga yordam beradi. Masalan, agar ot turkumiga tegishli bo'lgan so'zni topsak, unda sintaktik qoidalar *sifatning otdan oldin* yoki *ot turkumidan keyin kelishini* aniqlash uchun foydali bo'ladi.

3. **Semantik qoidalar.** Semantik qoidalar so'z turkumini aniqlashda ahamiyatli. Masalan, so'zning joy nomini ifodalashi aniqlansa, uning ot so'z turkimiga mansub ekanligi to'g'risida xulosa qilish mumkin.

4. **Ochiq sinf (guruh).** Ushbu guruhdagi so'zlar ro'yxatiga har kuni yangi so'z qo'shilganda ularning soni ortib boraveradi. Ochiq sinfdagi so'zlar odatda ot so'z turkimiga mansub so'zlardir. Predloglar, asosan, yopiq sinfga mansub bo'ladi. Masalan, *FIO* ro'yxatida cheksiz miqdordagi so'zlar bo'lishi mumkin.

5. **So'z turkumlarini aniqlash (POS, Part of Speech):** So'z turkumlari teglari to'plami morfologik xususiyatni aniqlashga yordam beradigan ma'lumotlarni o'zida jamlaydi.

Masalan, **o'ynaydi** so'zi *uchinchi shaxs birlikdagi ot so'z turkumiga* mansub so'z bilan birga keladi.

6. **Omorfi:** Omorfi paketi GNU GPL 3-versiyasi tomonidan litsenziyalangan bo'lib, *tilni modellashtirish, morfologik tahlil, qoidalariga asoslangan mashina tarjimasi, ma'lumotni qidirish, statistik mashina tarjimasi, morfologik segmentatsiya, ontologiyalar, imloni tekshirish va tuzatish* kabi ko'plab vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi.

Morfologik generator

Morfologik generator – morfologik generatsiya vazifasini bajaradigan dastur bo'lib, uni morfologik tahlilning qarama-qarshi vazifasi deb hisoblash mumkin. Bu yerda so'zning **son, turkum, o'zak** va boshqa ma'lumotlariga ko'ra tavsifi berilgan bo'lsa, **asl so'z** hosil qilinadi. Masalan, **o'zak=bormoq, gap bo'lagi = kesim, zamon=hozirgi** va **uchinchi shaxs birlik predmeti** bilan birga kelgan bo'lsa, morfologik generator uning **bormoqda** shaklini hosil qiladi. Morfologik tahlil va generatsiyani amalga oshiradigan ko'plab Pythonga asoslangan dasturiy ta'minotlar mavjud:

1. **ParaMorfo:** U ispan va guarani tilidagi *ot, sifat va fe'llarni* morfologik hosil qilish va tahlil qilish uchun ishlatiladi.

2. **HornMorpho:** Oromo va amxar tillaridagi *ot va fe'llarni*, shuningdek, *tigrinya fe'llarini* morfologik hosil qilish va tahlil qilish uchun ishlatiladi.

3. **AntiMorfo:** Kechua tilidagi *sifatlar, fe'llar va otlarni*, shuningdek, ispan fe'llarini morfologik yaratish va tahlil qilish uchun ish-

latiladi.

4. **MorfoMelayu:** Malay tilidagi soʻzlarni morfologik tahlil qilish uchun ishlatiladi.


5. **Morph** ingliz tili uchun morfologik generator va analizatori.

6. **Morphy** nemis tili uchun morfologik generator, analizator va POS teggeridir.

7. **Morphisto** nemis tili uchun morfologik generator va analizatoridir.

8. **Morfette** ispan va frantsuz tillarini *nazorat ostida oʻrganishni (fleksion morfologiya)* amalga oshiradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan matn analizatori dasturiy taʼminotining arxitekturasini (4-rasm)ni quyidagicha shakllantirish mumkin.



4-rasm. Matn analizatori dasturiy taʼminoti arxitekturasini

Xulosa

Kompyuter lingvistikasining koʻplab tarmoqlari mavjud. Matnga ishlov berish (tahlil qilish) yoki generatsiya qilish uchun beril-

gan matn ustida bir qator lingvistik amallarni bajarishi lozim. Ushbu maqolada **stemming, lemmatizatsiya va morfologik tahlil hamda generatsiya** amallarini NLTK paketi vositalari yordamida amalga oshirish ko'rib chiqildi. Shuningdek, qidiruv tizimlari va ularni amalga oshirish usullari muhokama qilindi.

Adabiyotlar

- Öztürel, A., Kayadelen, T., & Demirşahin, I. 2019. A syntactically expressive morphological analyzer for turkish. *FSMNLP 2019 - 14th International Conference on Finite-State Methods and Natural Language Processing, Proceedings*. <https://doi.org/10.18653/v1/w19-3110>
- Jabbar, A., Iqbal, S., Akhunzada, A., & Abbas, Q. 2018. An improved Urdu stemming algorithm for text mining based on multi-step hybrid approach. *Journal of Experimental and Theoretical Artificial Intelligence*, 30(5). <https://doi.org/10.1080/0952813X.2018.1467495>
- Szabó, G., & Kovács, L. (2018). Benchmarking morphological analyzers for the Hungarian language. *Annales Mathematicae et Informaticae*, 49. <https://doi.org/10.33039/ami.2018.05.001>
- Daniel S. Jurafsky and James H. Martin. *Speech and Language Processing*. Contributing writers: Andrew Kehler, Keith Vander Linden, Nigel Ward 2000y. Prentice Hall, Englewood Cliffs, New Jersey 07632. pages: 950.
- Mohri M.A. Finite-state transducers in language and speech processing. *Computational Linguistics*. – С. 269-312.
- Ахо Альфред В., Лам Моника С, Сети Рави, Ульман Джеффри Д. 2008. Компиляторы: принципы, технологии и инструментарий, 2-е изд.: Пер. с англ. – М.: ООО “И.Д. Вильямс”, 1184 с.
- Толдова С.Ю., Бонч-Осмоловская А.А. Автоматический морфологический анализ // Фонд знаний «Ломоносов». М., 2011. www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0127430
- Садыков Т., Кочконбаева Б. 2018. Об оптимизации алгоритма морфологического анализа // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «Turklang-2018». (Труды конференции) – Ташкент, 320 с.
- Rodolfe, D. 2008. *Computational Linguistic Text Processing: Lexicon, Grammar, Parsing and Anaphora Resolution*. NovaSciencePublishers, Inc. – NewYork, – P. 4-5.
- Ермаков А. Морфологический анализатор - основа поисковых систем // <https://www.kv.by/archive/index2004154301.htm>
- Ножов И.М. 2003. Морфологическая и синтаксическая обработка текста (модели и программы): диссертация канд. наук. Москва, 190 с.
- Дыбо А.В., Шеймович А.В. 2014. Автоматический морфологический

анализ для корпусов хакасского и древнетюркского языков / Научное обозрение саяно-алтая рецензируемый научный журнал Номер 2(08), (Периодичность – 2 раза в год. серия: Филология.Выпуск 2). С. 9-31.

- Сулейманов Д.Ш., Гатиатуллин А.Р. 1996. Модель татарской аффиксальной морфемы и ее реализация // Серия: Интеллект. Язык. Компьютер. Вып.4. Казань: Фэн. 113-127.
- Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин Р.А., Гатауллин Р.Р. 2017. Морфологический анализатор татарского языка на основе двухуровневой модели морфологии / Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2017». – Труды конференции. В 2-х томах. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 327 с.;
- Желтов П.В. 2017. Разработка морфологического анализатора чувашского языка // Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2017». – Труды конференции. В 2-х томах. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 327 с.
- Исраилова Н.А., Бакасова П.С. 2017. Морфологический анализатор кыргызского языка // Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2017». – Труды конференции. В 2-х томах. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 327 с.
- Леонтьев Н.А.* 2018. Морфологический анализатор якутского языка // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2018». (Труды конференции) – Ташкент, 320 с. – С. 276-279.
- Куканова В.В., Каджиев А.Ю. 2014. Алгоритм работы морфологического парсера калмыцкого языка // В сборнике: Писменото наследство и информационните технологии. E\Manuscript-2014 Материали от V международна научной конференции. С. 116-119.
- Орхун М. 2018. Computational analysis of uzbek nouns / Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2018». (Труды конференции) Ташкент, 320 с.
- Турсунов А. 2018. Вопросы словообразования в формальных моделях тюркских языков (на примере узбекского языка) // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2018». Труды конференции) Ташкент, – 320 с.
- Болтаев Т.Б., Ибрагимов С.И.* 1992. О проекте программной системы морфологического анализа узбекского языка // <http://buxdu.uz/index.php/uz/>; Болтаев Т.Б., Кузьминов Т.В.,

- Поттосин И.В. О структурном конструировании программ и инструментах его поддержки // Среда программирования: методы и инструменты. Новосибирск, С22-37.
- Gökçe, F. 2014. Altay dillerinde ortak bir gramatikal morphem üzerine. *Turk-bilig*, 27.
- Ruppenhofer, J., Steiner, P., & Wiegand, M. 2017. Evaluating the morphological compositionality of polarity. *International Conference Recent Advances in Natural Language Processing, RANLP, 2017-September*. <https://doi.org/10.26615/978-954-452-049-6-081>
- Minegishi, M. 2011. Description of Thai as an isolating language. *Social Science Information*, 50(1). <https://doi.org/10.1177/0539018410389107>
- Pan, Y., Li, X., Yang, Y., & Dong, R. 2020. Multi-source neural model for machine translation of agglutinative language. *Future Internet*, 12(6). <https://doi.org/10.3390/FI12060096>
- Hakkani-Tür, D. Z., Oflazer, K., & Tur, G. 2002. Statistical morphological disambiguation for agglutinative languages. *Language Resources and Evaluation*, 36(4). <https://doi.org/10.3115/990820.990862>
- Kelly, B., Wigglesworth, G., Nordlinger, R., & Blythe, J. 2014. The acquisition of polysynthetic languages. *Linguistics and Language Compass*, 8(2). <https://doi.org/10.1111/lnc3.12062>
- Кузнецов П.С., 2010. Морфологическая классификация языков, Материалы к курсам языкознания
- Bareket, D., & Tsarfaty, R. 2021. Neural modeling for named entities and morphology (Nemo2). *Transactions of the Association for Computational Linguistics*, 9. https://doi.org/10.1162/tacl_a_00404
- Ledeneva, Y., & Sidorov, G. 2010. Recent advances in computational linguistics. *Informatika (Ljubljana)*, 34(1).
- Pirkola, A. 2001. Morphological typology of languages for IR. *Journal of Documentation*, 57(3). <https://doi.org/10.1108/EUM0000000007085>
- P.Jayan, J., R. R., & Rajendran, Dr. S. 2011. Morphological Analyser and Morphological Generator for Malayalam Tamil Machine Translation. *International Journal of Computer Applications*, 13 (8). <https://doi.org/10.5120/1802-2440>
- Aslan, O., Gunal, S., & Dincer, B. T. 2018. A computational morphological lexicon for Turkish: TrLex. *Lingua*, 206. <https://doi.org/10.1016/j.lingua.2018.01.003>
- Rifano, E. J., Fauzan, Abd. C., Makhi, A., Nadya, E., Nasikin, Z., & Putra, F. N. (2020). Text Summarization Menggunakan Library Natural Language Toolkit (NLTK) Berbasis Pemrograman Python. *IL-KOMNIKA: Journal of Computer Science and Applied Informatics*, 2(1). <https://doi.org/10.28926/ilkomnika.v2i1.32>
- Yayla, M., Diyar Demirkol, M., & Alqaraleh, S. (2021). CNN vs. LSTM for Turkish text classification. *2021 International Conference on Innovations in Intelligent Systems and Applications, INI-*

STA 2021 - Proceedings. <https://doi.org/10.1109/INIS-TA52262.2021.9548407>

- Deepti Chopra, Jacob Perkins, Nitin Hardeniya. Natural Language Processing: Python and NLTK. (2016). Publisher(s): Packt Publishing. ISBN: 9781787285101
- Orhun M., Tantug C., Adali E. Rule Based Analysis of the Uyghur Nouns, International Journal of Asian Lang. Proc.,19(1), 33-44, 2009.
- Khyani, D., 2021. An Interpretation of Lemmatization and Stemming in Natural Language Processing. *Journal of University of Shanghai for Science and Technology*, 22(10).
- Balakrishnan, V., & Ethel, L.-Y. (2014). Stemming and Lemmatization: A Comparison of Retrieval Performances. *Lecture Notes on Software Engineering*, 2(3). <https://doi.org/10.7763/lnse.2014.v2.134>
- Balakrishnan, V., & Ethel, L.-Y. (2014). Stemming and Lemmatization: A Comparison of Retrieval Performances. *Lecture Notes on Software Engineering*, 2(3). <https://doi.org/10.7763/lnse.2014.v2.134>
- Al-Rfou, R., Perozzi, B., & Skiena, S. (2013). Polyglot: Distributed word representations for multilingual NLP. *CoNLL 2013 - 17th Conference on Computational Natural Language Learning, Proceedings*.
- Thanaki, J. 2017. Python Natural Language Processing. In *Packt Publishing Ltd*.
- Çağrı Çöltekin. 2014. A Set of Open Source Tools for Turkish Natural Language Processing In: Proceedings of the Ninth International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC'14) Ed. by N. Calzolari et al. 1079-1086.
- Kessikbayeva, G. and I. Cicekli, 1994. "Rule based morphological analyzer of Kazakh language," in Proceedings of the 2014 Joint Meeting of SIGMORPHON and SIGFSM. Baltimore, Maryland: ACL, June 2014, pp. 46-54.;
- Kemal Oflazer. Two-level Description of Turkish Morphology. Literary and Linguistic Computing, – Vol. 9, No 2.
- Tantug C., Adali E., 2006. Oflazer K. Computer Analysis of the Turkmen Language Morphology, 5th International Conference on NLP (FINTAL 2006), Turku, Finland, 186-193.

Methods of creating a morphological analysis

Botir Elov¹

Shaxlo Hamroeva²

Dilrabo Elova³

Abstract

The process of morphological analysis is an important component of natural language processing systems, such as spelling correctors, parsers, machine translation systems, and electronic dictionaries. This article describes the steps of a text analyzer, a morphological analyzer, and how to create a morphological generator. Here's how to use the Python NLTK package tools to create a morphological analyzer, and examples of program code. The structure and architecture of the morphological analyzer are also presented on the basis of the stages of the morphological analysis process (inflection, derivation, detection of affixids, compound forms, cliticization).

Key words: *Natural language processing, NLP, Python, morphological analyzer, token, lemmatization, stemming, morphological generator, search engine, stemming algorithm, PorterStemmer.*

References

- Öztürel, A., Kayadelen, T., & Demirşahin, I. 2019. A syntactically expressive morphological analyzer for turkish. FSMNLP 2019 - 14th International Conference on Finite-State Methods and Natural Language Processing, Proceedings. <https://doi.org/10.18653/v1/w19-3110>
- Jabbar, A., Iqbal, S., Akhunzada, A., & Abbas, Q. 2018. An improved Urdu stemming algorithm for text mining based on multi-step hybrid approach. Journal of Experimental and Theoretical Artificial Intelligence, 30(5). <https://doi.org/10.1080/095281>

¹*Elov Botir Boltavich* – Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi - Head of the Department of Computer Linguistics and Digital Technologies, PhD in Engineering

E-mail: elov@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5032-6648

²*Hamroeva Shaxlo Mirdjonovna* – Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, Department of Applied Philology, Doctor of Philology (DSc)

E-mail: shaxlo.xamrayeva@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-5429-4708

³*Elova Dilrabo Qudratilloevna* - Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, teacher of the Department of Applied Philology

E-pochta: elovadilrabo@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2329-1811

For citation: Elov, B.B., Hamroeva, Sh. M., Elova D.Q. 2022. "Methods of creating a morphological analyzer". *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology 1* (5): 88-108.

3X.2018.1467495

- Szabó, G., & Kovács, L. (2018). Benchmarking morphological analyzers for the Hungarian language. *Annales Mathematicae et Informaticae*, 49. <https://doi.org/10.33039/ami.2018.05.001>
- Daniel S. Jurafsky and James H. Martin. *Speech and Language Processing*. Contributing writers: Andrew Kehler, Keith Vander Linden, Nigel Ward 2000y. Prentice Hall, Englewood Cliffs, New Jersey 07632. pages: 950.
- Mohri M.A. Finite-state transducers in language and speech processing. *Computational Linguistics*. – S. 269-312.
- Axo Alfred V., Lam Monika S, Seti Ravi, Ulman Djefri D. 2008. *Kompilyatori: printsiipi, texnologii i instrumentariy, 2-e izd.: Per. s angl.* – M.: OOO "I.D. Vilyamc", 1184 s.
- Toldova S.Yu., Bonch-Osmolovskaya A.A. *Avtomaticheskiy morfologicheskii analiz // Fond znaniy «Lomonosov»*. M., 2011. www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0127430
- Sadikov T., Kochkonbaeva B. 2018. *Ob optimizatsii algoritma morfologicheskogo analiza // Shestaya Mejdunarodnaya konferentsiya po kompyuternoy obrabotke tyurkskix yazikov «Turklang-2018»*. (Trudi konferentsii) – Tashkent, 320 s.
- Rodolfe, D. 2008. *Computational Linguistic Text Processing: Lexicon, Grammar, Parsing and Anaphora Resolution*. NovaSciencePublishers, Inc. – NewYork, – P. 4-5.
- Yermakov A. *Morfologicheskii analizator - osnova poiskovix sistem // https://www.kv.by/archive/index2004154301.htm*
- Nojov I.M. 2003. *Morfologicheskaya i sintaksicheskaya obrabotka teksta (modeli i programmi): dissertatsiya kand. nauk*. Moskva, 190 s.
- Dibo A.V., Sheymovich A.V. 2014. *Avtomaticheskiy morfologicheskii analiz dlya korpusov xakasskogo i drevnetyurkskogo yazikov / Nauchnoe obozrenie sayano-altaya retsenziruemyy nauchniy jurnal Nomer 2(08), (Periodichnost – 2 raza v god. seriya: Filologiya.Vipusk 2)*. S. 9-31.
- Suleymanov D.Sh., Gatiatullin A.R. 1996. *Model tatarskoy affiksnoy morfemy i yee realizatsiya // Seriya: Intellekt. Yazik. Kompilyuter. Vip.4. Kazani: Fen. 113-127*.
- Suleymanov D.Sh., Gilimullin R.A., Gataullin R.R. 2017. *Morfologicheskii analizator tatarskogo yazyka na osnove dvuxurovnevoy modeli morfologii / Pyataya Mejdunarodnaya konferentsiya po kompyuternoy obrabotke tyurkskix yazikov «TurkLang 2017»*. – Trudi konferentsii. V 2-x tomax. T 2. – Kazan: Izdatelstvo Akademii nauk Respubliki Tatarstan, 327 s.;
- Jeltov P.V. 2017. *Razrabotka morfologicheskogo analizatora chuvashskogo yazyka // Pyataya Mejdunarodnaya konferentsiya po kompyuternoy obrabotke tyurkskix yazikov «TurkLang 2017»*. – Trudi konferentsii. V 2-x tomax. T 2. – Kazan: Izdatelstvo Akademii nauk Respubliki Tatarstan, 327 s.
- Israilova N.A., Bakasova P.S. 2017. *Morfologicheskii analizator kirgizskogo yazyka // Pyataya Mejdunarodnaya konferentsiya po kompyuternoy obrabotke tyurkskix yazikov «TurkLang 2017»*. – Trudi konferentsii. V 2-x tomax. T 2. – Kazani: Izdatelstvo Akademii nauk Respubliki Tatarstan, 327 s.

- Леонтьев N.A. 2018. Morfologicheskiy analizator yakutskogo yazika // Shestaya Mejdunarodnaya konferentsiya po kompyuternoy obrabotke tyurkskix yazikov «TurkLang-2018». (Trudi konferentsii) – Tashkent, 320 s. – S. 276-279.
- Kukanova V.V., Kadjiev A.Yu. 2014. Algoritm raboti morfologicheskogo parsera kalmitskogo yazыka // V sbornike: Pismenoto nasledstvo i informatsionnite tehnologii. El'Manuscript-2014 Materiali ot V mejdunarodna nauchnoy konferentsii. S. 116-119.
- Orxun M. 2018. Computational analysis of uzbek nouns / Shestaya Mejdunarodnaya konferentsiya po kompyuternoy obrabotke tyurkskix yazikov «TurkLang-2018». (Trudi konferentsii) Tashkent, 320 s.
- Tursunov A. 2018. Voprosi slovoobrazovaniya v formalnix modelyax tyurkskix yazikov (na primere uzbekskogo yazika) // Shestaya Mejdunarodnaya konferentsiya po kompyuternoy obrabotke tyurkskix yazikov «TurkLang-2018». Trudi konferentsii) Tashkent, – 320 s.
- Boltaev T.B., Ibragimov S.I. 1992. O proekte programmnoy sistemy morfologicheskogo analiza uzbekskogo yazika // <http://buxdu.uz/index.php/uz/>; Boltaev T.B., Kuzminov T.V., Pottosin I.V. O strukturnom konstruirovaniye programm i instrumentax yego podderjki // Sreda programmirovaniya: metodi i instrumenti. Novosibirsk, S22-37.
- Gökçe, F. 2014. Altay dillerinde ortak bir gramatikal morfem üzerine. *Turkbilig*, 27.
- Ruppenhofer, J., Steiner, P., & Wiegand, M. 2017. Evaluating the morphological compositionality of polarity. *International Conference Recent Advances in Natural Language Processing, RANLP, 2017-September*. <https://doi.org/10.26615/978-954-452-049-6-081>
- Minegishi, M. 2011. Description of thai as an isolating language. *Social Science Information*, 50(1). <https://doi.org/10.1177/0539018410389107>
- Pan, Y., Li, X., Yang, Y., & Dong, R. 2020. Multi-source neural model for machine translation of agglutinative language. *Future Internet*, 12(6). <https://doi.org/10.3390/FI12060096>
- Hakkani-Tür, D. Z., Oflazer, K., & Tur, G. 2002. Statistical morphological disambiguation for agglutinative languages. *Language Resources and Evaluation*, 36(4). <https://doi.org/10.3115/990820.990862>
- Kelly, B., Wigglesworth, G., Nordlinger, R., & Blythe, J. 2014. The acquisition of polysynthetic languages. *Linguistics and Language Compass*, 8(2). <https://doi.org/10.1111/lnc3.12062>
- Kuznetsov P.S., 2010. Morfologicheskaya klassifikatsiya yazikov, Materiali k kursam yazikoznaniya
- Bareket, D., & Tsarfaty, R. 2021. Neural modeling for named entities and morphology (Nemo2). *Transactions of the Association for Computational Linguistics*, 9. https://doi.org/10.1162/tacl_a_00404
- Ledeneva, Y., & Sidorov, G. 2010. Recent advances in computational linguistics. *Informatica (Ljubljana)*, 34(1).
- Pirkola, A. 2001. Morphological typology of languages for IR. *Journal of Documentation*, 57(3). <https://doi.org/10.1108/>

EUM0000000007085

- P.Jayan, J., R. R. R., & Rajendran, Dr. S. 2011. Morphological Analyser and Morphological Generator for Malayalam Tamil Machine Translation. *International Journal of Computer Applications*, 13(8). <https://doi.org/10.5120/1802-2440>
- Aslan, O., Gunal, S., & Dincer, B. T. 2018. A computational morphological lexicon for Turkish: TrLex. *Lingua*, 206. <https://doi.org/10.1016/j.lingua.2018.01.003>
- Rifano, E. J., Fauzan, Abd. C., Makhi, A., Nadya, E., Nasikin, Z., & Putra, F. N. (2020). Text Summarization Menggunakan Library Natural Language Toolkit (NLTK) Berbasis Pemrograman Python. *ILKOMNIKA: Journal of Computer Science and Applied Informatics*, 2(1). <https://doi.org/10.28926/ilkomnika.v2i1.32>
- Yayla, M., Diyar Demirkol, M., & Alqaraleh, S. (2021). CNN vs. LSTM for Turkish text classification. 2021 International Conference on INnovations in Intelligent SysTems and Applications, INISTA 2021 - Proceedings. <https://doi.org/10.1109/INISTA52262.2021.9548407>
- Deepti Chopra, Jacob Perkins, Nitin Hardeniya. *Natural Language Processing: Python and NLTK*. (2016). Publisher(s): Packt Publishing. ISBN: 9781787285101
- Orhun M., Tantug C., Adali E. Rule Based Analysis of the Uyghur Nouns, *International Journal of Asian Lang. Proc.*,19(1), 33-44, 2009.
- Khyani, D., 2021. An Interpretation of Lemmatization and Stemming in Natural Language Processing. *Journal of University of Shanghai for Science and Technology*, 22(10).
- Balakrishnan, V., & Ethel, L.-Y. (2014). Stemming and Lemmatization: A Comparison of Retrieval Performances. *Lecture Notes on Software Engineering*, 2(3). <https://doi.org/10.7763/lmse.2014.v2.134>
- Balakrishnan, V., & Ethel, L.-Y. (2014). Stemming and Lemmatization: A Comparison of Retrieval Performances. *Lecture Notes on Software Engineering*, 2(3). <https://doi.org/10.7763/lmse.2014.v2.134>
- Al-Rfou, R., Perozzi, B., & Skiena, S. (2013). Polyglot: Distributed word representations for multilingual NLP. *CoNLL 2013 - 17th Conference on Computational Natural Language Learning, Proceedings*.
- Thanaki, J. 2017. *Python Natural Language Processing*. In Packt Publishing Ltd.
- Çağrı Çöltekin. 2014. A Set of Open Source Tools for Turkish Natural Language Processing In: *Proceedings of the Ninth International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC14)* Ed. by N. Calzolari et al. 1079-1086.
- Kessikbayeva, G. and I. Cicekli, 1994. "Rule based morphological analyzer of Kazakh language," in *Proceedings of the 2014 Joint Meeting of SIGMORPHON and SIGFSM*. Baltimore, Maryland: ACL, June 2014, pp. 46-54.;
- Kemal Oflazer. *Two-level Description of Turkish Morphology*. *Literary and Linguistic Computing*, - Vol. 9, No 2.
- Tantug C., Adali E., 2006. Oflazer K. *Computer Analysis of the Turkmen Language Morphology*, 5th International Conference on NLP (FinTAL 2006), Turku, Finland, 186-193.

O'zbek tilidagi polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi biznes-jarayonlarni modellashtirish

Botir Elov¹
Xolisxon Axmedova²

Abstrakt

Amaliy tilshunoslikning yana bir dolzarb masalalaridan biri bu– polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi lingvistik filtr yaratish bo'lsa, kompyuter lingvistikasi sohasi uchun esa ularni semantik farqlovchi matematik model va algoritmlar ishlab chiqish dolzarb masala. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi polifunksional so'zlar gap tarkibida uchraganda ularni semantik farqlashni amalga oshiruvchi modellar haqida fikr yuritilgan. Turkiy tillar oilasiga mansub tadqiqotlar bilan tanishdik. O'zbek tilidagi polifunksional so'zlarni so'z turkumlari kesimidagi ierarxiyasi shakllangan. *ot va sifat, sifat va modal so'z, sifat va ravish, yetakchi fe'l va mustaqil fe'l va bog'lovchi va yuklama so'z turkumlari* doirasida polifunksionallik hosil qiluvchi so'zlarni semantik farqlovchi matematik modellari keltirilgan. O'zbek tili semantik analizatorining polifunksionallikni farqlovchi biznes-jarayonlar modellashtirilgan.

Kalit so'zlar: *polifunksional so'zlar, matematik model, to'plam, chekli to'plam, biznes-jarayonlar, modellashtirish, so'z turkumlari.*

Kirish

Amaliy tilshunoslikning yana bir dolzarb masalalaridan biri bu– polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi lingvistik filtr yaratish bo'lsa, kompyuter lingvistikasi sohasi uchun esa ularni semantik farqlovchi matematik model va algoritmlar ishlab chiqish dolzarb masala. Turkiy tillar oilasiga mansub manbalarni kuzatganimizda tatar tili korpusida Polifunksional so'z masalasi jahon tilshunosligida to'liq yechim topmagan bo'lib, uning avtomatik aniqlanishi, korpusda

¹Elov Botir Boltayevich – texnika fanlari bo'yicha (PhD), dotsent Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti mudiri.

E-pochta: elov@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5032-6648

²Axmedova Xolisxon Ilxomovna - tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: a.xolisa@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9828-1650

Iqtibos uchun: Elov, B.B., Axmedova X.I. 2022. "O'zbek tilidagi polifunksional so'zlarni semantik farqlovchi biznes-jarayonlarni modellashtirish". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy lingvistika* 1 (5): 109-122.

bartaraf etilishi, lingvistik filtri va modeli borasida biror tadqiqot uchratmadik. Mazkur maqolada o'zbek tilida mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirib, ulardan foydalanib, semantik analizator uchun polifunksional so'zlarni modellashtirish borasidagi dastlabki ishlarni bajarishga harakat qildik.

Asosiy qism

Leksik birliklarning polifunksionallik muammosi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Polifunksional so'z masalasi jahon tilshunosligida rus, ingliz, tatar, xitoy tillarida ko'p uchraydi. Polifunksionallik tushunchasi ba'zi manbalarda ko'p funksiyalilik ko'rinishida uchraydi. Ko'pgina xorijiy lingvistik asarlarda ko'p funksiyalilikni omonimiya hodisalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi [Vinogradov 1977 *; Luriya 1979; Kolesnikov 1984 yil; Malaxovskiy 1990; Lapteva 1999; Starodumova 2002 va boshqalar], polisemiya (polisemiya) [Plungyan, Rakhilina 1996; Uryson 1997; Gak 1998 va boshqalar], o'tish davri [Peshkovskiy 1956; Migirin 1971; Tixomirova 1973 yil; Prokopovich 1974 yil; Rogojnikova 1984 yil; Vinogradov 1986; Babaytseva 2000; Sergeeva 2000 va boshqalar]. Tilshunos Gorina Irina Ivanovna o'zining "Лексема **словна** полифункциональное слова современного русского языка " maqolasida " Ko'p funkcionallik gapning bir o'zgarma qismining boshqasiga o'tish qobiliyatidir" deya ta'rif beradi. I.I.Gorina o'zining izlanishlarida rus tilidagi **словна** so'zining boshqa polifunksionallik usuliyatlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan [G.I.Ivanova 2014, 4]. Xitoy tilshunoslaridan Syun Xun o'zining nomzodlik dissertatsiyasida rus tili va rus- xitoy lug'atidagi polifunksional so'zlarni xitoycha ekvivalenti topilib ularning ma'nolari tushuntirilgan [Syun Xun 2020,120-196]. Ingliz tilida polifunksional so'zlarga olmoshlarni misol qilish mumkin. O.D.Vishnyakova *-able* modal so'zining polifunksional so'z sifatida qarash mumkinligini izohlar yordamida dalillagan [O.D.Vishnyakov 2013, 43]. E.H. Виноградова rus tilida mavjud predloglar orasidan ko'p funksionalliklarini ajratgan [Y.N.Vinogradova 2021, 23-55]va ularni guruhlarga bo'lib chiqqan.

Metodlar tahlili


Turkiy tillar oilasiga mansub manbalarni kuzatganimizda tarar tili korpusida polifunksional so'zlar haqida so'z yuritilgan.

Polifunksional so'z masalasi jahon tilshunosligida to'liq yechim topmagan bo'lib, uning avtomatik aniqlanishi, korpusda

bartaraf etilishi, lingvistik filtri va modeli borasida biror tadqiqot uchratmadik. Mazkur maqolada o'zbek tilida mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirib, ulardan foydalanib, semantik analizator uchun polifunksional so'zlarni modellashtirish borasidagi dastlabki ishlarni bajarishga harakat qilindi.

Ta'kidlash lozimki, polifunksionalizm hodisasi sof turkona, boshqa tillarga xos bo'lmagan voqelik sifatida baholanadi. *Ishlagan tishlaydi* kabi hollarda konversiya haqida gapirish mumkin, lekin *ishlaganining unumi, uzoq muddat ishlagandan so'ng...*, *qovunning pishgani* kabi hollarda konversiya yo'q. Bunda turkiy sifatdoshlarda mavjud bo'lgan sof turkona, yevropa tillariga xos bo'lmagan polifunksionalizm voqelanadi va bu leksik polisemiya bilan qiyoslab o'rganilishi zarur. A.G'ulomov okkazional ko'chish deb atagan *Agarni Magarga kuyov qilsalar, Tug'ilgay bir o'g'il oti Koshki* (G'afur G'ulom), *To'yib bo'ldim «bajaraman»laringdan* (Ne'mat Amin), *Borida chilik-chilik, yo'g'ida quruqchilik* kabi hollarga nisbatan transpozitsiya atamasini qo'llash va transpozitsiyani lisoniy birlikning ma'lum bir nutqiy sharoitda, aniq bir maqsadni ko'zlab asl xususiyatlariga muvofiq bo'lmagan vazifa va ma'noda, tamoman yangicha qo'llash deb baholamoq lozim. Transpozitsiya ham, konversiya ham nutqiy hodisa bo'lib, ularni leksikalizatsiya va uning yuqorida ko'rsatilgan ko'rinishlari bilan aralashtirish mumkin emas [R.Sayfullayeva 2010, 5-136]. Ko'rinadiki, polifunksional so'zlar individual tabiatga ega bo'lib, uning dunyo tilshunosligida yetarlicha nazariy o'rganilmaganligi, bunday so'zlarni korpusda farqlash omillari, filtri, lingvistik modellarining yaratilmaganligi ishning dolzarbligini namoyon etadi.

Polifunksional so'zlarni modellashtirish uchun filtrlar ish beradi [Gulyamova 2021, 236-238]. Yaratilgan filtrlar va lingvistik modellarni asoslanib matematik modellar yaratish muhim. Tadqiqotchi Sh. K.Gulyamova "Polifunksional so'zlarni lingvistik modellashtirishni turkumlar kesimida aniqlab olish kerak",–deydi [Sh. Gulyamova 2021, 104-107]. Tadqiqot ishining mazkur qismida o'zbek tilida mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirib, ulardan foydalanib, semantik analizator uchun polifunksional so'zlarni modellashtirish borasidagi dastlabki ishlarni bajarishga harakat qilindi. Tadqiqotchi Sh. Gulyamova polifunksional so'zlarni so'z turkumlar kesimida ja'mi 21 ta guruhini aniqlagan [Sh. Gulyamova 2021, 326].



Har bir turkum boʻyicha polifunksional soʻzni farqlashning matematik modelini ishlab chiqish kerak. Polifunksional soʻzlar ham omonimlarga oʻxshab birikuvchilar asosida farqlanishi mumkin. Ammo faqat bu metodning oʻzi barcha polifunksional soʻzlarni farqlab, model tuzish uchun yetarli emas. Chunki baʼzi soʻzlar turkumi kontekstda aniqlanadi. Garchi shunday boʻlsa-da, polifunksionallikni farqlovchi tizim uchun aniq qonuniyatlar, modellar kerak boʻladi. Sh.Gulyamova turkumlar kesimida klassifikatsiya qilganida, har bir guruh polifunksional soʻzlari uchun lingvistik model ishlab chiqqan. Yaratilgan lingvistik modellar asosida tizim uchun qonuniyat, matematik modellar ishlab chiqamiz. Umumiy polifunksional soʻzlar toʻplamini kabi belgilash kiritamiz.

1. Ot ∨ sifat soʻz turkumlari orasidagi polifunksionallikni aniqlash

ot ∨ sifat orasidagi polifunksionallikni hosil qiluvchi soʻzga misol sifatida *kasal* soʻzini olamiz. *Kasal* soʻzini kontesktida qay holatda ot va qay holatlarda sifat soʻz turkumida doir boʻlishiga naʼmunalar keltiramiz

1. «Oʻgʻlingizning *kasali* maʼlum boʻldi, – debdi Ibn Sino

2. *Bahonani oshirishmi yoki **kasalni** yashirish?!*
3. *Qo'shnim **kasal** sigirini yetaklab qassobxonona yo'l oldi*
4. *Palataga og'ir **kasal** bemor joylashtirildi*

1,2- gaplarda keltirilgan *kasal* so'zi kasallik ma'nosi bo'lib ot so'z turkumiga mansub. 3 va 4 esa *kasal* so'zi o'zidan keying otni si-fati ifodalaydi.

- *Kasal+-i/ni/ga/lar/da/ini/... aniqlandi/ko'rmoq/keldi/...*
- *Kasal odam/bemor/hayvon/qush/...*

Ushbu tahlillarga asoslanib xulosa qilamiz

$$P_{f_{adj,N}} = \begin{cases} P_{f^N} + \downarrow aff^N \oplus v \\ P_{f^{adj}} + \downarrow aff^{deg} \oplus N \end{cases} \quad (1)$$

Bu yerda –sifat *v* ot orasidagi polifunksionallik hodisasi, –ot so'z turkumidagi polifunksional so'z, –sifat so'z turkumidagi poli-funksional so'z. (34) yordamida ot *v* sifat orasidagi polifunksionalli-kni aniqlashni taklif qilamiz.

II. Sifat *v* modal so'z turkumlari orasidagi polifunksionallikni aniqlash

Sifat *v* modal so'z turkumlari orasidagi polifunksionallikni aniqlovchi matematik modelni *aniq* so'zi yordamida aniqlab xulosa qilamiz.

Aniq – sifat:

Saodatxon orziqib javob kutar, Tojiboy aka bo'lsa, aniq javob bermay, gapni aylantirar edi. (S.Zunnunova, Olov).

Ko'pchilik tomonidan ma'qullangan amaliy, aniq takliflar kiritildi. (Gazetadan)

Modal so'z:

Xolmirza aka ichidan «shu g'ayrating bo'lsa, ikki yilda Xirmontepadan aniq ayrilamiz», deb o'ylaydi. (A.Qodiriy, G'irvonlik Mallavoy).

Endi kimga og'iz solsang, g'iring demay tegishi aniq. (S. Ahmad, Yulduz)

Aniq – modal so'z shubhasiz, shaksiz so'zlari bilan ma'nodosh.

Jumlalardan ko'rinadiki, polifunksional so'zdan keyin ikkala holda ham fe'l, oldin ot so'z turkumidagi so'z uchrashi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, bu turdagi so'zlar uchun birikuvchilar ro'yhatini

shakllantirish orqali sifat v modal so'zlar orasidagi polifunksionallikni farqlash mumkin.

$$Pf_{M,adj} = \begin{cases} Pf^{adj} + \downarrow aff^{adj} \oplus W^{Pf_{adj}} \\ W^M \oplus Pf^M \oplus W^M \end{cases} \quad (2)$$

-modal so'z va sifat so'z turkumi orasidagi polifunksionallik, - sifat polifunksional so'z, -sifat polifunksional so'zning birikuvchilaridan iborat chekli to'plam, modal polifunksional so'zlarning birikuvchilari, modal polifunksional so'z.

III. Yetakchi fe'l v mustaqil fe'l so'z turkumlari orasidagi polifunksionallikni aniqlash

Yetakchi fe'l v mustaqil fe'l so'z turkumlari orasidagi poli-funksional so'zlarga boq so'zini keltiramiz.

1) **Boq** –1.Nazar solmoq, qaramoq. 2.Uzoq vaqt oziq-ovqat berib parvarish qilmoq (fe'l).

2) **Boq** –Mustaqil fe'l anglatgan leksik ma'noga "harakatning sinash, tekshirish maqsadida bajarilishi" Grammatik ma'nosini qo'shadi¹(ko'makchi fe'l)

Bolani	Boq
menga, unga, bizga	

O'qib	Boq
Yeb	
Sakrab	
Kulib	

Yuqoridagi tahlilni inobatga olib quyidagi matematik modelni keltiramiz

$$Pf_{i,L} = \begin{cases} W^x + aff^{CS} \oplus Pf^I \\ V^L + aff^L \oplus Pf^L \end{cases} \quad (3)$$

¹Raхmatullаev Ш. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – Б. 36.

-yetakchi (leader) va mustaqil (independent) fe'l orasidagi polifunksional so'z, -ot, ravish, ravish xarakteridagi sifat, son, olmosh so'z turkumidagi so'zlardan iborat chekli to'plam, -yetakchi fe'llardan iborat chekli to'plam, -fe'lga qo'shilib yetakchi fe'l hosil qiluvchi qo'shimchalar to'plami, }, yetakchi fe'l so'z turkumidagi polifunksional so'z. Ushbu model orqali yetakchi va ko'makchi fe'l bo'lib kela oladigan polifunksional so'zlarni farqlash mumkin.

IV. Sifat v ravish so'z turkumlari orasidagi polifunksionallikni aniqlash

Sifat v ravish so'z turkumlari orasidagi polifunksionallikni hosil qiluvchi so'zlardan biri sifatida *betartib* so'zlarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

- **betartib**+*-roq/-gina odam/xona/uy/ko'cha/*
- **betartib** *kiyinmoq/yumoq/kelmoq/...*

$$Pf_{adj,adv} = \begin{cases} Pf^{adj} + aff^{deg} \oplus N^{Pf_{adj}} \\ Pf^{adv} \oplus V \end{cases} \quad (4)$$

-sifat v ravish so'z turkumlari orasida polifunksionallik, -sifat so'z turkumidagi polifunksional so'z, -ravish so'z turkumidagi polifunksional so'z, so'z bilan birikuvchi ot so'z turkumidagi so'zlar to'plami. (37) model orqali sifat v ravish so'z turkumidagi polifunksionallikni aniqlash mumkin.

V. Bog'lovchi va yuklama orasidagi polifunksionallikni aniqlash


Bog'lovchi v ko'makchi orasidagi polifunksionallik hodisasi *bilan* so'zi yordamida quyidagicha modellashtiriladi. (agar *bilan* bog'lovchi bo'lib kelsa):

- *Ota bilan bola/ gul bilan lola/oq bilan qora/kelish bilan ketish/oy bilan quyosh/...*
- *Qunt bilan o'qi/ aql bilan o'ylamoq/tuni bilan ishlamoq/...*

$$P_{f_{conj,aux}} = \begin{cases} W^{conj} \oplus p_{f_{conj}} \oplus W^{conj} \\ W^{aux} \oplus p_{f_{aux}} \oplus V \end{cases} \quad (5)$$


-bog'lovchi v ko'makchi orasidagi polifunksionallik hodisasi, -polifunksional so'z bo'ladigan bog'lovchilar bilan birikuvchi so'zlar to'plami, bog'lovchi polifunksional so'z, -ko'makchi polifunksional so'z bilan birikuvchi so'zlar to'plami, ko'makchi polifunksional so'z.

Bu matematik model yordamida bog'lovchi va ko'makchi so'z orasida polifunksionallik hosil qiluvchi so'zlarni aniqlash mumkin. Yuqoridagi polifunksional so'zlarning klassifikatsiyasi keltirilgan ierarxiyadagi boshqa guruh polifunksional so'zlarini aniqlash uchun ham xuddi shunday matematik modellar ishlab chiqish mumkin. Polifunksionallikni to'g'ri aniqlash uchun bu so'zlar bilan birika oladigan so'z guruhlarini ajratish va ularni so'zlar bilan to'ldirish talab qilinadi. Modellar hosil qilinib, so'z guruhlarini to'ldirilgandan keyin axborot tizimi modellashtiriladi. Semantik analizatorining umumiy biznes-jarayoni quyidagi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm: O'zbek tili semantik analizatorining umumiy biznes-jarayoni

2-rasmda keltirilgan har bir murakkab biznes-jarayon ham o'z algoritmgiga ega. polifunksionallikni aniqlovchi biznes-jarayonini 3-rasmda batafsil yoritilgan.




3-rasm: Polifunksionallikni aniqlovchi biznes-jarayon

3-rasmdan ko'rinadiki o'zbek tilida polifunksional so'zlar asosan ikki va uchta so'z turkumlari doirasida polifunksionallik hosil qiladi. 2-rasmda polifunksional deb topilgan so'z 4-jarayonga uzatiladi. 4-jarayonga murojaat qilinganda, dastlab tizim tomonidan bu so'zning nechta so'z turkumlari doirasida polifunksionallik hosil qilishi aniqlanadi. Aniqlangan so'z turkumlari soniga qarab 3-rasmdagi 4.1 va 4.2- jarayonlarga murojaat qilinadi. 4-rasmda 4.1-ikki so'z turkumi doirasida polifunksionallik hosil qiluvchi so'zlarni farqlov biznes-jarayon modeli keltirilgan.


4-rasmda ko'rinib turganidek polifunksional so'zning qaysi so'z turkumlari doirasida uchrashi aniqlab olinadi. Bunday ma'lumotlar oldindan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Aniqlangan so'z turkumlari juftliklariga mos matematik modellar ishlab chiqilgan. Ushbu matematik modellarga mos funksiyalar yozib qo'yiladi va ularga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilinadi. Funksiyalarning natijalari esa foydalanuvchi interfeysiga uzatiladi. Xuddi shunday 4.2-murakkab jarayon ham o'z modeliga ega. Navbatda uchta so'z turkumi doirasida polifunksionallikni farqlash jarayoni modellashtirilgan.

4.1



4-rasm: Ikkita so'z turkumi doirasidagi polifunksionallikni farqlovchi biznes-jarayon modeli

4.2



5-rasm: Uchta so'z turkumi doirasidagi polifunksionallikni farqlovchi biznes-jarayon modeli

5-rasmda ko'rinib turganidek uchta so'z turkumi doirasida polifunksionallikni hosil qiluvchi uchta guruh so'zlar mavjud. Bu guruhlarning har biriga maxsus matematik model ishlab chiqilgan.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan matematik modellar va biznes-jarayonlar asosida o'zbek tili semantik analizatori uchun polifunksional so'zlarni farqlovchi funktsiya yaratiladi. 1-rasmda keltirilgan iyerarxiyaning har bir bo'lagiga alohida matematik modellar ishlab chiqish mumkin. Ishlab chiqilgan matematik modellar asosida polifunksional so'larni semantik farqlashga erishiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar

- Горина, И. И. 2014. Лексема словна полифункциональное слова современного русского языка. Инновации и инвестиции, №-4
- Syun, Хун. 2003. Полифункциональные слова в русском языке как проблема русско-китайских словарей. Дис. канд. филол. наук: 10.02.20: Москва, 196 с.
- Вишнякова, О.Д. 2013. СУЩЕСТВУЕТ ЛИ “МОДАЛЬНОЕ ПРИЧАСТИЕ” В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ? Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация., № 3
- Виноградова, Е.Н. 2021. Вплотную к наречным предлогам (квопросу о полифункциональных единицах). РУССКИЙ ЯЗЫК ЗА РУБЕЖОМ № 1
- Sayfullayeva, R. 2010. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, – 336 b. – B. 153.
- Gulyamova, Sh.K. 2021. Polifunksional va ko'p ma'noli so'zlarni farqlashda lokalizatsiya hodisasi. “O'zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktika masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent.
- Gulyamova, Sh.K. The problem of polyfunctionality in the traditional and computational linguistics. Middle European scientific bulletin. ISSN 2694-9970. Journal Impact Factor = 5.985. – 104-107 p
- Рахматуллаев, Ш. 1984. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, – Б. 36.
- Большакова, Б.И. 2011. Компьютерная лингвистика: методы, ресурсы, приложения. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика: учеб. пособие. – М.: МИЭМ, С. 93—94.
- Большакова, Е.И., Воронцов К.В., Ефремова Н.Э., Клышинский Э.С., Лукашевич Н.В., Сапин А.С. 2017. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и анализ данных. НИУ ВШЭ, – 269 с.
- Селегей, В. 2012. Лингвистические проблемы автоматического соз-

дания интернет-корпуса русского языка. Инновации и высокие технологии: тр. 55-й науч. конф. МФТИ. – М.: Изд-во Московского физико-техн. ин-та, – С. 53-54.

- Толдова, С.Ю., Кустова, Г.И., Ляшевская, О.Н. 2008. Семантические фильтры для разрешения многозначности в Национальном корпусе русского языка: глаголы. Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: По материалам ежегодной Международной конференции «Диалог» (Бекасово, 4-8 июня 2008 г.). – Вып. 7 (14). – М.: РГГУ.
- Тузов, В.А. 2004. Компьютерная семантика русского языка. СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, – 400 с.;
- Мозговой, М.В. 2005. Простая вопросно-ответная система на основе семантического анализатора русского языка. Вестник СПб университета. – сер. 10. – вып. 1. – С. 116–122.
- Colhon, M., Smarandache, F., Voinea, D. V. 2019. Entropy of Polysemantic Words for the Same Part of Speech. IEEE Access, 8, 2975–2982. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2019.2962420>.
- Chinosi, M., Trombetta A. 2011. BPMN: An introduction to the standard. Computer Standards and Interfaces. 34(1), 124–134. <https://doi.org/10.1016/j.csi.2011.06.002>.
- Tomaskova, H. 2020. Optimization of production processes using BPMN and archimate. International Journal of Advanced Computer Science and Applications, 11(7), 46–57. <https://doi.org/10.14569/IJACSA.2020.0110707>

Modeling of business processes that semantically differentiate polyfunctional words in Uzbek

Botir Elov¹
Kholishon Akhmedova²

Abstract

Another important issue in applied linguistics is the creation of a linguistic filter that semantically differentiates polyfunctional words, and in the field of computer linguistics it is important to develop mathematical models and algorithms that semantically differentiate them. This article discusses the models of semantic differentiation of polyfunctional words in the Uzbek language. We got acquainted with the research belonging to the Turkic language family. A hierarchy of polyfunctional words in the Uzbek language within the word groups has been formed. Mathematical models of semantic differentiation of polyfunctional words between *nouns/adjectives*, *adjectives v modal words*, *adjectives v adverb*, *leader verb v independent verb and conjunction v loading words*. Business processes that differentiate the polyfunctionality of the Uzbek language semantic analyzer are modeled.

Key words: *polyfunctional words, mathematics model, set, limited set, business-process, modelled, part of speeches.*

References

- Gorina, I.I. 2014. "Leksema slovna polifunksionalnoye slova sovremennogo russkogo yazyka", *Innovasii i investisii*, №4
- Syun, Xun 2003. *Polifunksionalnyye slova v russkom yazyke kak problema russko-kitayskix slovarey*. Dis. kand. filol. nauk: Moskva, 196 c.
- Vishnyakova, O.D., 2013. *SUSHYESTVUYET LI "MODALNOYE PRICHASTIYE" V ANGLIYSKOM YAZYKE?*, *Vestn. Mosk. un-ta. Ser. 19. Lingvistika i mejkulturnaya kommunikasiya*, № 3
- Vinogradova, Y.N. 2021. *Vplotnuyu k narechnym predlogam (kvoprosu o*

¹*Elov Botir Boltaevich* - PhD, Director of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: elov@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5032-6648

²*Akhmedova Kholishon Ilkhomovna* – basic doctoral student, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: a.xolisa@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-9828-1650

For citation: Elov, B.B., Akhmedova, K. 2022. "Methods of creating a morphological analyzer". *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology 1 (5)*: 109-122.

- polifunksionalnyx yedinisax). RUSSKIY YAZYK ZA RUBEJOM № 1
- Sayfullayeva, R. 2010. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent,– 336 b. – B. 153.
- Gulyamova, Sh.K. 2021. Polifunksional va ko'p ma'noli so'zlarni farqlashda lokalizatsiya hodisasi. O'zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktika masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent.
- Gulyamova, Sh.K. "The problem of polyfunctionality in the traditional and computational linguistics", Middle European scientific bulletin. ISSN 2694-9970. Journal Impact Factor = 5.985. – 104-107 p
- Rahmatullayev, Sh. 1984. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, – B. 36.
- Bolshakova, B.I. 2011. Kompyuternaya lingvistika: metody, resursy, prilozheniya Avtomaticheskaya obrabotka tekstov na yestestvennom yazyke i kompyuternaya lingvistika: ucheb. posobiye. – M.: MIEM, S. 93—94.
- Bolshakova, Ye.I., Voronov K.V., Yefremova N.E., Klyshinskiy E.S., Lukashevich N.V., Sapin A.S. 2017. Avtomaticheskaya obrabotka tekstov na yestestvennom yazyke i analiz dannyx – NIU VShE,– 269 s.
- Selegey, V. 2012. Lingvisticheskiye problemy avtomaticheskogo sozdaniya internet-korpUSA russkogo yazyka. Innovatsii i vysokiye texnologii: tr. 55-y nauch. konf. MFTI. – M., Izd-vo Moskovskogo fiziko-texn. in-ta, – S. 53-54.
- Toldova, S.Yu., Kustova G.I., Lyashevskaya O.N. 2008. Semanticheskkiye filtry dlya razresheniya mnogoznachnosti v Natsionalnom korpuse russkogo yazyka: glagoly. Kompyuternaya lingvistika i intellektualnyye texnologii: Po materialam yejegodnoy Mejdunarodnoy konferensii Vyp. 7 (14). – M.: RGGU,
- Tuzov, V.A. 2004. Kompyuternaya semantika russkogo yazyka", SPb.: Izd-vo S.-Peterb. un-ta, – 400 s.;
- Mozgovoy, M.V. 2005. Prostaya voprosno-otvetnaya sistema na osnove semanticheskogo analizatora russkogo yazyka. Vestnik SPb universiteta. –10. – vyp. 1. – S. 116–122.
- Colhon, M., Smarandache F., & Voinea D. V. 2019. Entropy of Polysemantic Words for the Same Part of Speech. IEEE Access, 8, 2975–2982. <https://doi.org/10.1109/ACCESS.2019.2962420>
- Chinosi, M., & Trombetta A. 2011. BPMN: An introduction to the standard. Computer Standards and Interfaces, 34(1), 124–134. <https://doi.org/10.1016/j.csi.2011.06.002>
- Tomaskova, H. 2020. Optimization of production processes using BPMN and archimate. International Journal of Advanced Computer Science and Applications, 11(7),46–57 <https://doi.org/10.14569/IJACSA.2020.0110707>

KORPUS LINGVISTIKASI

Uznet lingvistik ontologiyasini yaratishni loyihalash konsepsiyasi

Manzura Abjalova¹

Abstrakt

Jahonda inson faoliyatining bilim talab qiladigan zamonaviy sohalari rivojlanishi kompyuter texnologiyalari rolining oshishi bilan belgilanadi. Bugungi kunda axborot oqimi sezilarli darajada ko'paymoqda, endi ularni saqlash, taqdim etish, formallashtirish va tartibga solish, shuningdek, avtomatik qayta ishlashning yangi usullarini izlash zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois turli amaliy maqsadlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan keng qamrovli bilim bazalariga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, inson omilisiz matndan har qanday ma'lumotni chiqarib oluvchi neyroto'rlarga asoslangan tizimlarga ehtiyoj katta. XX asr yarimida butunjahon tarmog'i bilan bir qatorda semantik veblar paydo bo'ldi, unda gipermatnli sahifalardagi elementlar semantikasi haqida axborot tashuvchi qo'shimcha teglar bilan ta'minlandi. Semantik vebning ajralmas qismi ontologiya tushunchasi bo'lib, u so'zlar tarmog'idan iborat leksik ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Mazkur maqolada o'zbek tili ontologiyasi – UzNet tizimini yaratish konsepsiyasi, uni loyihalash asoslari, UzNet ontologiyasining biznes-jarayon modeli ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: *lingvistik ontologiya, semantik veb, UzNet, semantik munosabatlar, konsepsiya, loyihalash.*

Kirish

XX asrda dunyo amaliy tilshunosligi va kompyuter lingvistikasida axborot qidiruv imkoniyatini oshirish, avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirish, matnlarni komponent tahlil qilishga erishish, tilning lug'at boyligini aks ettirish maqsadida

¹Abjalova Manzura Abdurashetovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kompyuter lingvistikasi va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsent v.b.

E-pochta: abjalovamanzura@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-1927-2669

Iqtibos uchun: Abjalova, M.A. 2022. "UzNET lingvistik ontologiyasini yaratishni loyihalash konsepsiyasi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya* 1(5): 123-139.

yaratilgan lingvistik ontologiyalar tezauruslardan tildagi semantik munosabatlarning o'zaro tarmoqlanishi bilan ajralib turdi. Natijada WordNet ingliz tili leksik ma'lumotlar bazasi asosida boshqa ko'plab tillar resurslarini yaratish keng tus oldi. Shu sababli tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), tilni lingvistik modellashtirish, so'z turkumlarini teglash, tilda semantik munosabatlar to'plami (sinonimiya, meronimiya, giperonimiya, antonimiya)ni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda jahon miqyosida ko'plab semantik tizimlar yaratilgan bo'lsa-da, ammo lingvistik ontologiya va tezauruslarning sanoqlisi ularga qo'yilgan talablarga javob beradi. Lingvistik ontologiyalarni yaratish an'anasi WordNet asosidagi lingvistik resurslar ta'minotini o'rganish va yaratishga yo'naltirilgan harakatlar natijasida yuzaga kelgan.

Lingvistik ontologiyani yaratish va qo'llash bo'yicha ko'plab ishlar Rossiyada hamda xorijda amaliy tilshunoslik sohasida olib borilgan va hozirda jadal ravishda davom etmoqda. Ushbu tadqiqotda J.Miller va K.Fellbaum P. Butelaar, F.Chimiano, P.Haaza, B.V.Dobrov, N.V.Lukashevich, O.Narinyan, I.Azarova tadqiqotlari ahamiyatli sanaladi.

"O'zbek tili ontologiyasini yaratish konsepsiyasi" yirik lingvistik ontologiyalar – SUMO, OMEGA, DOLCE, Princeton WordNet, KeNet, RuThez va RussNet kabi ontologiya hamda tezauruslarni o'rganish, tahlil qilish natijada o'zbek tili ontologiyasini yaratish bo'yicha metodologik bilimlar, muayyan sohaga xos bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlashga imkon beruvchi tajribalar asosida ishlab chiqildi.

Asosiy qism

Lingvistik ontologiya yoxud *til ontologiyasi* terminlari tilshunoslik faniga qaraganda, axborot texnologiyalari sohasida ko'proq qo'llaniladi, asosan, matnlarni avtomatik tarzda qayta ishlash uchun ixtisoslashtirilgan axborot qidirish tezaurusi, ya'ni tilning lug'at boyligini o'zida jamlagan, so'zlarning semantik munosabatlari o'rnatilgan (yoxud so'zlar tarmog'iga ega) turli maxsus lingvistik dasturiy ta'minotlarni anglatadi. Lingvistik ontologiya (LO) til borlig'i va mohiyati haqidagi fan sifatida kamdan-kam tilga olinadi. LO lisoniy borliqni tahlil qilish orqali tilning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Ontologiyalar ko'plab kompyuter dasturlari uchun [Eiji Aramaki] ma'lumot manbasi sifatida qo'llaniladi (axborot qidirish,

matnni tahlil qilish, avtomatik tarjima, bilimlarni yig'ish va boshqa axborot texnologiyalari uchun). Ontologiya murakkab va xilma-xil ma'lumotlarni samarali qayta ishlashda yordam beradi [Гладун]. Ma'lumotlar bilan ishlashning bunday usuli dasturlar uchun insonga tushunarli bo'lgan, ammo kompyuterga ma'lum bo'lmagan semantik farqlarni tanib olishga imkon beradi.

Zamonaviy axborot-qidiruv ilovalari keng sohalarda ishlaydi.

So'nggi 15 yildan beri ontologiyalar sun'iy intellekt sohasining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ular yaratiladi, qo'llaniladi va o'rganiladi. Ontologiyalardan foydalanish holatlari [Клещев]:

- axborotlarni tashuvchi terminlarning ma'nosini aniqlashtirish;

- axborotning qayta qo'llanilishini ta'minlash;

- ma'lumotlarni tahrirlashni nazorat qilish (dasturiy vositada boshqaruvchi ma'lumotlar sifatida);

- tahlilchi faoliyatining bir qismi sifatida dasturiy vositalarni (shu jumladan, bilimga asoslangan tizimlarni) ishlab chiqishda foydalanish.

T.Gavrilovanning fikriga ko'ra, ontologiyalar bilimlarni boshqarish tizimlari, shuningdek, ko'p agentli intellektual tizimlar sohasida faol qo'llaniladi [Гаврилова]. "Ontologiya asosida samarali qidiruvni tashkil etish" nomli maqolada ta'kidlanganidek, ontologiyalar dasturiy ta'minot tizimlari uchun bilimlar bazasi komponentlarining qurilish bloklari sifatida foydalanishi mumkin, shuningdek, obyektga yo'naltirilgan tizimlardagi obyekt diagrammalari, ma'lumotlar bazasining kontseptual sxemalarini qurish bloklari sifatida foydalanish mumkin. Ontologiyalar yordamida turli xil intellektual tizimlar, xususan, ekspert tizimlaridagi muammolarni yechish uchun bilim bazalarini shakllantirish mumkin [Посеева]. O'zbek tilini Internet tiliga aylantirish, uning xalqaro nufuzini oshirish, davlat tili sifatida maqomini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbek tili Milliy korpusi bilan birgalikda O'zbek tili ontologiyasini ham yaratish o'ta muhim vazifa sanaladi.


Agar biz o'zbek tilida ma'lumot qidirish dasturlarida foydalanish uchun lingvistik va terminologik resurslarni yaratmoqchi bo'lsak, u holda bu resurslar o'zbek tili leksik sathini keng qamrab olishi, shuningdek, hujjatlar va so'rovlarni qayta ishlashning avtomatik rejimlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Tadqiqotning oldingi bo'limlarida turli lingvistik resurs va ontologik tizimlar ko'rib chiqildi. Jumladan, lingvistik ontologiyalar, tezauruslar, axborot-qidiruv tezauruslari, vordnet tipidagi lingvistik

resurlarni yaratish texnologiyalari tadqiq etildi. Ta'kidlash joizki, ushbu manbalarni, ayniqsa, til ontologiyasini yaratish o'ta mashaqqatli va og'ir jarayon hisoblanadi. Albatta, ularning barchasidan ma'lumot qidirish muammolarini hal qilish jarayonida manba sifatida foydalanishda ba'zi muammolar uchraydi. Jumladan, tipologik jihatdan tillarning turli oilalarga mansubligi, tillar flektiv va agglutinatib tabiatga ega ekanligi ingliz tili leksik ma'lumotlari bazasi – WordNet tizimidagi ma'noviy munosabatlar aynan muvofiq kelmaydi. So'z turkumlari tegini belgilashda ishliz tilidagi ravish turkumi o'zbek tilida sifat turkumidagi so'z tarjimasiga muvofiq kelishi mumkin.

Xalqaro Wordnet assotsiatsiyasi saytida berilgan ma'lumotlar [<http://globalwordnet.org/resources/wordnets-in-the-world/>] asosida tayyorlangan tahliliy ma'lumotlar berildi. <http://globalwordnet.org/> Saytning "Wordnets in the World" (Wordnetlar dunyoda) sahifasida Princeton Wordnet tizimi zamirida o'nlab dunyo tillari uchun yaratilgan 78 ta Wordnet keltirilgan.

Ro'yxatning oxirida "(Shimoliy) o'zbek tiliga asoslangan" UzWordnet resursi o'rin olgan va u ko'p tili ochiq Wordnet formati (the Open Multilingual Wordnet (Bond and Paik, 2012; Bond and Foster, 2013)) [<http://compling.hss.ntu.edu.sg/omw/>] asosida ishlab chiqilgan. Mazkur resurs sahifasi [<https://uzwordnet.ldkr.org/>]da 6 ta, ya'ni UzWordnet so'z qidiruv sahifasi (UzWordnet), xalqaro Wordnet assotsiatsiyasi (XWA) saytiga havola, guruh tarkibi haqida ma'lumot (LDKR Group), UzWordnet to'g'risidagi maqolaga havola (Reference), GitHub, ya'ni ushbu resurs formati, yaratuvchilari, loyiha rahbari, 1 yillik litsenziyasi haqida ma'lumotlar rukni va ro'yxatdan o'tish (Login) ruknlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. UzWordnet resursining qidiruv oynasi

Loyiha Toshkent shahridagi Inha universitetida amalga oshirilgan, loyiha rahbari – Alessandro Agostini. Manbaning “GitHub” ruknida shunday yozilgan: “UzWordnet – bu (shimoliy) o‘zbek tili (ona tilida: *o‘zbek tili*) uchun Princeton Wordnet bilan mos keladigan (prototip versiya) [Agostini A., Usmanov T. and other] leksik-semantik ma’lumotlar bazasi yoki “so‘zlar tarmog‘i”. Biz o‘zbek tilining hisoblash jihatlarini o‘rganish va umuman, (shimoliy) o‘zbek tilidan IT ilovalari va Internetda foydalanish imkoniyatlari uchun ma’lumotlar bazasi va tamoyillarini qo‘llash, bilimlar grafigi tamoyillari hamda usullarini rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash hamda kengaytirishga harakat qildik va uni ochiq manbali kod sifatida taqdim etdik.

(Shimoliy) o‘zbek tili O‘zbekistonda rasmiy davlat tili hisoblanadi. Bu til turkiy til bo‘lib, unda dunyo bo‘ylab 26,8 million kishi, shu jumladan, chet elda yashovchi etnik o‘zbeklar ham gaplashadi” [<https://github.com/LDKR-Group/UzWordnet>].

Tanqidiy mulohazalarni yuzaga keltirishga sabab bo‘lgan ushbu izohlar va UzWordnet resursining amaldagi qidiruv natijalari asosida quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

1. UzWordnet resursini yaratishda shimoliy o‘zbek tiliga asoslanilgani aytiladi. Vaholanki, o‘zbek adabiy tilining mintaqaviy ko‘rinishlari mavjud emas va lingvistik ontologiyada muayyan tilning butun lisoniy ko‘rinishi aks etishi birlamchi talab hisoblanadi. Shu bois lingvistik ontologiyalar tarmoqlangan leksik ma’lumotlar tizimi hisoblanadi.

2. Bir qancha so‘zlar qidiruvi natijasida ayon bo‘ldiki, UzWordnet resursi Princeton Wordnet tizimidagi birliklar va ularning izohini berish bilan cheklanadi. Buni guruh tarkibi ham dalillaydi: “UZwordnet tuzishning asosiy jarayoni – bu PWN (3.0 versiya)ning o‘zbek tiliga avtomatik tarjimasini hisoblanadi ... (Tarjima uchun) leksik manba sifatida biz Sh.Butayev va A.Irisqulovning “Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at”idan (2008) foydalanganmiz [Agostini A., Usmanov T. and other].

3. UzWordNet jamoasi mazkur resursining ishlash algoritmi PWN’ga asoslanganini qayd etadi va PWN bilan ulanishni tiklash algoritmi sifatida quyidagi algoritmi taqdim qiladi:

Input: S , a data.pos file from Princeton WordNet (PWN, v3.0)

Input : D , English-Uzbek dictionary in tabular form for a specific PoS

Output: W , the UzWordNet (UzW, v1.0)


$1 W \leftarrow \emptyset$

```

2 for each synset ∈ S do
3   for each lemma ∈ synset do
4     if lemma ∈ D then
5       W ← W ∪ translate (synset, D[lemma])
6   for each w_synset ∈ W do
7     if parent (w_synset) ∉ W then
8       s_synset ← parent (w_synset)
9       while s_synset ∉ W and s_synset ≠ top_level_synset (S)
do
10        s_synset ← S[parent (s_synset) ]
11        parent (w_synset) ← synset
12 return W

```

Mazkur algoritmning Input (kiritish)dan boshlab muayyan soʻz (S) qadamma-qadam PWN 3.0 versiyasidagi fayldan qidiriladi, mavjud soʻzning turkumi “Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat”dan aniqlanadi, PWN sinsetlaridan soʻz lemmalari qidiriladi, agar lemma “Inglizcha-oʻzbekcha lugʻat”da mavjud boʻlsa, tarjima qilinadi (2-rasm).



2-rasm. uzwordnet.ldkr.org resursida *maktab* soʻziga taqdim etilgan tarjima

2-rasmdan ayon boʻlganidek, *maktab* soʻziga PWNdagi izohlari lugʻat yordamida tarjima qilingan, uning turkumi, semantik munosabatlari va sinsetlar toʻplami taqdim etilmagan. Mavjud giperonim (jins)lar qatori toʻliq emas.

UzWordNet ish jarayoni algoritmidan maʼlum boʻlganidek,

mazkur resurs uchun birginatarjimalug'ati tarjima vositasi bo'lmoqda va resurs ishi to'laqonli Princeton WordNet bazasiga asoslanilgan. Shu bois mazkur resurs o'zbek tili ontologiyasi vazifasini bajara olmaydi. Ushbu xulosa UzWordNet resursidan foydalanilganda yuzaga keldi. Albatta, PWN tarkibida uning mukammallashtirilishi ko'p tilli PWN resurslarida o'zbek tilining butun imkoniyati, tabiati va xususiyatlarining namoyon bo'lishiga olib keladi. Shu bois mazkur resurs bazasi o'zbek tili tipologiyasiga muvofiq sinchkovlik bilan to'ldirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqoti jarayonida lingvistik ontologiyani shakllantirish talablari, axborot qidiruv tezaurusini yaratish tamoyillari o'rganilildi.

Tezauruslarda bir sohadagi barcha leksik boylik iyerarxiyasi yaratilsa, lingvistik ontologiyada butun til leksikasi tarmog'i yuzaga kelishi zarur hisoblanadi. Shu bois tezauruslarni yaratish nisbatan muvaffaqiyatli va ontologiyaga nisbatan qisqa vaqtda amalga oshiriladi. So'zlar tarmog'ini noldan yaratish yoki avval mavjud bo'lganini kengaytirish esa bir necha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi va inson mehnatidan hamda avtomatlashtirilgan tizimlardan keng foydalanishni talab qiladigan mashaqqatli jarayondir. Shu bois O'zbek tili ontologiyasi – UzNet tizimini yaratish uchun konsepsiya ishlab chiqildi.

“O'zbek tili ontologiyasini yaratish konsepsiyasi”

Tarkibi:

1. Lingvistik ontologiyani yaratishning konseptual asosi tadqiqi

2. UzNet tizimi uchun leksikografik baza yaratish

3. So'z turkumlarini teglash

4. So'zlarning shakl va semantik munosabatini belgilash

5. Sinsetlar (lug'aviy, ma'noviy va matniy sinonimlar)

Birinchi bosqich

1. Lingvistik ontologiyani yaratish metodologiyasi

1.1. Lingvistik ontologiyalarni yaratish tamoyillarini tadqiq etish.

1.2. WordNet tizimi asoslarini o'rganish.

1.3. Turkiy tillar ontologiyalari texnologiyalarini tadqiq va tahlil qilish.

1.4. UzNet tizimini yaratish loyihasini amalga oshirish.

1.5. Izohli va imlo lug'atlardagi barcha so'zlarni bazaga

kiritish.

1.6. Lingvistik ontologiya tizimi dasturiy ta'minotini ishlab chiqish.

Ikkinchi bosqich

Uznet tizimi uchun leksikografik baza

O'quv lug'atlari asosida dastlabki ma'lumotlar bazasini yaratish.

2.2. Lingvistik ontologiya uchun "O'zbek tilidagi antonimlar lug'ati"ning yangi avlodini shakllantirish va uni bazaga kiritish.

1.3. "O'zbek tilidagi ononimlar lug'ati"ning yangi avlodini shakllantirish va uni bazaga kiritish.

1.4. "O'zbek tilidagi paronimlar lug'ati"ning yangi avlodini shakllantirish va uni bazaga kiritish.

1.5. Sohalarga oid terminologik lug'atlar bazasini yaratish.

1.6. Sohalar bo'yicha tezauruslarni yaratish.

Uchinchi bosqich

3. So'z turkumlarini teglash

3.1. Izohli va imlo lug'atlardagi so'zlarning turkumlarini belgilash.

3.2. Omonim, ko'p ma'noli va polifunksional so'zlar bazasini yaratish.

3.3. So'zlarning formal izohini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich

4. So'zlarning shakl va semantik munosabatini belgilash

4.1. Turkumlarga ajratilgan har bir so'zning ifoda va ma'no munosabatini aniqlash.

4.2. So'zlarning giponim va giperonimlarini belgilash.

4.3. Tarmoqlangan xolo-meronim munosabatini yaratish.

Beshinchi bosqich

5. Sinsetlar (lug'aviy, ma'noviy va matniy sinonimlar)

5.1. O'zbek tilida mavjud so'zlarning lug'aviy ma'nodoshlarini jamlash.

5.2. Ma'noviy sinonimlar bazasini yaratish.

5.3. Uslublar doirasida matniy (konseptual) sinonimlarni aniqlash.

5.4. UzNet tizimida sinonimlar to'plamlari – sinsetlar tarmog'ini yaratish.

“O‘ZBEK TILI ONTOLOGIYASINI YARATISH” KONSEPSIYASI




Lingvistik ontologiyani yaratish ko'p bosqichli murakkab va sinchkovlikni talab etadigan jarayon bo'lgani bois yana bir qancha tadqiqotlarni talab etadi. Yirik jamoa mehnati salmoqli natijalarni beradi.

O'zbek tili ontologiyasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarni tashkil etadi:

- 1) so'z (shakl)lar / so'z birikmalari;
- 2) tushunchalar izohi;
- 3) semantik va shakliy munosabatlar (sinonimiya, gipponimiya, meronimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya);
- 4) misollar.

Tizimda terminlar sohalarga tarmoqlanadi, sinflar tashkil etiladi.

Quyidagi chizmada O'zbek tili ontologiyasi – UzNetning qo'llanilish sohasi, tiplari, tili, ahamiyati, foydalanuvchilari tasvirlangan:



3-chizma. O'zbek tili ontologiyasi – UzNet xususiyatlari

UzNetni yaratishda ko'plab resurs va til muammolariga duch keldik. Jumladan, sinsetlarni yaratishda sinonimik munosabatlarni tizimli ravishda belgilaydigan o'zbekcha lug'at yo'qligi eng katta muammo edi. Tadqiqotda batafsil tahlil qilinganidek, lingvistik ontologiya asosida sinonimik to'plamlar turadi va sinset, ya'ni semantik munosabatlarning birlamchi elementlari ham sinonimlar sanaladi. Ayni damda mavjud "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" da [Hojiyev] o'zbek tilidagi barcha ma'nodoshlar to'liq qamrab olinmaganligi, "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" [Otabekov, Boymatova] va "O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati" [Bobojonov] esa faqat o'quvchilar uchun sodda va ixcham holatda tuzilganligi sababli UzNet uchun asosiy resurs vazifasini bajara olmaydi. Shu bois tadqiqot davomida ingliz, rus, turk tillari sinonim lug'atlari o'rganilib, o'zbek tili sinonimlarining zamonaviy bazasi [Abjalova va boshq] shakllantirildi.

Sinsetlar yaratishda til bilan bog'liq muammolarga duch kelindi. Jumladan, ba'zi sinsetlarda turli so'z turkumlariga mansub sinset a'zolari (*kvazisinonimlar*) mavjud. O'zbek tilida bir xil ma'noga ega bo'lgan shunday so'zlar borki, ularning har biri turli so'z turkumlariga mansub hisoblanadi. Masalan, *globalizatsiya*, *lemmatizatsiya* – jarayon nomi, ot turkumidagi so'zlar va *globalashuv*, *lemmalash* – harakat nomi, fe'l turkumidagi so'zlar sanaladi. Bunday holat sinonimlarning morfologik jihatdan noto'g'ri guruhlanishiga olib kelishi mumkin: kvazisinonimlarni avtomatik ravishda

sinonimik qator mansub bo'lgan so'z turkumiga kiritib bo'lmaydi, balki mutaxassis tomonidan bittalab turkumlanishi va shu asosda guruhlanishi talab qilinadi. Bu borada KeNet resursini yaratish tajribasiga tayanildi. KeNetni o'rganish natijasida giperonimik munosabatlarni o'rnatishda ba'zi PWN sinsetlarining KeNet sinsetlariga mos kelmasligi aniqlangan edi. Bu muammoni yechish uchun KeNet loyihasi jamoasi iyerarxiyaning yuqori qismlaridagi shunday sinsetlardan ikki til uchun muvofiq, iyerarxiya daraxtining quyi qismlaridagi sinsetlarni yuqori qismlari bilan bog'laydigan yangi sinsetlar yaratilgan, aks holda iyerarxiyada ba'zi o'tish tugunlari yetishmagan bo'lar edi.

Tadqiqot jarayonida UzNet ontologiyasini yaratishda WordNetga butunlay tayana olmaslik va undagi boshqa resurslarga murojaat qila olmaslik ma'lum bo'ldi. Sababi WordNet resurslarini yaratishda ko'p bosqichlarning avtomatik bajarilishi katta muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki bir tabiiy til (ingliz tili) xususiyatlari boshqa bir tabiiy til (jumladan, o'zbek tili) xususiyatlari bilan mos emas. Shuning uchun UzNetni yaratishda dastlabki bosqichlarni qo'lda bajarilishga to'g'ri keladi. Bu jarayonda qoidalarga asoslangan metodga tayaniladi, aksariyat ma'lumotlar qayta ishlangandan so'ng stoxastik metod asosida baza boyitiladi.

Tabiiy til tushunchalari, so'zlar va ifodalar orasidagi munosabatlarni shakllantirishda tilning ijtimoiy tabiati bilan bog'liq muammolaryuzagakeladi. Bundantashqari, ontologiya tushunchalari o'rtasidagi munosabatlarni aniq va muqim holda o'rnatish ham tilning pragmatik jihati bilan bog'liq qiyin masala hisoblanadi, ayniqsa, "leksik birlik – tushuncha (yoxud uning izohi)" aloqalarini tashkil qilishda ham muammolar yuzaga keladi. Bu masalada, tabiiy tildagi har bir leksik birlik (LB)ning to'liq va mukammal izohlari shakllantirilishi talab qilinadi. Buning uchun, avvalo, (1) butun so'z boyligi jamlanishi, (2) har bir LBning turkumi aniqlanishi va (3) o'sha LBning aniq hamda ixcham izoh(lar)i darajalangan (yoxud asosiy tushunchani anglatishi jihatidan tartibli raqamlangan) tarzda shakllantirilishi darkor. O'zbek tili ontologiyasini yaratishda ilgari surilgan **keng qamrovlilik, formal til aspekti, muvofiqlik va semantik simmetriya** tamoyillarida barcha tillar uchun umumiylik kasb etuvchi ushbu zarur qadamlar e'tiborga olingan.

O'zbek tilida fors-tojik tilidan o'zlashgan *osmon* so'zining *ko'k*, *falak* [a], *gardun* [f-t], *samo* [a] kabi sinonimlari mavjud. Lingvistik ontologiyada **sinsetlar** quyidagicha darajalanadi:

Joylashuv o'ri	Sinsetlar	Izohi
Yuqori qator sinsetlar	<i>osmon, falak, gardun, samo</i>	Yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turadigan havo qatlami
Quyi qator sinsetlar	<i>ko'k</i>	Yer ustida gumbaz shaklida ko'rinib turadigan havo qatlami
Ekzemplarlar	<i>Osmon</i>	ism
	<i>Osmon</i>	"Ummon" guruhi tomonidan ijro etilgan qo'shiq nomi

Bo'yoqdorligiga ko'ra darajalanishi: *osmon – ko'k – samo – falak – gardun;*

Giperonimi: *atmosfera* (Yerni va boshqa ba'zi planetalarni o'rab turgan gazsimon qobiq);

Giponimi: *ko'k osmon, ko'k;*

Xolonimi (qisman): *Yer, dunyo, olam, globus* (quyosh sistemasining 3-yo'ldoshi);


Meronimi: *bulut* (suv/muz bo'laklarining balandlikda ko'rinadigan massasi); *kamalak* (Quyosh nurining yomg'ir, favvora tomchilarida sinishi natijasida havoda turli rangda yarim doira shaklida ko'rinadigan yo'l);

Antonim(lar)i: yer, zamin, arz [a].

Ma'lum bo'lganidek, *osmon* so'zi o'ziga *ko'k* rangni va antonimi hisoblanmish *yer* so'zini bog'laganligi uchun *osmon* orqali *ko'k* va *yer* sinsetlariga o'tish mumkin.

Tizimning biznes-jarayon modeli esa graflar nazariyasidagi rekursiv algoritmlar asosida quyidagicha bo'ladi (4-chizma).

UzNetni yaratishda duch kelgan eng katta muammo cheklangan resurslar bilan ishlash bo'lgan. Chunki bu sohadagi tadqiqotlarning aksariyati ingliz tili kabi yaxshi o'rganilgan (formal) tillarga qaratilgan. Turk tilining turli morfologik va sintaktik xususiyatlari ham ushbu tadqiqotlarda qo'llanilgan aniq yondashuvlarni qabul qilishga to'sqinlik qildi. Tillarning struktur tuzilishidagi farqlar, asosan, morfologik tahlilda muammo tug'dirdi, shuningdek, ingliz tilidagi semantik munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga ko'chirib bo'lmaydigan, ingliz va o'zbek tillaridagi bir-biriga muvofiq kelmaydigan holatlarga duch kelindi. Ushbu nomuvofiqlik o'zbek tili uchun ham ichki, ham tillararo tashqi semantik munosabatlarda yuzaga keldi.



4-chizma. O'zbek tili ontologiyasi biznes-protsess modeli

MikroKosmos yoki CYC kabi ko'plab munosabatlarga ontologiyalardan foydalanish muammosi ikki jihat bilan bog'liq. Birinchidan, yangi soha bo'yicha bunday semantik resurs yaratish nihoyatda qiyin, katta mablag' va ko'p vaqtni talab etadi. Ikkinchidan, bunday tizimlardagi ko'p sonli munosabatlar matnni qayta ishlashda ham chalg'ituvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki tavsiflangan munosabatlarning faqat bir qismi muayyan bir kontekstda qo'llanilishi mumkin, qolgan munosabatlar esa keraksiz bo'ladi yoki noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin. Shu bois

ontologiyani yaratishda fidoyi, ziyrak va zukko tilshunoslar talab etiladi, ulardan esa, o'z navbatida, pragmatik tahlil olish malakasining ham bo'lishi talab qilinadi. Zero, kontekst bo'yicha munosabatlarning qo'llanilishini avtomatik ravishda baholash o'ta qiyin.

WordNet tipidagi lingvistik resurlar tilshunoslik an'alariga muvofiq tilning lug'at boyligini tavsiflash uchun yaratilgan. Biroq har qanday axborot tizimi nafaqat umumiy lug'at, balki muayyan fan sohasi va uning terminologiyasi bilan ham shug'ullanadi. WordNet asosida terminologik resurslarni yaratishga urinishlar tahlil qilinganda xulosa shunday bo'ldiki, WordNet strukturasi terminologiyalarni tavsiflash uchun moslashtirilmagan. So'z turkumlarining alohida tavsifi, bir-biriga bog'liq bo'lmagan ma'nolarning juda katta to'plami, ko'p tarkibli ifodalarni kiritish tamoyillarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi – bularning barchasi WordNet modeli asosida yaratilgan terminologik resurslarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda muammolarni yuzaga keltiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, lingvistik ontologiyalar mashina tarjimasi, savol-javob tizimlari, ma'lumot qidirish, bilimlarni olish tizimlari, kompyuter va shaxs o'rtasidagi muloqotni o'tkazish tizimlari, tilni tushunish tizimlari, shuningdek, bilimlarni namoyish qilish, sun'iy intellekt va kompyuter ma'lumotlarini qayta ishlash bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, tilshunoslik sohasida ontologiyalardan matn korpusining semantik Abstraktsi, mashina tarjimasi, ko'p ma'nolilikni avtomatik hal qilish va kontekstga asoslangan omonimiyani aniqlash, quyi darajadagi ontologik turdagi resurs, lug'at va tezauruslarni yaratishda foydalaniladi. Bundan tashqari, ko'p tilli ontologiyalardan tarjimonlar tomonidan bilimlar va tegishli lug'atni o'z ichiga olgan ma'lumot manbalari sifatida foydalaniladi. Shu bois UzNet o'zbek tili ontologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

- Agostini, A., Usmanov, T. and other. 2021. "UZWORDNET: A Lexical- Semantic Database for the Uzbek Language. In S. Bosch, C. Fellbaum, M. Griesel, A. Rademaker and P. Vossen, editors, Proceedings of the Eleventh International Global Wordnet Conference. P. 8.
- Abjalova, M., Rashidova, U., Rahimov, S. 2019. O'zbek tilidagi sinonim so'zlarning ma'lumotlar bazasi. Guvohnoma № BGU 00380. Toshken. (mualliflik guvohnomasi).
- Bobojonov, Sh., Islomov, I. 2007. O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv

- lug'ati: Maktab o'quvchilari uchun. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – 38 b.
- Eiji, Aramaki, Takeshi, Imai, Masayo, Kashiwagi, Masayuki, Kajino, Kengo, Miyo and Kazuhiko Ohe. 2005. Toward medical ontology using Natural Language Processing. //URL: <http://www.m.u-tokyo.ac.jp/medinfo/ont/paper/2005-aramaki-1.pdf>.
- Hojiyev, A. (1974). O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi. 308 b.
- Otabekov, Sh., Boymatova, B. 2007. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati: Maktab o'quvchilari uchun. – Toshkent: Yangi asr avlodi. – 49 b.
- Гаврилова, Т.А. Использование онтологий в системах управления знаниями // http://big.spb.ru/publications/bigspb/km/use_ontology_in_suz.shtml
- Гладун, А.Я., Рогушина, Ю.В. 2006. Онтологии в корпоративных системах. Часть II // Корпоративные системы №1. //URL: <http://www.management.com.ua/ims/ims116.html>
- Клещев, А.С., Шалфеева, Е.А. 2005. Классификация свойств онтологий. Онтологии и их классификации. – Владивосток: ИАПУ ДВО РАН. – С. 3.
- Росеева, О. И., Загорулько, Ю.А. 2001. Организация эффективного поиска на основе онтологий // Труды Международного семинара Диалог>2001 по компьютерной лингвистике и ее приложениям, т.2. – [Электронный ресурс]: [Статья]. – Режим доступа: <http://www.dialog-21.ru/materials/archive.asp?id=7029&y=2001&vol=6078>
- <http://compling.hss.ntu.edu.sg/omw/>
- <http://globalwordnet.org/>
- <http://globalwordnet.org/resources/wordnets-in-the-world/>
- <https://github.com/LDKR-Group/UzWordnet>
- <https://uzwordnet.ldkr.org/>

The concept of designing the creation of uznet linguistic ontology

Manzura Abjalova¹

Abstract

It should be pointed out that in order to improve modern branches of human activity which requires knowledge it is important to increase the role of computer technologies worldwide. At present, because the information flow is rising considerably, now there is necessity of protection, officialization and arrangement of information in a sequence and seeking new ways of processing it automatically as well. Due to this, there is an increasing interest in a wide range of information bases which can be used in practical terms. Especially, the demand is really huge for systems based on neural-nets that takes out any kind of information from the text without human interaction. The half of 20th century saw the emergence of the semantic webs together with global branch and it has been provided with extra tags carrying information about element semantics of hypertext pages. Inseparable part of semantic web is the concept of ontology which is lexical database consisting of a branch of words.

This article covers the creation of the Uzbek language ontology – the concept of the system of UzNet, the basics of its design, the business process model (BPMN) of UzNet ontology.

Key words: *Linguistic ontology, semantic web, Uznet, semantic relationship, concept, designing.*

Reference:

- Agostini, A., Usmanov, T. and other. "UZWORDNET: A Lexical- Semantic Database for the Uzbek Language. In S. Bosch, C. Fellbaum, M. Griesel, A. Rademaker and P. Vossen, editors, Proceedings of the Eleventh International Global Wordnet Conference (GWC-2021), – P. 8.
- Abjalova, M., Rashidova, U., Rakhimov, S. 2019. Database of synonyms of the Uzbek language. Certificate № BGU 00380. – Tashkent, (author's license).

¹*Abjalova Manzura Abdurashetovna* – Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Associate Professor of Computer Linguistics and Digital Technologies of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: abjalovamanzura@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-1927-2669

For reference: Abjalova, M.A., Gulomova N.S. 2022. "The Concept of Designing the Creation of UzNet Linguistic Ontology". *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1(5): 123-139.

- Bobojonov, Sh., Islomov, I. 2007. Educational Dictionary of the level of vocabulary of the Uzbek language: for schoolchildren. Tashkent: Yangi asr avlodi,- 38 p.
- Eiji, Aramaki, Takeshi Imai, Masayo Kashiwagi, Masayuki Kajino, Kengo Miyo and Kazuhiko Ohe. Toward medical ontology using Natural Language Processing. //URL: <http://www.m.u-tokyo.ac.jp/medinfo/ont/paper/2005-aramaki-1.pdf>.
- Khojiev, A. 1974. Explanatory Dictionary of synonyms of the Uzbek language. Tashkent: O'qituvchi, 308 p.
- Otabekov, Sh., Boymatova, B. 2007. Educational Dictionary of meaningful words of the Uzbek language: for schoolchildren. – Tashkent: Yangi asr avlodi, 49 p.
- Gavrilova, T.A. 2006. The use of ontologies in knowledge management systems // http://big.spb.ru/publications/bigspb/km/use_ontology_in_suz.shtml.
- Gladun, A.Ya., Rogushina, Yu.V. Ontologies in corporate systems. Part II // Corporate systems №1. //URL: <http://www.management.com.ua/ims/ims116.html>.
- Kleshchev, A.S., Shalfeeva, E.A. 2005. Classification of ontology properties. Ontologies and their classifications. – Vladivostok: IAPU FEB RAS,- P. 3.
- Rosseeva, O. I., Zagorulko, Yu.A. 2001. Organization of effective search based on ontologies // Proceedings of the International Seminar Dialog'2001 on Computational Linguistics and its applications, vol.2, [Electronic resource]: [Article]. Access mode: <http://www.dialog-21.ru/materials/archive.asp?id=7029&y=2001&vol=6078>.

<http://compling.hss.ntu.edu.sg/omw/>

<http://globalwordnet.org/>

<http://globalwordnet.org/resources/wordnets-in-the-world/>

<https://github.com/LDKR-Group/UzWordnet>

<https://uzwordnet.ldkr.org/>

O‘ZBEK VA RUS TILLARIGA TARJIMA MASALALARI

“Zamonamiz qahramoni” asarida qo‘llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o‘zbek va rus tillari misolida)

Azoda Beysenova¹
Ilmiy rahbar: Xurshida Kadirova²

Abstrakt

Badiiy tarjimaga bag‘ishlangan maqolada “Zamonamiz qahramoni” o‘girma asarining badiiy-uslubiy xususiyatlari, shuningdek, lingvokulturologik asosli tahlil qilingan. Unda tasnifiy metod qo‘llangan bo‘lib, tarjimonning mahorati, mental madaniyatdan xabardorligi asoslangan. Shuningdek, grammatik jihatlarga ham e‘tibor qaratilib, o‘girma asarlarning so‘z, so‘z birikmasi va iboralar almashinuvini xususida ham mulohazalar bildirilgan. O‘zbek tilining frazeologik birliklarga boyligi, ko‘pma’nolilikka xosligi mutarjimlar uchun qulaylik ekanligi, bu esa ta’sirchanlikni ta’minlashi, o‘quvchi uchun yengil ekanligi ta’kidlangan va misollar bilan isbotlangan.

Maqolada tarjimashunoslikning muhim xususiyatlari, jumladan, transformatsiya jarayonlari haqida ham bayon etiladi. Ushbu kichik ilmiy izlanish rus va o‘zbek tillarining qiyosiy tipologiyasini boyitadi.

Kalit so‘zlar: *tarjima, badiiy tarjima, frazeologizm, frazeologik birlik, o‘zbek tili, rus tili, transformatsiya*

Kirish

Tarjima so‘nggi paytlarda avj olgan soha hisoblanib,

¹*Beysenova Azoda Ixtiyor qizi* - ToshDO‘TAU, Amaliy filologiya fakulteti, O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishi, III kurs talabasi

E-mail: beysenovaazoda@navoiy-uni.uz

²*Kadirova Xurshida Batirovna* – filologiya fanlari nomzodi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Amaliy filologiya kafedrasida dotsenti v/b.

E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0001-5194-7155

Iqtibos uchun: Beysenova, A.I.. 2022. “Zamonamiz qahramoni” asarida qo‘llangan frazeologizmlarning badiiy tarjimada aks etishi (o‘zbek va rus tillari misolida)”. *O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya 1(5): 140-148.*

filologiyadan oʻsib chiqqan, jurnalistika bilan bogʻliq, adabiyotshunoslik elementlariga boy, falsafiy yondashuvlarga muhtoj, madaniy, ijtimoiy, tarixiy ildizlarga ega tarmoq sifatida juda keng qamrovliligi bilan ajralib turadi.

Gʻ. Salomovning fikriga koʻra “Tarjima” atamasi forscha “tarzabon” soʻzidan arablashib oʻzgargan, tarzabon – fors tilida “chiroyli soʻzlovchi, notiq, tili burro kishi” degan maʼnoni anglatadi. Ushbu soʻz arabcha “tarjimon” shaklida boʻlib, undan “tarjima” yoki “tarjuma” hosil boʻlgan [Salomov 1990].

Oʻzbekistonda tarjima nazariyasi mustaqil filologik fan sifatida asosan XX asrning 50-yillaridan eʼtiboran shakllana boshlagan boʻlsada, tarjima amaliyoti bir necha ming yillik tarixga ega. Antik davrlardan beri insonlar turli tillarda yozilgan badiiy va ilmiy asarlarni oʻz tillariga tarjima qilib kelishmoqda. IX-XII asrlarda arab madaniyatining hududlarimizda tarqaganligi, birinchi renesans jarayonida tarjimaning tutgan oʻrni beqiyos. Buyuk allomalarimiz Misr, Hind kashfiyotlari bilan bogʻliq ilmni arab tiliga tarjima qilib, uni boyitish, kengaytirish va yangi kashfiyotlarni dunyoga keltirish bilan shugʻullanganlar. Bu atama oʻsha davrdan qolgan boʻlsada bugungi variantlari ham bor. Tarjima rivojlangani sayin avval qilingan xatolar ham koʻzga tashlanib qolmoqda.

XX asr oʻzbek yozuvchilaridan Choʻlpon, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va boshqa badiiy tarjima sohasida ham samarali ijod qilganlar. Badiiy tarjima sohasida M. Osim, N. Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qahhorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V. Roʻzimatov, Q. Mirmuhamedov, A. Rashidov, M. Hakimov, I. Gʻafurov, M. Mirzoidov, Gʻ. Toʻrabekov, T. Alimov va boshqa professional tarjimon sifatida tanilganlar. Oʻzbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar ham tarjimachilikda katta yutuqlarga erishgan. R. Bunda Abdurahdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, Z. Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta [Abduvaliyev 2017].

Tarjima sohasida frazeologik birliklarning tarjimasi alohida oʻringa ega. Zero, tilning frazeologik qatlami xalqning etnografiyasi, streotiplari bilan chambarchas bogʻliq. Va har bir xalqning streotip va etnografiyasi takrorlanmasdir.

Asosiy qism

Frazeologizm tilning mental xususiyati haqida yorqin tasavvur uygʻotadigan birlik hisoblanadi. Ayniqsa, oʻzbek va rus tillari

frazeologik qatlamlari juda keng va boy. Bu ikki til frazeologizmlari o'rtasida bir-biriga muqobil bo'la oladigan va muqobili uchramaydiganlari mavjud. O'zbek va rus xalqining etnografiyasida farq mavjud, ammo rus tilining o'zbek tiliga ta'siri sezilarli darajada ekanligi ahamiyatga molik. Shu bois, maqsadimiz bir asar misolida ikki tilda frazeologik qatlamini tadqiq etish bo'ldi.

Tadqiqotimizning obyektini sifatida M.YU.Lermontovning "Zamonamiz qahramoni" asarini oldik. Bu asar Odil Rahimiy tarafigidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bo'lib, asardagi rus tilidagi frazeologizmlarning o'zbek tilidagi muqobili muvaffaqiyatli yoki o'girma iboraning mulohazali jihatlarini o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Masalan, quyidagi tarjimaning e'tiborga molik jihati mavjud:

I. *Я раз насилу ноги унес, а еще у мирнова князя был в гостях* (361-bet) – *Bir marta zo'rg'a qochib qutilganman, bo'tasa, itoatli bir knyaznikida mehmonda edim* (228-bet). "Уносить ноги" (ibora) – qochib xavfdan qutilmoq. Ushbu iboraning o'zbek tilidagi muqobili so'z birikma sifatida yuzaga chiqadi.

II. Я, однако ж, не позабыл подметить, где поставили наших лошадей, знаете, для непредвидимого случая (363-bet). – *Аmmo men, har ehtimolga qarshi otlarimizni qayerga bog'lab qo'rganlarini ko'z ostiga olib qo'yishni unutmadi* (229-bet). Bunda «Подметить» so'zini "ko'z ostiga olib qo'yish" iborasi orqali tarjimon tildan to'g'ri va samarali foydalangan.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, o'girma asarlar so'z, so'z birikmasi va iboralar almashinuvini boshdan kechirishi muqarrar. Zero, tarjimon mehnati yozuvchining sa'y-harakati bilan barobar. Tarjimon ham asar muallifidan kam ijod qilmaydi. Shunday samarali tarjimalardan yana biri: ...из угла комнаты на нее смотрели другие два глаза, неподвижные, огненные (364-bet) – ...*uyning bir burchagida o'tdek chaqnab turgan bir juft ko'z qizga tikilib turardi* (231-bet). «Огненные» ya'ni "olovli" so'zi o'rnida "o'tdek chaqnab" degan ibora ishlatilgan.

Tarjimon o'girish jarayonida milliy streotiplarga, lingvokulturologik mezonlarga ahamiyat berishi kerakligi ma'lum. Zero, tarjima asar o'quvchi uchun sun'iy, begona tuyilishi tabiiy. Quyidagi misol mazkur omillarga rioya qilinganligidan dalolat beradi: ... вот мы и вышли перед фронт навеселе, да уж досталось нам, как Алексей Петрович узнал: не дай господи, как он рассердился! (361-bet) – *Aleksey Petrovich buni bilib qolib, shunaqangi adabimizni berdiki, asti qo'yaverasiz, rosa jahli chiqdi* (227-bet). Rus tilida keltirilgan

jumlada frazeologik birikma qo’llanilmagan, tarjimon esa o’zbek tilidagi frazeologizmni o’z o’rnida qo’llay olgan. “Adabini bermoq” iborasi kontekstni to’liq ochib bera olgan. Chunki “adabini bermoq” – qilmishiga yarasha jazo olmoq ma’nosini beradi. Va bu ibora faqat o’zbek tiliga xos.

Tarjimon faqat o’zbek mentalitetiga xos bo’lgan iboralardan foydalanib o’quvchi e’tibori jalb qila olgan: ... как напьются бузы на свадьбе или на похоронах, так и пошла рубка (361-bet) – *to’yda mi yo azadami, bo’zani o’lgudek ichib olishadi-da, keyin bir-birlarini chavaqlay boshlashadi* (228-bet). Bu yerda ikki tilda ham ibora ishlatilmagan, ammo, o’zbek tilidagi “chavaqlamoq” so’zi vaziyatga juda mos tushgan. Bu, albatta, asar tarjimasi ta’sirchanligini yanada oshirib bergan.

O’zbek tilining frazeologik birliklarga boyligi, ko’pma’nolilikka xosligi mutarjimlar uchun bugungi kunda sir emas. Buning isbotini XX asrda tarjima qilingan rus mumtoz kinofilmlaridan olishimiz mumkin. Mazkur asarda ham ana shunday go’zal ifodalar ko’zga tashlanadi. Asarda bir necha bor kelgan побледнеет so’zining turli yo’llar bilan tarjima qilinganini ko’rish mumkin. Tarjimon o’zbek tili imkoniyatidan to’g’ri foydalanib, vaziyatni aniqroq ochib berish maqsadida bu so’z o’nida *sarg’ayib, bo’zdek oqarib* va boshqa so’zlardan foydalangan:

А другой раз сидит у себя в комнате, ветер пахнёт, уверяет, что простудился; ставнем стукнет, он вздоргнет и побледнеет; ...(362-bet) – *Ammo ba’zida uyiga kirib olardida, sal shamol esdi deguncha, shamollab qoldim derdi, darcha taqillab ketsa, bir seskanib, rangi bo’zdek oqarib ketardi, ...* (228-bet).

1) *Недели три спустя стал я замечать, что Азамат бледнеет и сохнет, как бывает от любви в романах-с* (368-bet) – *Uch haftalardan keyin qarasam, xuddi romanlardagi singari Azamatning yuzlari sarg’ayib, o’zini oldirib qo’yibdi* (236-bet).

Frazeologik birliklarga tarjima tilida ekvivalent bo’la oladigan vaziyatlar ham borki, ularni o’z o’rnida qo’llash ham katta mahorat talab etadi. Iqtidor egasi bo’lmish bizning qahramon ham o’z mahoratini ko’rsatgan:

... а при мне ходил на кабана один на один; бывало на целым часам слова не добыешься, зато уж иногда как начнет рассказывать, так животики надорвешь со смеха...(362-bet) – *ammo to’ng’iz bilan yakkama-yakka olishganini o’z ko’zim bilan ko’rganman. Ba’zi vaqtlar soatlab indamas edi, ba’zan esa, birdan gapga kirib ketdimi, bas, kulaverib ichaklaring uzilardi...* (228-

bet).

Rus tilidagi «один на один» iborasi o'zbek tiliga “yakkama-yakka”; rus tilida berilgan «как начнет рассказывать» so'z birikmasi o'zbek tiliga “birdan gapga kirib ketmoq” bilan (o'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati tarkibida bunday ibora keltirilmagan, “gapga kirmoq” ya'ni aytganin qilmoq iborasi mavjud); «животики надорвешь» iborasi esa “ichaklar uziladi” iborasi orqali ajoyib tarjima qilingan.

Original tildagi asar ta'sirchanligini o'girma tilda saqlab qolish nafaqat tarjimon mahoratiga, balki til imkoniyatlariga ham bog'liq. Bu masalada muvaffaqiyat qozongan yana bir misol quyidagi tarjimadir: «Эй, Азамат, не сносить тебе головы, – говорил я ему, – яман (плохо) будет твоя башка!» (363-bet) – “*Hoу, Azamat, bir kunmas bir kun boshingni yeysan, ishing chatoq bo'lad!*” *derdim men* (229-bet). «Не сносить тебе головы» – jazodan qochib qutulolmaslik, nobud bo'lish – “boshingni yeysan” deb tarjima qilingan. Boshini yemoq ham nobud bo'lish ma'nosiga ega. «Плохо будет твоя башка» – “ishing chatoq bo'ladi” kabi tarjima tarjimonning mahoratini ko'rsatgan.

Tarjimada sintaktik oborotlarning almashinuvi ham me'yor hisoblanib, tarjimashunoslikda bu hodisani transformatsiyaga uchragani uchun “transformatsion model” deb ataladi.¹

1. ... а шашка его настоящая гурда: приложи лезвием к руке, сама в тело вопьется; а кольчуга – такая как твоя, нипочем (366-bet) – *Otamning qilichi asl po'latdan ishlangan bo'lib, damini qo'lingga tegizsang, botib ketaveradigan, uning sovuti oldida seniki uch pulga arzimaydi* (233-bet). «Нипочем» ya'ni “hech qancha” so'zi mohirona tarzda “uch pulga arzimaydi” deb tarjima qilingan. Bundan tashqari “bir tiyinga qimmat” yoki “bir tiyinga arzimaydi” deb berilsa ham tarjima o'z qimmatini yo'qotmaydi.

2. Вот кругом него собрался народ из крепости – он **никого не** замечал...(370-bet) – *Qal'adan odamlar chiqib, atrofini o'rab olishdi, ammo uning ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi* (238-bet). Birinchi jumlada birgina so'z, ikkinchi jumlada oddiy so'z birikmasi mental leksikada faol qo'llanuvchi frazeologik birlikka aylangan. Shuning uchun, tarjimonning o'girma tilning vakili bo'lishi yoki uni chuqur tushuna olishi, lingvokulturologik qobiliyatga ega bo'lishi muhim masaladir. Zero, bu o'quvchi tilining mental xarakteriga mos birliklardan foydalanish orqali, tarjimma silliqligiga, o'quvchi e'tiboriga erishish, original tilning nutqiy, madaniy xususiyati

¹лот. transformatio — қайта ўзгариш, қайта ҳосил бўлиш

borasida to'g'ri tasavvur hosil qilinishiga sazovor bo'lish garovidir.

Masalan, quyidagi jumalarda tarjima tilida faol hisoblangan iboraning qo'llanilishi ham ilmiy jihatdan, ham ma'naviy jihatdan asosli, o'rinli deb ayta olamiz:

1. Засверкали глазенки **у татарчонка** ... (368-bet) – *Tatarvachchaning ko'zlari chaqnab ketdi* (236-bet).

2. Такой хитрец: ведь смекнул, что не сносить ему головы, если б он попался (370-bet) – *Qo'lga tushsa kallasidan ajralishini bilardi* (239-bet).

Ikkala holatda ham asliyat va o'girma tillarning ekvivalentlik variatsiyasi hamohang ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ayrim hollarda tarjima oqibatida tillar aro frazeologik qatlam boyishi tarjimashunoslikda kuzatilgan. Bu yerda ana shunday hodisa ro'y bergan desak mubolag'a bo'lmaydi. Ammo quyidagi iborada sof mental xususiyat balqib turadi: Что ж за беда? (371-bet) – *shunga ham ota go'ri qozixonami?* (239-bet). «Что за беда» iborasi "ahamiyatga ega bo'lmagan"; "buning nima yomon tarafi bor" ma'nosini bildiradi. O'zbek tilida janjallashib, xafalashib o'tirishga arzimaydi ma'nosini bildiradi. Tarjimon o'zbek tili milliy xarakteri, etnografiyasi, mentalitedidan kelib chiqib tarjimada iborani o'rinli qo'llay olgan. Yoki: Тем лучше: я не в духе рассказывать (371-bet) – *Yana ham yaxshi, aytib o'tirishga hushim yo'qroq edi* (239-bet). «Не в духе» – "kayfiyati yo'q" ma'nosiga ega. Yana bir misol: В самом деле, я ожидал трагической развязки, и вдруг так неожиданно обмануть мои надежды!...(374-bet) – *Darhaqiqat, bu voqea fojia bilan tugasa kerak deb o'ylagandim, birdan umidim puchga chiqdi.* (243-bet). Bu yerdagi birliklardan eng yorqini "umidim puchga chiqdi" iborasi bo'lib, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" [Rahmatullayev 1978]da o'z o'rniga ega emas. Bizningcha, o'zbek tilining frazeologik lug'ati tarkibiga kirishga loyiq bu birlik, tarjimashunoslikda, xuddi yuqoridagidek, asqotadi.

... уздени его отстали, – это было в сумерки, -он ехал задумчиво шагом, как вдруг Казбич, будто кошка, нырнул из-за куста...(374-bet) Mazkur jumlada hech qanday ibora ishlatilmagan. Lekin o'zbek tilida "xayolga g'arq bo'lmoq" iborasi orqali transformatsiyaga uchragan. – *...kech kirib, qosh qoraygan paytda knyaz otini sekin yo'rttirib, xayolga g'arq bo'lib kelayotgan ekan, birdan Kazbich chakalakzorning ichidan qoplandek irg'ib chiqib...*(243-bet). Tarjimon shu o'rinda "xayolga cho'mib, xayolga botib, xayolga tolib" kabi sinonimlardan ham foydalansa bo'lar edi. Lekin "xayolga g'arq bo'lib" iborasi ham samarali natija bergan.

Ushbu jumlada “mushuk” so’zi ham boshqacha ifoda etilishi ta’sirchanlikni saqlash emas, balki oshirishga xizmat qilmoqda desak, mubolag`a bo’lmaydi. O’zbek tiliga ham “mushuk” deb tarjima qilinsa bo’lar edi, ammo “qoplon” deb berilishi asliyatning qolipidan chiqish emas, balki o’girmaning auditoriyasiga moslashish uchun, ya’ni Kazbichning qanday shiddat va jaxl bilan chiqqanini ko’rsatish maqsadida xizmat qilmoqda. Agar o’zbek tilida ham “mushukdek otilib chiqdi” deb berilganda, ma’no nozikligi auditoriya idrokidagi, tasavvuridagi ma’noga ega bo’lmas edi. Chunki o’zbek ruhiyatida mushuk ohista harakat qiluvchi, biroz tannoz obrazni ifoda etadi.

Xulosa

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, muayyan tilning o’zida biror tushuncha birdan ortiq nomga ega. Masalan, o’zbek tilida «Aldab, chalg`itib, har qanday ishni o’z foydasiga hal qiladigan, makr-xiylaga usta» ma’nosi 15 ta leksemada ifodalangan: ayyor, mug’ombir, xiylagar, quv, ustomon, makkor, dog’uli, mo’ltoni, qilvir(i), shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston. Bu ham ma’no va nom o’rtasidagi bog’liqlikning tabiiy emasligini ko’rsatadi. Tarjimada uning mosini tanlash yuksak tajriba, mas’uliyat va bilim zahirasini talab etadi. [Кадирова 2021] Zero, sinonimik qatorda nominativ – figural ma’nolar, asos va hosila ma’nolar, salbiy – ijobiy ma’nolar, monosemantik – polisemantik ma’nolar mavjud ekan, nutq vaziyatida uning ko’chma ma’no bo’lishi, bu esa frazeologik vazifa bajarishi mumkin bo’lgan jihatlariga badiiy tarjimada e’tibor qaratilishi kerak.

Adabiyotlar

- Abduvaliyev, M.A. 2017. Tarjima nazariyasi. Andijon.
- G’afurov, I. 2012. Tarjima nazariyasi. Toshkent: “Tafakkur bo’stoni”.
- Lermontov, M.Yu. 2019. Qora ko’zlar. Toshkent: “O’zbekiston”.
- Rahmatullayev, Sh. 1978. O’zbek tilining izohli frazeologik lug’ati. Toshkent: “O’qituvchi”.
- Salomov, G’. 1983. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: “O’qituvchi”.
- Войнова, Л.А., Жуков, Л.П., Молотков, А.И., Федоров, А.И. 1967. Фраzeологический словарь русского языка. Москва: «Советская энциклопедия».
- Кадирова, Х.Б. 2021. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10. St: 17-22, DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>

Лермонтов М.Ю. 1984. Стихотворения. Поэмы. Маскарад. Герой нашего времени. Москва: «Художественная литература».

Reflection of phraseologism used in the work «Zamonamiz qahramoni» in artical translation (on the example of the Uzbek and Russian languages)

Azoda Beisenova¹

Scientific adviser: Khurshida Kadyrova²

Abstract

The article on literary translation analyzes the artistic and methodological features, as well as the linguoculturological basis of the translated work «ZAMONAMIZ KAHRAMONI». It uses a classification method based on the skill of the translator, awareness of the mental culture. Attention is also paid to grammatical aspects, for example, the exchange of words, phrases and expressions of phraseological units of the translated work. the richness of the uzbek language with phraseological units, the originality of ambiguity, provides translators with good conditions for work, convenience for the reader, this is proven in the article with examples.

The article also describes important features of translation studies, including transformation processes. This small study enriches the comparative typology of the Russian and Uzbek languages.

Key words: *translation, literary translation, phraseology, Uzbek, Russian, transformation.*

References

- Abduvaliyev, M.A. 2017. Tarjima nazariyasi. Andijon.
G‘afurov, I. 2012. Tarjima nazariyasi. Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni”.
Lermontov, M.Yu. 2019. Qora ko‘zlar. Toshkent: “O‘zbekiston”.
Rahmatullayev, Sh. 1978. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent: “O‘qituvchi”.
Salomov, G’. 1983. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: “O‘qituvchi”.
Voynova, L.A., Jukov, L.P., Molotkov, A.I., Fedorov, A.I. 1967. Frazeologicheskiy slovar russkogo yazika. Moskva: «Sovetskaya entsiklopediya».

¹*Beisenova Azoda Ixtiyar kizi* – Tashkent State University of Uzbek language and literature, Faculty of Applied Philology, The direction of the Uzbek language in other language groups, 3rd year student

E-mail: beysenovazoda@navoiy-uni.uz

For citation: Beisenova A.I.. 2022. «Reflection of phraseologism used in the work «zamonamiz qahramoni» in artical translation (on the example of the Uzbek and Russian languages).» *Uzbekistan: language and culture. Applied Philology* 1 (5): 140-148.

- Kadirova, X.B. 2021. Problemi peremeni evfemizmov i disfemizmov v xudojestvennom perevode. ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10. St: 17-22, DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
- Lermontov M.Yu. 1984. Stixotvoreniya. Poemi. Maskarad. Geroy nashego vremeni. Moskva: «Xudojestvennaya literatura».

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM muhojirasi, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa,

bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.
Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anjion, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya" ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago:

Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko‘chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.06.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. “Cambria” garniturasida.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.

“YASHNOBOD NASHR” bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.